

# JAHON TARIXI



Qayta ishlangan va tuzatilgan  
3-nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi  
umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinfi  
uchun darslik sifatida tasdiqlagan*

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2014

**UO‘K 94(4/9)(075)**  
**KBK 63.3(0)53ya721**  
**J 23**

Tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo‘yicha ekspert guruhi xulosasiga binoan Respublika ta’lim markazining tarix fanlari o‘quv-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

*Mualliflar:*

**M. Lafasov, U. Jo‘rayev,**  
**E. Xoliqov, D. Qodirova**

*Mas’ul muharrir:* tarix fanlari doktori, professor **E.Z. Nuriddinov.**

*Taqrizchilar:* falsafa fanlari nomzodi **R.R. Nazarov;**  
oliy toifali o‘qituvchi **B. Abdullayev.**

## **SHARTLI BELGILAR**



Mavzu ustida mustaqil ishlash.



Esda tuting.



Atamalar mazmuni.



Bahs uchun mavzu.



Savol va topshiriqlar.

## KIRISH

Aziz o‘quvchilar!

Siz mustaqil O‘zbekistonning farzandlarisiz. Jahon tarixini o‘rganishda davlatimiz rahbari Islom Karimovning o‘z tarixini bilish jahon tarixi, umumbashariy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganishning asosi ekanligi haqidagi fikrini yodda tutishingiz zarur.

Siz o‘rta umumta’lim maktabining oxirgi, 9-sinfiga qadam qo‘ydingiz. Maktabni bitirgach, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga kirib o‘qiysiz. Siz 8-sinfda „Jahon tarixi“ bo‘yicha XVI asr boshlaridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrni o‘rgandingiz. Endi jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o‘rganasiz. Chunki bu davrda dunyoda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrning asosiy belgisi — ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topdi. Turli xil sindikatlar, kartellar, konsernlar yuzaga keldi. Ishlab chiqarish markazlashdi, xorijga kapital chiqarish boshlandi. Bir qator davlatlar oldingi 100 yillarda erisha olmagan taraqqiyotga erishdilar.



Bozor iqtisodi jamiyati taraqqiyotiga xos bo‘lgan bunday o‘zgarishlarni hozirda bizning mamlakatimiz o‘z boshidan kechirmoqda. Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashimizni tezlashtiradi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar tarixini chuqur o‘rganib, uning ijobiy tomonlaridan respublikamiz ravnaqi uchun foydalanish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Ushbu darslik tarixni yangi davrlashtirish asosida tayyorlangan bo‘lib, XIX asrning 70-yillaridan 1918-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Darslikda tarixni yangi davrga moslab, sinfiy hamkorlikni mustahkamlashga, insonparvarlashtirishga, gumanitar g‘oyalarni kengaytirishga, urushlarning insoniyat dushmani ekanligini ko‘rsatishga, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot dunyo xalqlarining osoyishta yashashi uchun zarurat ekanligini ochib berishga harakat qilindi.

# I BO‘LIM

## JAHON XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA

### I bob

## DUNYONING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY MANZARASI



### XIX asr oxiri — XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o‘zgarishlar

#### Monopolistik kapitalizm

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yangi bosqich — monopolistik kapitalizm deb ataluvchi bosqich qaror topdi. Monopolistik kapitalizm — bu kapitalizmning iqtisodiy hayotida monopoliyalar vujudga kelgan, moliya oligarxiyasi shakllangan, siyosiy hayotda esa ularning jamiyat hayoti ustidan hukmronligi o‘rnatilgan bosqichidir.

Kapitalizmning bu bosqichi erkin kapitalizm bosqichidan quyidagi asosiy belgilari bilan ajralib turadi:

**1. Ishlab chiqarish sohasida monopoliyalarning vujudga kelganligi.**

Monopoliya — ishlab chiqarish yoki savdoning bir sohasida yakka hukmronlikni egallab olgan ulkan korxonalar yoki shunday korxonalar birlashmasidir. Monopoliyalar industrial davlatlarning barchasida vujudga kelgan edi.

Ular kartel, sindikat, trest va konsern shaklida mamlakat xo‘jaligining u yoki bu sohasida hukmron edilar. Masalan, 1893-yilda Germaniyada tashkil topgan Reyn-Vestfaliya ko‘mir sindikati mamlakatda qazib olinadigan va sotiladigan ko‘mirning asosiy qismini o‘z qo‘lida to‘plagan.

XIX asr oxirida Germaniyada monopoliyalar soni 250 tadan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, AQSHda esa 185 ta monopoliya faoliyat ko‘rsatgan.

**2. Moliya oligarxiyasining vujudga kelganligi.**

Bu hodisa sanoat va bank kapitalining qo‘shilishi natijasida sodir bo‘lgan. Ishlab chiqarishning markazlashuvi va sanoatning mo-

nopoliyalashuvi jarayoni bank faoliyatida kapitalning markazlashuviga olib keldi. Kuchli raqobat tufayli kichik banklar xonavayron bo‘lib, yirik banklar tarkibiga qo‘shilib ketdi. Natijada, juda katta moliyaviy qudratga va o‘z mamlakatida ulkan siyosiy ta‘sirga ham ega bo‘lgan moliyaviy markazlar — bank-gigantlar (yirik banklar) vujudga keldi. XX asr boshlarida shunday banklar Fransiyada uchta, AQSHda esa ikkita edi.

Bank kapitali bilan sanoat kapitalining birlashib ketishi kapitalning yangi shaklini — moliya kapitalini vujudga keltirdi. Po‘lat, neft, gazeta va boshqa soha „qirollarining“ juda katta bank-sanoat imperiyalari paydo bo‘ldi.

AQSHda mamlakatning iqtisodiy hayotini nazorat qilib turgan 60 ta oilaning shunday imperiyalari mavjud edi. XIX asrning oxirida bu oilalardan „katta uchlik“ — Rokfeller (neft), Morgan (moliya), Karnegi (po‘lat) ajralib turardi. XX asr boshlarida Karnegi o‘zining ko‘p millionli mulkini sotganidan so‘ng amerikaliklar nigohida tadbirkorlikdagi omad va boylukning qudrati ikki kishida — Morgan va Rokfellerda mujassamlashdi. Chunonchi, Rokfellerlarning neft tresti mamlakatdagi neft mahsulotlarining deyarli barchasini ishlab chiqarardi, Morganning po‘lat tresti esa po‘latning 66 foizini berardi. Fransiyada esa moliyaviy qudratning timsoli fransuz bankinging yirik omonatchilari bo‘lgan „200 oila“ edi.

### **3. Chetga kapital chiqarish muhim ahamiyat kasb etdi.**

Monopoliyalar, moliya oligarxiyasi foydani ko‘paytirishga harakat qilib, chetga endi tovarlarni emas, balki kapital chiqarishga alohida ahamiyat bera boshladilar. Chunki, endilikda tovar chiqarishdan ko‘ra, chet mamlakatlarga kapital chiqarish, ya‘ni ularga foiz evaziga kreditlar berish; tabiiy boyluklarni arzonga sotib olish, u yerlarda eng arzon ishchi kuchi hisobiga boyluk orttirish imkonini beruvchi korxonalar qurish foydali bo‘lib qoldi.

#### **Chetga kapital chiqarishning o‘sishi (milliard rubl hisobida)**

Mamlakatlar	Yillar		
	1869	1899	1914
Buyuk Britaniya	5,8	23,9	36,7
Fransiya	3,9	12,3	22,1

Germaniya	—	4,8	16,6
AQSH	—	1,0	5,3
Rossiya	—	—	0,5
Yaponiya	—	—	0,4

Shu tufayli, 1900—1913-yillarda industrial davlatlar chetga chiqargan kapitalning hajmi ikki barobar oshganligi bejiz bo‘lmagan edi. Chunonchi, 1875—1900-yillarda Buyuk Britaniyaning chet ellarda joylashtirgan kapitali 2, Fransiyaniki 2,25, Germaniyaniki esa 7,5 barobar oshgan.

#### **4. Xalqaro monopoliyalarning dunyoni iqtisodiy jihatdan bo‘lib olishi.**

Eng yirik monopoliyalar, moliya oligarxiyasining turli guruhlari bozorlar, xomashyo manbalari ustidan nazorat o‘rnatishga intilganlar. Shu tariqa, xalqaro monopoliyalar vujudga kelgan. 1910-yilda ularning soni 100 taga yetgan. Natijada, endi yangi bir hodisa — xalqaro monopoliyalar o‘rtasida jahon xo‘jaligi va boyligini nazorat qilish uchun kurash boshlangan. Chunonchi, ikki moliya guruhi — Rokfeller (AQSH) va Rotshildlar (Buyuk Britaniya, Fransiya) guruhi jahonning kerosin bozorini bo‘lib olgan.

1907-yilda esa, g‘oyat ulkan monopoliyalar — „Umumiy elektr kompaniyasi“ (AQSH) bilan „Umumiy elektr jamiyati“ (Germaniya) o‘rtasida ham jahon elektr bozorini bo‘lib olish va o‘zaro hamkorlik qilish to‘g‘risida shartnoma tuzilgan.

Shu tariqa, deyarli barcha boshqa kuchsiz, qoloq davlatlar eng yirik industrial davlatlarning moliya oligarxiyasiga tobora ko‘proq qaram bo‘lib qolgan.

#### **5. Dunyoni industrial davlatlar tomonidan hududiy jihatdan taqsimlab olish uchun kurash kuchaydi.**

Moliya oligarxiyasi qudratining mustahkamlanishi bilan industrial davlatlarning o‘z mustamlakalarini kengaytirishga intilishlari yanada kuchaydi. Bu hol industrial davlatlar o‘rtasida dunyoni hududiy jihatdan bo‘lib olishni tezlashtirdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha ular o‘rtasida butun yer yuzining yarmidan ko‘pi bo‘lib olingan edi.

Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya juda katta mustamlakalarga ega bo‘lib oldi.

Germaniya, Italiya va Yaponiya esa uncha katta bo‘lmagan hududlar bilan kifoyalanishga majbur bo‘ldi.

Iqtisodiy taraqqiyotda dunyoda 2-o'ringa, Yevropada esa 1-o'ringa chiqib olgan Germaniyani dunyoning bunday taqsimlanish holati aslo qoniqtirmagan.

AQSH juda katta hudud, boy xomashyo zaxiralari, keng ichki bozorga ega bo'lganligi uchun mustamlakalar zabt etishga ishtiyoq bildirmadi. Buning ustiga, iqtisodiy jihatdan dunyoning yetakchi davlatiga aylanib olgan AQSH, ochiq qurolli hujum qilishdan ko'ra boshqa davlatlarga, birinchi navbatda, Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiga kirib borishni afzal ko'rdi. Iqtisodiy jihatdan qudratli AQSH raqiblarini harbiy kuch ishlatmasdan ham siqib chiqarishi mumkin edi. Biroq, bu AQSHning yangi hududlarni bosib olishdan butunlay voz kechganligini anglatmas edi. XIX asrning oxiriga kelib, AQSH Gavayi orollarini anneksiya qildi. Filippinni bosib oldi, Puerto-Riko va Guam orollarini o'zining yarimmustamlakasiga aylantirdi.

**XIX asr oxirida yirik davlatlar tomonidan bosib olingan mustamlakalar**

Mamlakatlar	Yer maydoni (mln.kv.km. hisobida)	Aholi soni (mln. kishi hisobida)
Buyuk Britaniya	33,5	393,5
Fransiya	10,6	10,6
Germaniya	2,9	12,5
AQSH	0,3	9,7

Mustamlakachilik siyosati natijasida, XIX asrning oxiriga kelib „egallanmagan yerlar“ni bosib olish yakunlandi. Iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlarning Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi kam taraqqiy etgan mamlakatlarga ta'siri tobora kuchaydi. Kun tartibida mustamlakalarni va ta'sir doiralarni qayta bo'lish masalasi paydo bo'ldi. Ko'plab davlatlar muammoni hal qilishning vositasi sifatida kuchga tayanishni lozim topdilar. Oqibatda, qurollanish poygasi boshlanib, hayotni harbiylashtirish borgan sari avj oldi.

Qurollanish poygasiga katta ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri Yevropa davlatlari o'rtasidagi hududiy nizolar ham edi. Yevropa davlatlari o'rtasida munosabatlarni keskinlashtirgan yana boshqa bir sabab, ularning bir-biridan iqtisodiy va harbiy-strategik ustunlikka erishish uchun kurashi bo'ldi. Ayni paytda, XIX asrning oxiriga kelib, iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Yevropada birinchi, dunyoda AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinni muqim egallab olgan Ger-






OSIYO VA AFRIKANING RIVOJLANGAN







DAVLATLAR TOMONIDAN BO'LIB OLINISHI

maniya Buyuk Britaniya va Fransiyaning g'azabini keltirardi. Rossiya esa, o'z navbatida, Germaniyaning xotirjamligiga putur yetkazayotgan edi. Shu tariqa dunyoning rivojlangan buyuk davlatlar o'rtasida bo'lib olinishi, iqtisodiy va siyosiy raqobat, harbiy-strategik ziddiyat va qurollanish poygasi boshlanib ketdi.

### **Monopolistik kapitalizmning o'rnini**

imkoniyat yaratdi. Bu esa mehnat unumdorligining keskin oshishini ta'minladi.

Ikkinchidan esa, jamiyatning juda ozchilik guruhi qo'lida ulkan hokimiyat to'planishiga olib keldi. Shuning uchun ham AQSH monopoliyachilarini bekorga „Amerikaning tojsiz qirollari“ deb atashmagan edi. Ular AQSH hukumatining ichki va tashqi siyosatiga katta ta'sir ko'rsata olganlar. Yoki Germaniyada „Kruppga nima yaxshi bo'lsa, u Germaniya uchun ham yaxshi“, deyishardi. Chunki, ular ulkan miqdordagi boylikka egalik qilardi.

Uchinchidan, monopolistik kapitalizm qirg'in-barot mustamlakachilik urushlarini kuchaytirganligi bilan ham ajralib turadi. Bunday urushlarning, ayniqsa, XIX asr oxirida kuchayishi „imperializm“ atamasining keng ishlatilishiga olib keldi. Bu atama dastlab industrial davlatlarning mustamlakachilikdan iborat tashqi siyosatlariga nisbatan ishlatildi. Keyinchalik „imperializm“ atamasi „monopolistik kapitalizm“ atamasining sinonimi o'rnida qo'llaniladigan bo'ldi. Shu tariqa, bu ikki atama ayni bir xil ma'noni anglata boshladi.



**Monopoliya** (yunoncha, mono—tanho, poleo—sotaman)—iqtisodiyotning bir sohasidagi tanho hukmronlik.

**Moliya**—maqsadli pul jamg'armalarini vujudga keltiruvchi, jamlash, taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq munosabatlar.

**Oligarxiya** (yunoncha — ozchilik hokimiyati) — iqtisodiy va siyosiy hukmronlikning bir hovuch ulkan sarmoya egalari qo'lida to'planishi.

**Kartel** (italyancha — qog'oz, hujjat) — bir tarmoqdagi mustaqil kompaniyalar, firmalarning ishlab chiqarish va sotishning umumiy hajmlari, narxlari, sotish bozorlari, har bir ishtirokchining ulushi va boshqalar to'g'risidagi bitim asosida tashkil etilgan tuzilma.

**Konsern** (ishtirok, manfaat) — manfaatlar umumiyligi asosida uyushgan korxonalarining yirik birlashmasi.

**Sindiklat** (yunoncha — birgalikda ishlash) — bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar birlashmasi.

**Trest** — ishlab chiqarish va savdoni o‘zlaricha emas, markaziy boshqaruv qarori asosida olib boradigan korxonalar birlashmasi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Monopolistik kapitalizm nima?
2. Monopolistik kapitalizmning asosiy belgilari nimalardan iborat?
3. Moliya oligarxiyasiga misollar keltiring.
4. Chetga kapital chiqarish qanday yuz berdi?
5. Dunyoni bo‘lib olish zarurati nima?
6. „Imperializm“ atamasiga izoh bering.

## **2-§.**

### **Industrial sivilizatsiya**

#### **Industrial sivilizatsiya haqida**

Siz 8-sinf „Jahon tarixi“ darsligidan XIX asrning 50—60-yillarida G‘arbiy Yevropa va AQSHda sanoat to‘ntarishi nihoyasiga yetganligini bilib olgan edingiz. Shu tariqa industrial sivilizatsiya uzil-kesil qaror topdi. Bu sivilizatsiya — asosiy qadriyati texnika taraqqiyoti bo‘lgan sivilizatsiya edi.

„Industrial sivilizatsiya“ atamasi o‘rnida „industrial jamiyat“ atamasi ham ishlatiladi va ular bir xil ma‘noni anglatadi.

Industrial sivilizatsiyaning belgilaridan biri — shaharlarning juda tez o‘ssishi bo‘ldi. Bu, birinchidan, qishloq xo‘jaligida texnikani qo‘llash natijasida bir qism qishloq aholisining ortiqcha kuch bo‘lib, ishsiz qolishi, ularning ish izlab shaharlarga kelishi hisobiga yuz berdi.

Ikkinchidan, kichik shaharlarda mayda savdogarlar va hunarmandchilik ishlab chiqarishining pasayib ketishi, shuningdek, transportdagi o‘zgarishlar, temiryo‘llar qurilishi, sanoat markazlarining yirik shaharlarga ko‘chishi hisobiga yuz berdi. Odamlar ish axtarib va kun ko‘rish uchun turar joylarini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Yuz yillar davomida o‘z yerlarida yashab kelgan aholi harakatga keldi. Endi ular o‘z yerlarini tashlab shaharlarga keta boshladi. Qishloqdan ketish immigratsiyani ham vujudga keltirdi. Endi odamlar boshqa mamlakatlarga ham keta boshladilar. Lekin ko‘chishning katta qismini o‘z mamlakatlari ichidagi migratsiya tashkil etdi.

#### **Shaharlarning rivojlanishi**

Industrial rivojlanish jarayonida shaharlar alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Sanoat

ishlab chiqarishi deyarli butunlay shaharlarda joylashgan edi. Jamiyatning asosiy g'oyalari, muhim siyosiy voqealar ham shaharlarda yuz berardi. Shaharlar juda katta tezlik bilan o'sdi. XIX asrning o'rtalariga kelib, industrial davlatlarda aholining qariyb yarmi shaharlarda to'plandi. Manufaktura ishlab chiqarishi davrida shaharlar uncha katta emasdi.

Shaharlarning shitob bilan rivojlanishi industrilashning asosini yaratgan sanoat to'ntarishi, fabrika-zavod ishlab chiqarishi oqibati edi. Buyuk Britaniyada bu jarayon ertaroq boshlandi. Boshqa joylarda kechroq, masalan, Germaniyada XIX asrning 70-yillarida avj oldi. AQSHda jadal urbanizatsiya jarayoni ham taxminan shu davrga to'g'ri keldi. Umuman, XIX asrning oxiri — XX asr boshida industrial mamlakatlarda shahar aholisi juda tez o'sdi.

Eski shaharlarning o'sishi, yangilarining rivojlanishi sanoatning joylashishi bilan bog'liq edi. Ko'pchilik aholi shaharlarga ish topish umidida kelardi. Ayniqsa, poytaxt, katta shaharlar tez o'sdi. Masalan, Parij aholisi 1850-yili bir million bo'lgan bo'lsa, 1880-yilda esa ikki million kishidan iborat bo'ldi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab, shaharlar qurilishida ham o'zgarish yuz beradi. Masalan, Parij 1853-yildan boshlab 20 yil davomida qurilish maydoniga aylandi. U zamonaviy qilib qaytadan qurildi: keng ko'chalar, katta maydonlar, xiyobonlar va bog'lar yaratildi. XIX asr oxiriga kelib, ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, tramvay va metroga ega bo'ldi. Boshqa mamlakatlarda ham shaharlar aholisi tez o'sdi.

### **Eski va yangi aristokratiya**

XIX asrda ham aristokratiya jamiyatda o'z mavqeyini saqlab, ular boyligining asosini avvalgiday yer mulklari tashkil qilardi. Aristokratlarning hayoti hali ham shaharlardan ko'ra ko'proq qishloq bilan bog'liq edi. Keng va qulay binolardagi o'nlab yotoqxonalar, kutubxonalar, shaxsiy badiiy kolleksiyalar, qabul marosimlari, ovlar—bularning barchasi hali ham aristokratlar hayotining ajralmas qismi edi. Nikohlar qoidaga ko'ra „o'z doirasida“ tuzilganligi sababli, aristokrat oilalar o'zaro qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan edi. Buyuk Britaniyadagi bunday oilalarda o'g'il bolalarni yoshligidanoq siyosiy faoliyatga tayyorlashar edi. Avvaliga ular imtiyozli xususiy maktablarda, keyin esa Oksford yoki Kembrij universitetlarida o'qirdilar. Shundan keyingi faoliyat maydoni parlament bo'lardi.

XIX asr o'rtalarida Buyuk Britaniya parlamenti jamoalar palatasining 652 a'zosidan 489 tasi yer mulkdorlari edi. 1906—1916-yillarda Buyuk Britaniya vazirlarining uchdan ikki qismi elita bilim yurtlari bitiruvchilari edi. Biroq, industrial sivilizatsiya rivojlanishi bilan aristokratiya o'zining hukmronlik holatini borgan sari yo'qota bordi. Yerning bir qismi shaharlar qurilishiga berildi, o'rmon mulklari ham qisqardi.

Yangi davr obro'talab kishilar oldiga yangi talablar qo'ya boshladi. Ilgari yer mulkdorlari bo'lgan aristokratiya endi banklarda, sanoat kompaniyalarida, mustamlakalar ma'muriyatlarida rahbarlik lavozimlarini egallay boshladi. Ko'pgina mulkidan ayrilgan eski aristokratlar yangi boylar bilan qarindosh tutinishi aristokratiyaning burjuaziya bilan qo'shilib ketishiga olib keldi.

XIX asrda davlatning iqtisodiy va siyosiy hayotida burjuaziya tobora kattaroq rol o'ynay boshladi. Yirik sanoat korxonalari va banklar tepasida millionlab boylik to'plagan burjuaziya vakillari turardi. Burjuaziyaning eng yorqin vakillari katta siyosiy mavqega ham erisha boshladi.

### **O'rta qatlam**

XIX asrda jamiyat hayotining muhim voqealaridan biri „o'rta qatlam“ning shakllanishi bo'ldi. „Erkin kasb“ egalari bo'lgan shaxslar — muhandislar, ixtirochilar, shifokorlar, o'qituvchilar, ofitserlar, huquqshunoslar va shu kabilar jamiyatning o'rta qatlamini tashkil etgan. Bu qatlamga taalluqlilikning asosiy belgilaridan biri moddiy ahvolning har holda to'kisligi bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida o'rta qatlam vakillari orasida, ayniqsa, huquqshunoslar toifasi ajralib turardi. Huquqiy davlatning shakllanishi, fuqarolik jamiyatining barpo bo'lishi, iqtisodiy hayotning rivojlanishi tufayli huquqshunoslarga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Ular konstitutsiyalar, qonunlar yozish, kodekslar tuzish, vasiyatlarni rasmiylashtirish, banklarga, tadbirkorlarga maslahatlar berish va sud jarayonlarida ishtirok etish kabi ishlarni bajargan. Ko'pgina siyosiy arboblardan ham ma'lumotiga ko'ra huquqshunos edi. O'rta qatlam jamiyatga barqarorlik baxsh etdi. Chunki, odatda, o'rta qatlam ijtimoiy buhronlarni ma'qullamaydi, inqiloblardan islohotlarni afzal ko'radi.

### **Ishchilar sinfi**

XIX asrda yangi ishchilar sinfi shakllandi. Sanoat to'ntarishi yuz bergan uchta yirik

mamlakat — Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSHda 70-yillarga kelib sanoat ishchilari 12—13 mln. kishini, qishloq xo‘jaligidagi ishchilar bilan birgalikda esa 20 mln. kishini tashkil qilardi. Ishchilarning ahvoli bir xil emasdi. Ularning yarmidan ko‘prog‘i qashshoqlik bo‘ sag‘asida yashasa, malakali mutaxassis ishchilar esa ko‘proq haq olib, „ishchi aristokratiasini“ tashkil qilardi. XX asr boshlarida „ishchi aristokratiasini“ Buyuk Britaniyada umumiy ishchilar sonining uchdan birini tashkil qilib, juda yaxshi yashardi.

XX asr boshida AQSH sanoat ishchilarining soni jihatdan birinchi o‘rinni egalladi. Bu yerda 10,4 mln. nafar sanoat ishchisi mavjud edi. Germaniyada esa sanoat ishchilarining soni 1907-yil 8,6 mln. kishiga yetdi. Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ishchilar soni 40 mln. kishini tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohasi, transport va boshqa sohalardagi ishchilar birgalikda 80 mln. kishiga yaqinlashdi.

Yollanma ishchi kuchining malakasida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Sanoatning yangi sohalari malakali mehnatni talab etardi. Malakali ishchilarning salmog‘i Buyuk Britaniya mashinasozligida ishchilar umumiy sonidan 70—75, kemasozlikda esa 50—60 foizini tashkil qilardi. AQSHda umumiy sanoat ishchilarining 2/3 qismi, Germaniyada yarmidan ko‘prog‘i malakali ishchilar edi.

XIX asrning 70-yillarigacha ish kunining uzunligi industrial davlatlarda 10—16 soatni tashkil etgan.

Ayollar va bolalar mehnatiga ish haqi kam to‘lanardi. „Fabrika ayollari“, asosan, 13—14 yoshli qizlardan iborat bo‘lgan.

10—12 yoshli bolalar tamaki fabrikalaridan tortib toshko‘mir shaxtalarida ham mehnat qilishardi. Ular mehnati uchun ayollardan ham kam haq olardi.

Bu davrda xotin-qizlar teng huquqlilik uchun tinimsiz kurash olib bordi. XX asr boshlariga kelib, xotin-qizlar ozodligi va mustaqilligi g‘oyalari, ularning teng huquqlilik uchun kurashlari yangi sivilizatsiya jamiyatining belgilaridan biri bo‘lib qoldi.



**Immigrant** (lotincha — ko‘chib keluvchi) — bir davlatdan boshqa bir davlatga doimiy yoki uzoq vaqt yashash uchun ko‘chib kelgan shaxs.

**Industriya** (lotincha — faoliyat) — sanoat, xususan, yirik sanoatni anglatuvchi atama.

**Migratsiya** (lotincha — ko‘chaman) — u yoki bu davlat aholisining bir hududdan boshqa hududga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘chishi.



**Urbanizatsiya** (fransuzcha va lotincha — shaharga mansub) — jamiyat hayotida shaharlar rolining va shahar aholisi salmog‘ining ortib borishi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Industrial sivilizatsiya qay tariqa qaror topdi?
2. Industrial sivilizatsiya natijasida shaharlar hayotida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
3. Siz XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi urbanizatsiya va migratsiya hodisalarini qanday izohlaysiz?
4. Aholining o‘rta qatlamini kimlar tashkil etadi? O‘rta qatlamning ko‘payishi jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega?
5. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Vatanimiz tarixini G‘arbiy Yevropa va AQSH tarixi bilan taqqoslang.
6. Bugungi kunda xalqaro huquqda bolalar mehnatiga necha yoshdan ruxsat berilishini aniqlang.



XIX asr oxiri va XX asr oxiridagi ishlab chiqarish birlashmalarini o‘zaro solishtiring. Farqi bormi?



Bu davrda davlatlar taraqqiyotiga sabab bo‘lgan omillarga tavsif bering.



„Taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish lozim. Biroq, bu tajribalarga ko‘r-ko‘rona yondashmasdan, o‘zimizning milliy ehtiyojlarimizdan kelib chiqib, eng maqbul shakllarini tanlab olishimiz darkor“.

*Islom Karimov*



# II YEVIROPA VA AMERIKA DAVLATLARI

## BO'LIM

### II bob

### G'ARBIY YEVIROPA DAVLATLARI XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA



#### Fransiya—Prussiya urushi va uning yakunlari

#### Fransiya—Prussiya urushining sabablari

XIX asrning 60-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Fransiya imperatori Napoleon III mavqeyiga putur yetdi. Bunga sabab—Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha o'z qo'shnilari bo'lgan Buyuk Britaniya va Germaniyadan tobora orqada qolayotganligi bo'ldi.

Ayni paytda, Fransiya tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatsizlikka uchray boshladi. Chunonchi, u Prussiyaning Germaniyani birlashtirishiga to'sqinlik qila olmay qoldi. Germaniya yagona davlatga birlashadigan bo'lsa, Fransiyaning xalqaro maydondagi obro'siga jiddiy zarar yetar va Yevropadagi ikkinchi davlatdek mavqeyi barham topar edi.

Fransiya hukmron doiralari 1860-yildagi Buyuk Britaniya—Fransiya savdo shartnomasidan ham norozi edi. Chunki, ingliz tovarlarining Fransiyaqa ko'plab kiritilishi fransuz tovarlari bilan raqobatni kuchaytirmoqda edi. Bundan tashqari, mamlakatda ishsizlik, qimmatchilik mehnatkashlarning doimiy yo'ldoshi bo'lib qolgandi. Bu hodisa ishchilarning keskin noroziligini vujudga keltirdi.

Bunday sharoitda, Napoleon III uchun Prussiyaga qarshi g'olibona urush zarur edi. Bu urush Fransiyaning, shuningdek, Napoleon III ning ham mavqeyini tiklagan bo'lardi. Buning uchun esa urushda g'alaba qozonish, Germaniyaning birlashishiga yo'l qo'ymaslik va Germaniyaning ba'zi hududlarini bosib olish zarur edi.

Prussiya ham bir necha yillardan beri Fransiyaqa qarshi urushga tayyorlanib kelmoqda edi. Uning maqsadi Germaniyada Prussiya-

ning hukmronligini mustahkamlashga to'siq bo'lgan Fransiyani yengish va Germaniyani birlashtirishni nihoyasiga yetkazish edi. Tomonlarga urushni boshlash uchun bir bahona zarur edi, xolos. Tez orada bunday bahona ham topildi.

**Urushning boshlanishi** Ispaniya taxtiga kimni o'tqazish masalasi urushning boshlanishi uchun bahona bo'ldi. Xo'sh, bu muammo qanday vujudga kelgan edi? O'zining bir vaqtlardagi qudratini yo'qotgan Ispaniyada 1868-yilda inqilob yuz berdi. Qirolicha Izabella II Fransiyaga qochib ketishga majbur bo'ldi. Fransiya imperatorining xotini (millati ispan edi) Izabellaga taxtni qaytarib olishida yordam berishga qaror qildi.

Biroq, tez orada, Yevropaning buyuk davlatlari o'rtasida Ispaniya taxti uchun boshlanib ketgan kurash bunga imkon bermadi. Bunga Germaniyaning ham Ispaniya taxtiga o'z nomzodini qo'yishga harakat qilgani sabab bo'ldi. Fransiya hukumati Germaniyadan o'z nomzodidan voz kechishini talab etdi. Imperator Vilgelm I bunga rozi bo'ldi. Biroq, bu rozilik Fransiyani qanoatlantirmadi. Endi, Fransiya Germaniyadan kelgusida ham Ispan taxti uchun nomzod ko'rsatmasligini, hozir ko'rsatgan nomzodidan taxt da'vosidan butunlay voz kechishiga erishishini talab qildi. Imperator Fransiya elchisiga bu masala xususida Berlinga qaytgach javob qaytarishini ma'lum qildi.

Urushga shoshilayotgan Prussiya kansleri Bismark esa gazetada imperator va Fransiya elchisi o'rtasidagi suhbat tafsilotini atayin buzib talqin etdi. Gazetadagi xabarga ko'ra, go'yo imperator Fransiya elchisi bilan gaplashishni xohlamagan va elchiga orqasini o'girib olgan (bu hodisa tarixga „Ems depeshasi“ nomi bilan kirgan).

Bu xabarni Fransiya o'z sha'ni uchun haqorat deb hisobladi.

1870-yil 17-iyulda Fransiya Prussiyaga qarshi urush e'lon qildi. Shu tariqa, Fransiya—Prussiya urushi boshlandi. Biroq, tez orada, Fransiya harbiy kuchlarining urushga tayyor emasligi, Fransiyaning Prussiya qudratini yetarli baholamaganligi ma'lum bo'lib qoldi.

**Imperiyaning halokati** 1870-yil 1-sentabr kuni tarkibida Napoleon III ham bo'lgan Fransiya qo'shini Sedan qal'asi yonida qurshab olindi. Fransiya qo'shini nemislarning 140 minglik qo'shini orasidan qurshovni yorib o'ta olmadi. Noiloj qolgan Napoleon III 2-sentabr kuni oq bayroq ko'tarishga buyruq

berishga, o'zining qilichini esa Prussiya qiroliga jo'natishga majbur bo'ldi. Shu tariqa, bu yerdagi 80 ming kishilik qo'shin Napoleon boshchiligida taslim bo'ldi. Napoleon III Sedanda o'z Vaterloosini topdi. 100 ming kishilik ikkinchi qo'shin ham Mets qal'asida qurshovga tushib qoldi. Endi Fransiya Germaniyaga tahdid sola olmas edi. Bu mag'lubiyat ayni paytda ikkinchi imperiya hokimiyatining halokati ham bo'ldi.



**Depesha** — shoshilinch xabar.

**Vaterloo** — hozirgi Belgiya hududidagi qishloqning nomi. Bu qishloqda 1815-yilning 18-iyunida Napoleon I qo'shini tor-mor etilgan jang bo'lib o'tgan.



### Savol va topshiriqlar

1. Nega Fransiya — Prussiya urushining yuz berishi muqarrar edi?
2. Fransiya Prussiyaga urush e'lon qilgan 1870-yildan ikki yil avval 1868-yilda qanday bosqinchilik sodir bo'ldi? So'zlab bering.



Nega insoniyat o'rta asrlarda ham, yangi davrda ham urushlardan xalos bo'la olmagan? Nega bugungi kunda ham Yer yuzida urushga to'la barham berishning iloji bo'lmayapti?



Fransiya tarixida 1- va 2-imperiyalar qay tariqa tashkil topganligini eslang.



T/r	Urushdagi asosiy janglar nomi	Urushlarning oqibatlari
1.		
2.		
3.		



## Fransiyada Uchinchi Respublika va 1871-yil 18-mart davlat to'ntarishi

### 4-sentabr inqilobi

Mag'lubiyat haqidagi xabarni eshitgan Parij aholisi 3-sentabr kuni qo'zg'olon ko'tardi. Ular Respublika e'lon qilinishini va Vatanni himoya qilishni talab qildilar. Xalq talabi bilan 4-sentabr kuni Fransiyaning qonun chiqaruvchi Korpusi imperator ag'darilganligini e'lon qilishga majbur

bo'ldi. Ayni paytda, Fransiya Respublika deb e'lon qilindi. Bu mamlakat tarixidagi *Uchinchi Respublika* edi. (Fransiyada 1- va 2-Respublikalar qachon bo'lganligini eslang.)

Qonun chiqaruvchi Korpus general Troshyu boshchiligida Muvaqqat milliy-mudofaa hukumatini tuzdi.

Prussiya Fransiyani iloji boricha ko'proq holdan toydirishni xohlar edi. U Fransiyadan katta tovon undirishga hamda uning foydali qazilmalarga boy viloyatlari bo'lmish Elzas va Lotaringiyani tortib olishga intildi. Endi urush Prussiya uchun bosqinchilik urushiga aylandi.

19-sentabr kuni Parij Prussiya qo'shini tomonidan qurshab olindi. Muvaqqat hukumat noiloj taslim bo'ldi.

Urushdagi g'alaba Prussiyaga o'z qo'l ostida butun Germaniyaning yagona davlatga birlashtirish imkonini berdi. 1871-yil 18-yanvar kuni Fransiyaning Versal saroyida Germaniya — imperiya, Prussiya qiroli Vilgelm I esa Germaniya imperatori deb e'lon qilindi. Otto fon Bismark imperiya kansleri lavozimini egalladi.

1871-yil fevral oyida Fransiyada Milliy Majlisga shoshilinch saylov o'tkazildi va Tyer boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Bu hukumat Fransiya-Germaniya tinchlik shartnomasini imzoladi.

### **1871-yil 18-mart voqealari**

Prussiyaga qarshi urushdagi mag'lubiyat va ayanchli shartlar asosida imzolangan yarash shartnomasi parijliklarning hukumatga qarshi qahr-g'azabini kuchaytirib yubordi. Buning ustiga, Parijda muhtojlik, ishsizlik, oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishi yuz berdi. Hatto o'rta tabaqa vakillari ham xonavayron bo'la boshladi.

Parijliklarda hukumatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ldi. Bunga qamaldan so'ng aholining qarzlari bo'yicha to'lovlarni to'lashga majbur bo'la boshlaganligi hamda hukumat qarorgohi etib Versal shahri tanlanganligi sabab bo'ldi.

Ayni paytda Bosh vazir Tyer Milliy gvardiyani quolsizlantirishni buyurdi. 18-mart kuni kechasi hukumat qo'shini Milliy gvardiyaga hujum qildi. Bu hodisa Parij aholisini oyoqqa turg'azdi. Ular hukumat qo'shinini chekinishga majbur etdilar. Tyer hukumatni Versalga ko'chirish haqida ko'rsatma berdi. Bunga javoban Parij mehnatkashlari qo'zg'olon ko'tardilar. Ular Milliy gvardiya bilan birgalikda harakat qilib, shaharning muhim ahamiyatga ega bo'lgan joylarini qo'lga kiritdilar.

Ko'p o'tmay hukumat binosi, harbiy kazarmalar va barcha davlat muassasalarini ham qo'zg'olonchilar qo'lga oldi.

Parijda hokimiyat Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi qo'liga o'tdi. Bu qo'mita muvaqqat hukumat vazifasini bajardi. Davlat organlariga ishchilar, ziyolilar va qo'zg'olonning boshqa qatnashchilari vakillari boshchilik qila boshladi. 26-mart kuni Parij Kommunasiga saylov o'tkazildi va Kommuna Kengashi tuzildi. Bu kengash o'z a'zolaridan 10 ta komissiya (vazirlik) tashkil etdi. Shu tariqa Parij shahri o'ziga xos kichik bir davlatga aylandi. Bu davlat Parij mehnatkashlarining davlati edi.

Parij Kommunasi qator tub ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, egalari tashlab ketgan korxonalar shu korxonalar ishchilariga topshirildi. Majburiy va bepul ta'lim joriy etildi. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddatlari kechiktirildi. Ishsizlarni ish bilan ta'minlash idorasi tuzildi. Xususiy mulk bo'lib kelgan temiryo'l idoralarini Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi. Biroq, Kommuna o'z faoliyatida qator xatolarga ham yo'l qo'ydi.

*Birinchi*dan, Parijdan qochib ketgan Tyer hukumatini ta'qib qilmadi. Bu esa Tyerga Kommunaga qarshi kurash uchun zarur kuch to'plab olishga imkon berdi. Natijada, hukumat qo'shini Parijni qamalga olishga muvaffaq bo'ldi.

*Ikkinchi*dan, mamlakatning qolgan qismi Kommunani qo'llab-quvvatlamadi. Bu hukumatning kommunachilarni mamlakatni dushman ishg'ol qilib turgan paytda bosh ko'targan isyonchilar deb yuritgan nafratli tashviqotining natijasi edi. Dehqonlarni, Kommuna to'la g'alaba qozonsa, mol-mulkidan ajralib qolishi mumkinligi bilan qo'rqitishga erisha oldi.

*Uchinchi*dan, Kommuna davlat xazinasini, banklarni to'la o'z qo'liga olmadi.

*To'rtinchi*dan, Kommuna kengashi ichida Kommuna ichki siyosati xususida birlikka erishib bo'lmadi.

Kommunani tor-mor etishda Germaniya Tyer hukumatiga yordam berdi. Chunonchi, Bismark 40 ming fransuz askar va zobitlarni asirlikdan bo'shatib, ularni Tyer hukumati ixtiyoriga yubordi.

### **Kommunaning yengilishi**

Hukumat qo'shini 21-may kuni hujumga o'tdi va shu kuni Parijga kirib keldi. Kommunachilar mardona jang qildilar. Biroq, kuchlar noteng edi.

28-may kuni Kommuna to'la tor-mor etildi. Asir olingan 30 mingga yaqin kommunachi otib tashlandi. 50 mingga yaqin kommunachilar qamoqqa olindi. Bular orasida minglab xotin-qizlar va

bolalar ham bor edi. Shu tariqa 72 kun yashagan Kommunaga xotima berildi.

Parij Kommunasi bilan ayni paytda Fransiyada inqiloblar davri nihoyasiga yetdi. Kommuna halokatining oqibatlarini hokimiyat bilan fuqarolarning o'zaro manfaatli kelishuvchilik asosida yashashi zarurligini isbotlab berdi.

### Frankfurt sulh shartnomasi

1871-yil 10-may kuni Germaniyaning Frankfurt shahrida Fransiya — Germaniya sulh shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Fransiya Germaniyaga 5 mlrd. frank tovon to'laydigan bo'ldi. Bu tovon to'lanib bo'linguncha, Germaniya o'z qurolli kuchlarining bir qismini Fransiya hududida saqlab turadigan bo'ldi. Bundan tashqari, Fransiyaning Elzas va Lotaringiya viloyatlari Germaniyaga berildi.



**Parij Kommunasi** — Parij shahrining o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, u qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirgan, mehnatkashlarning 1871-yil martda tashkil etgan hokimiyat organi.



### Savol va topshiriqlar

1. Fransiyada qay tariqa Uchinchi Respublika qaror topdi?
2. Urushning Fransiya va Prussiya uchun oqibatlarini taqqoslang.
3. Parij Kommunasi qay tariqa vujudga keldi?
4. Kommunaning Fransiya tarixida tutgan o'rni haqida nima deya olasiz? So'zlab bering.



Davlat to'ntarishlari va inqiloblar nega sodir bo'ladi?

5-§.

## XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Fransiyada iqtisodiy va siyosiy hayot

### Iqtisodiy ahvol

XIX asr so'nggi choragida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashdi. Chunonchi, dunyoda sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ikkinchi o'rindan to'rtinchi o'ringa tushib qoldi. Xo'sh, Fransiya iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashuvining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?

Avvalo, Fransiyaning hamon mayda tovar ishlab chiqaruvchilar davlati bo'lib qolayotganligi import hajmining eksportdan ortiq bo'lishiga olib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, ichki bozorning

cheklanishiga sabab bo'lgan. Ikkinchidan, Fransiya tabiiy boyliklari kam davlat edi. Uchinchidan, Prussiya bilan bo'lgan urush Fransiya juda katta moddiy talafot yetkazdi. Urushda Fransiya 13 mlrd. frank zarar ko'rdi. Ayni paytda, Germaniyaga 5 mlrd. frank tovon to'lashga majbur bo'ldi. To'rtinchidan, ichki siyosiy vaziyatning beqarorligi mamlakat iqtisodiy ahvoriga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Beshinchidan, dehqonlar xarid quvvatining pastligi sanoat ishlab chiqarishi o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi. Oltinchidan, Fransiya chetga ko'p kapital chiqarib yuborgan edi. Bu sarmoyadorlarga katta foyda keltirardi. Shuning uchun ham sarmoyadorlar (kapitalistlar) o'z sarmoyalarini (kapitallarini) mamlakat ishlab chiqarishiga emas, balki chetga (katta foiz evaziga, albatta) chiqarishni afzal ko'rgan.

### **Hokimiyat uchun kurash**

Prussiya bilan urush tugagach, hukmron doiralari o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin edi. Birinchisi — monarxiya tarafdorlari, ikkinchisi — respublika tarafdorlari edi.

1873-yilda Germaniyaga tovon to'lab bo'lindi. Nihoyat, Germaniya o'z qo'shinlarini Fransiyadan olib chiqib ketdi.

Respublikachilar mamlakat parlamentida (Milliy Majlis) ozchilikni tashkil etganlar. Biroq, Fransiya aholisining katta qismi monarxiyaga qarshi bo'lganligi ularga madad bo'lardi.

Milliy Majlisda ko'pchilikni tashkil etgan monarxiyachilar o'z nomzodlarini ikki marta prezidentlikka saylagan bo'lsalar-da, monarxiyani tiklashga urinishi natijasiz tugadi. Keskin ichki siyosiy kurashda oxir-oqibatda respublikachilar g'alaba qozondi.

### **Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi**

1875-yil Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra, prezidentlik lavozimi saqlab qolindi. Ayni paytda ikki palatali (Deputatlar palatasi va Senat) parlament (Milliy Majlis) tashkil etildi. Uning vakolat muddati 4 yil etib belgilandi.

Parlament har ikki palatasining qo'shma yig'ilishi 7 yil muddatga mamlakat prezidentini saylar edi. Ijroiya hokimiyat prezidentga va hukumatga tegishli edi. Prezident vazirlarni tayinlash, respublika nomidan tashqi siyosat yuritish, shuningdek, urush e'lon qilish va sulh tuzish, umumiy afv e'lon qilish kabi vakolatlarga ega edi.

Hukumat a'zolarini prezident tayinlasa-da, ular parlament oldida javobgar edi.



„Marselyeza“ qo‘shig‘i mamlakat madhiyasi etib belgilandi. Buyuk fransuz inqilobi boshlangan (1789-yil) 14-iyul fransuz xalqining Milliy bayram kuni deb e‘lon qilindi.

O‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan qator huquq va erkinliklar e‘lon qilindi. Xususan, matbuot va yig‘ilish o‘tkazish, siyosiy tashviqot bilan shug‘ullanish kabi erkinlik va huquqlar shular jumlasidandir. Lekin, xotin-qizlarga saylov huquqi berilmadi.



**Parlament** (fr.) — saylov asosida tuziladigan qonun chiqaruvchi oliy davlat organi.

**Respublika** (lot. jamiyat ishi) — fuqarolarning umumiy saylovi asosida boshqariladigan davlat.

**Monarxiya** (yunoncha) — yakka hukmronlik.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Qanday sabablarga ko‘ra XIX asr so‘nggi choragiga kelib Fransiya iqtisodiy taraqqiyotda dunyoda 4-o‘ringa tushib qoldi?
2. Nega hokimiyat uchun kurashda respublikachilar g‘alaba qozondi?
3. Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?

## **6-§.**

### **Fransiyaning ichki siyosati**

#### **Uchinchi Respublika ichki siyosati**

Respublika hukumati ichki siyosatda bir qator muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, 1881—1882-yillarda ta‘lim to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, maktab cherkovdan ajratildi. Ta‘limning dunyoviyligi ta‘minlandi. 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun majburiy bepul ta‘lim joriy etildi. Maktablarda ta‘lim maxsus davlat dasturlari asosida olib boriladigan bo‘ldi.

Oliy pedagogik bilim yurtlarida o‘qituvchi kadrlar tayyorlash yo‘liga qo‘yildi. Majburiy ta‘lim dasturida o‘g‘il bolalar uchun gimnastika predmeti majburiy deb belgilandi. Bundan o‘smirlarni bo‘ljak harbiy xizmatga jismonan yetuk qilib tayyorlash maqsadi ko‘zda tutilgan edi. Qiz bolalar uchun litseylar ochildi. Maxsus oliy o‘quv yurtlarida ayol o‘qituvchilar tayyorlana boshlandi. 1884-yilda kasaba uyushmalarining erkin faoliyatiga hamda ish tashlashga ruxsat etuvchi qonun qabul qilindi. Ishchilar o‘z kasaba uyushmalari va mehnat birjalarini tuzdi. Bu birjalar ishsizlar haqida, ularning turmushi haqida g‘amxo‘rlik qila boshladi.

Mahalliy kengashlarga o'z rahbarlarini saylash huquqi berildi. Bungacha ular markaziy hokimiyat tomonidan tayinlanar edi.

### Siyosiy ahvol

Mamlakatda respublikani mustahkamlash tobora chuqur qaror topa bordi. 1876-yilgi Senatga bo'lgan saylovlarda respublikachilar qo'li baland keldi. Bungacha davlatni boshqargan monarxiya tarafdori bo'lgan Mak-Magon iste'fo berishga majbur bo'ldi. Mamlakatda ichki siyosiy hayotning o'ziga xos bir xususiyati — bu ko'ppartiyaviylikning qaror topganligi edi. Ularning ichida radikallar, sotsialistlar va respublikachilar partiyalari yetakchi nufuzga ega edi.

Fransiya siyosiy hayotida, ayni paytda, demokratiyaga qarshi kuchlar ta'siri ham o'sib borayotgan edi. Chunonchi, mamlakatda millatchilik, shovinizm g'oyalari keng tarqala boshladi. Bu g'oyalar tarafdorlari qudratli qo'shingina Elzas va Lotaringiyani qaytarib olishi mumkinligiga ishonar edi. Fransiya ichki siyosiy hayotida anarxiyachilar va monarxiyachilar faoliyati ham kuchaydi. Ularning maqsadi — mavjud tuzumni ag'darish edi. Bu maqsadga erishish uchun anarxistlar kurashning terror usulini qo'lladi. Ular parlament binosiga bomba tashladi. Buning oqibatida 80 kishi yarador bo'ldi.

1894-yilda hatto mamlakat prezidenti Sadi Karno ham o'ldirildi. Fransiya kontrrazvedkasi mamlakat harbiy kuchlari haqida josus tomonidan Germaniyaga maxfiy ma'lumotlar yetkazib berilayotganligini aniqladi.

Maxsus xizmat bu masalada Fransiya armiyasi Bosh shtabida xizmat qiluvchi, yahudiy millatiga mansub kapitan A. Dreyfusdan shubha qila boshladi. Tez orada u josuslikda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildi. Aslida A. Dreyfus josus emas edi. Biroq, soxta hujjatlar va soxta guvohlar yordamida uning „josus“ligi fosh etildi. Harbiy sud uni umrbod surgun jazosiga hukm qildi.

Siyosiy reaksiya „Dreyfus ishi“dan mamlakatda demokratiyaga qarshi tashviqotni kuchaytirish, millatchilik, shovinistik kayfiyat-larni yanada avj oldirish uchun foydalandi.

Mamlakatda A. Dreyfusning josus emasligiga, hali haqiqiy josus fosh etilmaganligiga ishonuvchilar bor edi. Ular haqiqiy josusni fosh etish uchun tekshiruvni davom ettirdi. Va nihoyat, haqiqiy josus aniqlandi. U bosh shtab mayori Estergazi bo'lib chiqdi.

Biroq, Bosh shtab va u bilan mustahkam bog'langan kuchlar bu haqiqatni oshkor etishni o'zlari uchun katta sharmandalik deb



hisobladi. Lekin, bu haqiqat sirligicha qolib ketmadi. 1897-yilda u matbuot yuzini ko'rdi.

Fransiyaning barcha demokratik kuchlari A. Dreyfus ishini qayta ko'rib chiqishni talab eta boshladi. Sharmanda bo'lishni istamagan kuchlar soxta guvohning o'ldirilishini uyushtirdi. Estergazi esa Fransiyadan qochib ketishga muvaffaq bo'ldi.

„Dreyfus ishi“ atrofidagi kurash uzoq davom etdi. Oxir-oqibatda hukumat uni ozodlikka chiqarishga majbur bo'ldi. Biroq, u aybsizligi uchun emas, „sog'lig'i yomonlashgani“ uchun ozod qilindi. A. Dreyfus faqat 1906-yildagina to'la oqlandi.

### **Iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar**

XX asr boshlariga kelib, mamlakatda mo'tadil siyosiy barqarorlik ta'minlandi. Bunga XIX asr 90-yillarining o'rtalaridan boshlangan iqtisodiy yuksalish tufayli erishildi. 1913-yilda Fransiya, xususan, temir rudasi qazib chiqarish bo'yicha AQSH va Germaniyani ortda qoldirdi.

Sanoatda yangi tarmoqlar (elektrotexnika, avtomobil va kimyo) tez rivojlana boshladi. Natijada, sanoatda xizmat qilayotgan aholining soni 36 foizga yetdi. 40 foiz aholi qishloq xo'jaligida band edi.

Fransiya eksportida jun birinchi, ip-gazlama ikkinchi, shoyi gazlama uchinchi, fransuz vinolari to'rtinchi o'rinni egalladi. Fransiyaning chetga kapital chiqarish quvvati yanada ortdi. Bu borada u dunyoda Buyuk Britaniyadan so'ng ikkinchi o'ringa chiqdi. 1914-yilga kelganda Rossiyaga 13 mlrd., Buyuk Britaniya va AQSHga 5 mlrd., Janubiy Amerika davlatlariga 6 mlrd. frank miqdorida kapital chiqardi.

Bu kapitallar foiz hisobida Fransiyaga juda katta miqdorda daromad keltiribgina qolmay, ayni paytda siyosiy ittifoqchilarni ham vujudga keltirdi.

### **Ijtimoiy harakat**

Fransiya mehnatkashlarining ahvoli esa og'ir edi. Ular kuniga 10—12 soat, ba'zan 14—16 soatgacha ishlashga majbur edi. Mehnatkashlar o'z haq-huquqlari uchun kurasha boshladi. Bunday sharoitda ishchilar harakatini uyushtirish muhim ahamiyatga ega edi. 1880-yilda ishchi tashkilotlari vakillari „Fransiya ishchi partiyasi“ni tuzdi. Ayni paytda, ishchilar mehnat birjalari tuzildi. Ular ishsizlar va ish tashlashda qatnashayotganlar haqida g'amxo'rlik qila boshladi.

Chunonchi, mehnat qonunlari Kodeksiga ko'ra, ish vaqtida olingan jarohat uchun to'lov to'lanadigan bo'ldi. Haftada bir kun—dam olish kuni joriy etildi.

1910-yilda esa pensiya haqida qonun qabul qilindi. Unda pensiya yoshi 65 yosh deb belgilandi (bu ko'rsatkich Germaniya va Buyuk Britaniyada 70 yosh edi). Ayni paytda ijtimoiy harakatda ikki asosiy oqim mavjud edi. Ularning biri — jamiyatni parlament yo'li bilan (islohotlar orqali) qayta qurish, ikkinchisi esa noqonuniy yo'li bilan (qurolli qo'zg'olon) qayta qurish yo'li edi. Ikkinchi yo'li bora-bora o'z ta'sirini butunlay yo'qotdi.



**Anarxizm** (yunoncha — hokimiyatsizlik, beboshlik) — alohida bir shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi ta'limot.

**Shovinizm** — irqiy ayirmachilik va milliy nizoni avj oldirishga urinuvchi o'taketgan millatchilik.

**Siyosiy reaksiya** — taraqqiyotga qarshi, eskirgan ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish tarafdori bo'lgan siyosiy kuch.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Fransiya hukumati ichki siyosatda qanday muhim tadbirlarni amalga oshirdi?
2. „Dreyfus ishi“dan ko'zlangan asosiy maqsad nima edi?
3. XIX asr oxiri—XX asr boshlarida Fransiya iqtisodiy ahvolidagi qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
4. Fransiya mehnatkashlari o'z haq-huquqlari uchun olib borgan kurashlarida nimalarga erishdi?



Nega oxir-oqibatda Fransiyada ijtimoiy harakatda jamiyatni islohotlar yo'li bilan qayta qurish yo'li g'alaba qozongan?

## **7-§.**

### **Fransiyaning tashqi siyosati**

#### **Mamlakatning xalqaro ahvoli**

XIX asrning 70-yillaridan boshlab, Fransiyaning xalqaro maydondagi ahvoli zaiflashdi. Prussiya bilan bo'lgan urushdagi qaqshatqich mag'lubiyatdan so'ng Fransiyaning kontinental Yevropadagi yetakchi davlat mavqeyi yo'qqa chiqdi. Endi Fransiya Germaniya hujumidan xavfsirab yashaydigan davlatga aylandi.

Ayniqsa, 1879-yilda Germaniya va Avstriya-Vengriya o'rtasida tuzilgan ittifoqchilik shartnomasi Fransiyaning xalqaro mavqeyini yanada yomonlashtirib yubordi. Shunday bo'lsa-da, Fransiya boshqa buyuk davlatlar o'rtasidagi nizolardan ustalik bilan foydalanib, o'z mustamlakachilik imperiyasini tobora kengaytirish imkoniga ega bo'ldi.

### **Mustamlakachilik imperiyasining yaratilishi**

XIX asrning 70-yillari oxiridan boshlab mustamlakachilik siyosatining yo‘nalishi avval bosib olingan mustamlaka hududlarini o‘zlashtirish va yangi mustamlakalar bosib olishga qaratildi.

1881-yilda Shimoliy Afrikada joylashgan Tunisning bosib olinishi yangi mustamlakalar bosib olish yo‘lidagi dastlabki qadam bo‘ldi. Germaniya Fransiyaning Tunisni bosib olishiga atayin qarshilik ko‘rsatmadi. Uning maqsadi Fransiya va Italiya munosabatlarini keskinlashtirish edi. Chunki, Germaniya Italiyaning ham Tunisga da‘vogarligini yaxshi bilardi.

Fransiya bilan munosabatlari keskinlashgan Italiya endi Germaniya bilan yaqinlasha boshladi. Oxir-oqibatda, bu yaqinlashuv 1882-yilda Italiyaning 1879-yilda Germaniya va Avstriya-Vengriya imperiyalari o‘rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqqa qo‘shilishiga olib keldi. Shu tariqa, Yevropada jahon tarixiga „Uchlar ittifoqi“ nomi bilan kirgan harbiy-siyosiy ittifoq qaror topdi.

Fransiyaning Afrikadagi bosqinchilik siyosati Tunis bilangina cheklanib qolgani yo‘q. Aksincha, 1891—1896-yillar davomida Gvineya, Senegal, Madagaskar va Mavritaniyani ham bosib oldi. 1912-yilda esa Marokash ustidan o‘z protektoratini o‘rnatdi.

Fransiya Osiyoda ham o‘z mustamlakalarini ko‘paytirib bordi. Chunonchi, 1884-yilda Vyetnamni egalladi. Oradan o‘n yil o‘tgach, Laos ustidan protektorat o‘rnatdi. Shu tariqa, 20 mln. aholi yashaydigan mustamlakachilik imperiyasi tuzildi. Bu mustamlakachilik imperiyasi tufayli, Fransiya katta daromad manbalariga ega bo‘ldi.

### **Buyuk Britaniya bilan yaqinlashuv**

Germaniya Buyuk Britaniyaning Yevropadagi birinchi davlat mavqeyiga eng ko‘p darajada xavf solayotgan davlatga aylanib borayotganligi Buyuk Britaniya hukmron doiralarini tashvishlantirmay qolmasdi. Germaniya bu davrda xalqaro siyosiy maydonda „quyoshning hamma davlatlar yelkasiga birdek nur sochishi lozimligi“ni da‘vo qilayotgan ham edi. Bu ulkan uch mustamlakachi davlat — Buyuk Britaniya, Fransiya va podsho Rossiyasi mustamlakalarini qayta bo‘lishga da‘vogarlik, degani edi. Bu da‘vo Fransiyaning ham tashvishga solib qo‘ydi. Qolaversa, Fransiya hamon 1870—1871-yillardagi Fransiya—Prussiya urushining oqibatlarini unutgani yo‘q edi. Binobarin, Fransiya uchun shu vaqtgacha xalqaro miqyosda asosiy raqibi bo‘lib kelgan Buyuk Britaniya bilan yaqinlashish yo‘llarini izlashdan boshqa yo‘l yo‘q edi. Ayni paytda, Buyuk Britaniya uchun ham Fransiya bilan yaqinlashish uning manfaatla-

riga mos kelardi. Chunki, bu davrda xalqaro maydonda Germaniya uning birinchi raqibiga aylanib qolgan edi.

Nihoyat, Fransiya — Buyuk Britaniya yaqinlashuvi yuz berdi. Bu yaqinlashuv 1904-yilda ular o'rtasida bitim imzolanishi bilan yakunlandi. Bu bitim ularning mustamlakalar masalasi yuzasidan kelishuvlarini o'zida aks ettirgan edi. Xususan, Fransiya Buyuk Britaniyaning Misrdagi harakatlariga bundan buyon to'sqinlik qilmasligini, Misrning Buyuk Britaniya ta'sir doirasida ekanligini tan oldi. O'z navbatida, Buyuk Britaniya Fransiyaning Marokashdagi manfaatlarini tan oldi.

Marokash sultoni o'z vazifasini bajara olmasligi ehtimoli borligi va shunday bo'lib qolsa, Marokash hududining Gibraltar bo'g'oziga bevosita tutash bo'lgan qismini Ispaniyaga berish belgilab qo'yildi. Marokashning qolgan qismini Fransiya o'z qo'liga olishi ko'zda tutildi.

Buyuk Britaniya uchun Gibraltar bo'g'ozini Fransiyaning emas, boshqa o'zi uchun xavfsizroq bo'lgan Ispaniya tasarrufida bo'lishi ma'qul edi.

1904-yilgi ikki davlat o'rtasidagi bitim aslida Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida harbiy-siyosiy ittifoq to'g'risida shartnoma tuzilganligini ham anglatar edi.

### **Rossiya bilan yaqinlashuv**

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya va Avstriya-Vengriya munosabatlari tobora yomonlashib bordi. Bunga ikki davlat manfaatlarining Bolqon yarimorolida keskin to'qnash kelganligi sabab bo'ldi.

1879-yilda Germaniya va Avstriya-Vengriya harbiy-siyosiy ittifoqining tuzilishi hamda bu ittifoqqa Italiyaning qo'shilishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Shunday bir sharoitda Fransiya va Rossiyaning yaqinlashuvi tabiiy bir hol edi. Germaniyaning yanada kuchayib ketishini istamagan Rossiya Germaniyaning Fransiyaga qarshi yangi urush ochish rejalariga to'sqinlik qilib keldi.

1882-yilda „Uchlar ittifoqi“ning tashkil etilganligi Fransiya bilan Rossiyani yaqinlashishga majbur etdi.

Nihoyat, 1891-yilda bu ikki davlat o'rtasida ittifoq bitimi tuzildi. Bitimga ko'ra, bu ikki davlatdan biriga tashqi hujum sodir etilganda, har ikki tomon bir vaqtning o'zida harbiy safarbarlik e'lon qilishi ko'zda tutildi.

1907-yilda esa Rossiya 1904-yilda Buyuk Britaniya va Fransiya o‘rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqqa qo‘shildi. Shu tariqa Antanta vujudga keldi va Yevropaning buyuk davlatlari ikki harbiy-siyosiy ittifoqqa bo‘linib ketdi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Qanday sabablarga ko‘ra Fransiyaning kontinental Yevropadagi yetakchi davlatdek mavqeyi yo‘qqa chiqdi?
2. Fransiya mustamlakachilik imperiyasi qay tarzda tashkil etildi?
3. Fransiyaning Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasi bilan yaqinlashishga majbur etgan omillarning o‘xshash va o‘ziga xos jihatlari nima?



Nega kecha o‘zaro munosabatlari yomon bo‘lib kelgan davlatlar vaqt o‘tishi bilan bir-biriga ittifoqchi yoki, aksincha, o‘zaro raqib davlatlarga aylanib qolgan?



8-§.

## **XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Germaniya. Imperiyaning tashkil topishi**

### **Germaniyaning birlash-tirishning tugallanishi**

Yuqorida aytilganidek, Fransiya—Prussiya urushi davom etayotgan bir paytda, ya’ni 1871-yilning 18-yanvarida barcha german davlatlarining monarxlari Versalda to‘planib, Prussiya qiroli Vil-gelm I ni Germaniya imperatori deb e’lon qildilar. Bu Ger-maniyaning ikkinchi marta imperiya deb e’lon qilinishi edi. (Eslang: Germaniya qachon 1-marta imperiya deb e’lon qilingan edi?) Shunday qilib, butun Germaniya hududining 2/3 qismida joy-lashgan, aholisining esa 60%i yashayotgan Prussiya monarxiyasi yetakchiligida Germaniyaning birlashuvi tugallandi. Yagona va yaxlit Germaniya imperiyasi barpo etildi.

### **1871-yilgi imperiya konstitutsiyasi**

1871-yil imperiya reyxstagi umumgerman konstitutsiyasini qabul qildi. Germaniya imperiyasi ittifoqchilar davlati bo‘lib qoldi. Elzas-Lotaringiya imperiya tarkibiga hokim (shtatgalter) tomoni-dan idora qilinadigan „maxsus imperiya viloyati“ bo‘lib kirdi. Ho-kimni imperatorning o‘zi tayinlardi. Imperiyaga kirgan ayrim dav-latlar o‘z konstitutsiyalari va parlamentlarini (landtaglarini) saqlab qoldi.





**Otto fon Bismark.**

Konstitutsiyaga muvofiq, imperiyaning oliy vakolatli muassasalari Ittifoq Kengashi (Bundesrat) bilan Reyxstag edi. Konstitutsiyada birlashgan Germaniyada Prussiya gemonligi mustahkamlab qo'yildi. Imperator urush e'lon qilar, sulh tuzar, xalqaro munosabatlarda Imperiya nomidan ish ko'rardi. Ayni paytda, u imperiya qurolli kuchlarining bosh qo'mondoni ham edi. Imperator o'z ixtiyori bilan Reyxstag va Ittifoq Kengashi sessiyalarini chaqirish, ochish, tarqatib yuborish yoki muddatini cho'zish, imperiya kanslerini tayinlash va ozod etish huquqlariga ega edi.

1871-yil konstitutsiyasiga binoan, imperator bir vaqtning o'zida Prussiya qiroli ham hisoblanardi.

Germaniyaning birinchi imperiya kansleri lavozimiga Otto fon Bismark tayinlandi. U davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo'lib, deyarli 20 yil davomida (1871 — 1890) mamlakat hukumatini boshqardi. Bismark Germaniya tarixida „Temir kansler“ laqabi bilan nom qoldirdi.

Reyxstag, konstitutsiyada ko'rsatilganidek, umumiy saylov huquqi asosida besh yil muddatga saylanardi. Lekin amalda saylov huquqi faqat nomigagina umumiy edi. Harbiy xizmatchilardan tashqari, 25 yoshga to'lgan erkaklarga saylov huquqidan foydalanardi.

### **Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti**

70—80-yillarda Germaniya iqtisodi gurkirab rivojlana boshladi. Uning sanoat mahsulotlari barcha qit'a davlatlari bozorlariga kirib bordi. Xo'sh, qanday omillar Germaniya iqtisodining gurkirab rivojlanishiga sabab bo'ldi?

Bosh omil — Germaniyaning birlashtirilganligi edi. Bu birlashuv tufayli yagona ichki bozor vujudga keldi. Ya'ni bojxona to'siqlari olib tashlandi. Yagona pul, o'lchov va og'irlik birliklari joriy etildi.

Ikkinchi omil — Fransiyaning talanishi bo'ldi. Fransiya 3 yil ichida 5 mlrd. frank tovon to'lashga majbur etildi. Undan tortib olingan va temir rudasiga boy Lotaringiya bilan Saar toshko'mir koni birgalikda Germaniya og'ir sanoati rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Uchinchidan, Germaniya tadbirkorlari boshqa davlatlar tajribalaridan muvaffaqiyatli foydalandi. Ishlab chiqarishga eng ilg'or

texnologiya hamda fan va texnika yutuqlarini joriy etdi. Ayniqsa, Tomson tomonidan fosfor olish jarayonining soddalashtirilishi Germaniya sanoatining gurkirab rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Chunki, Germaniya fosfor rudalarining asosiy makoni edi.

To‘rtinchidan, sanoatning tez sur‘atlar bilan militarlashtirilishi ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta‘sir etmay qolmadi. Fransiya-dan undirilgan tovonning ma‘lum qismi harbiy buyurtmalar uchun to‘landi.

Bu omillar, ayni paytda, Germaniyani agrar davlatdan industrial davlatga aylantirdi.


Germaniya kimyo sanoatida jahonda birinchi o‘ringa chiqib oldi. Temir va po‘lat ishlab chiqarishda esa AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘ringa chiqdi. Cho‘yan ishlab chiqarish 1912-yilda 17,6 mln. tonnaga yetdi.

Sanoat rivojlanishi bilan ishlab chiqarish tobora yirikroq korxonalarda to‘plana bordi. Bu davrda har birida 1000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar soni 600 taga yaqinlashgan edi.

Ayni paytda, sanoatda ishlab chiqarishning markazlashuvi kuchaydi. Masalan, ko‘mir qazib chiqarish, cho‘yan va po‘lat eritish, asosan, 4 ta monopoliya qo‘lida to‘plandi.

1914-yilga kelib, Germaniyada sanoat ishlab chiqarishi 1871-yilga nisbatan 7 marta ko‘paydi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan Germaniya dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinni egalladi. Qishloq xo‘jaligi ham tez sur‘atlar bilan taraqqiy eta boshladi.



**Shnayder zavodida to‘plarni yig‘ish jarayoni.**



**Bundesrat** (Ittifoq Kengashi) — Germaniya parlamentining yuqori palatasi.

**Reyxstag** — Germaniya parlamentining quyi palatasi.

**Kansler** — Bosh vazir.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Germaniya birinchi marta qachon imperiya deb e'lon qilingan?
2. Germaniyani birlashtirish jarayoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Imperiya davlat hokimiyatining oliy organlari nomlarini qayd eting.
4. Qanday omillar Germaniyaning iqtisodiy jihatdan gurkirab rivojlanishini ta'minladi?



Otto fon Bismark haqida referat tayyorlang.

9-§.

## **Imperiyaning ichki siyosati**

**Ichki siyosat** German hukumati ichki siyosatda Germaniyani prusslashtirish masalasiga alohida e'tibor berdi. Imperiya konstitutsiyasida Prussiya qirollarigina Germaniya imperatori bo'la olishining qayd etilganligi buning yorqin dalili edi.

Polsha va Fransiyaning Germaniyaga o'tgan hududlarida ham prusslashtirish siyosati yuritildi. Polyak tilida o'qitiladigan maktablar yopib qo'yildi. Bunga javoban 1906-yilda 100 mingdan ortiq polyak bolalari maktabga borishdan bosh tortdi.

Bismark hukumati katolik cherkovining ta'sirini kamaytirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Bu o'rinda 1872-yilda qabul qilingan maxsus qonun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unga ko'ra, maktab cherkovdan ajratildi. Ruhoniylarning siyosiy tashviqot olib borishi taqiqlandi. Ruhoniy kadrlar tayyorlash, ularni vazifalarga tayinlash ishlarini davlat o'z qo'liga oldi.

Fuqarolik holati aktlarini qayd etish ishlari ham (tug'ilish, nikoh, vafot etganlik) davlat idoralari ixtiyoriga o'tkazildi. Bismarkning katolik cherkovi ta'siriga qarshi qo'llagan tadbirlari „*Kulturkampf*“ (Madaniyat uchun kurash) degan nom oldi.

Bismark hukumati, ayni paytda, ishchilar va sotsialistik harakatni ayovsiz bostirish siyosatini yuritdi. Bu davrda 1875-yilda tashkil etilgan Germaniya sotsial-demokratik partiyasining (GSDP)

ta'siri o'sib borayotgan edi. Chunonchi, 1877-yilgi parlament saylovida bu partiya 12 ta deputatlik o'rniga ega bo'ldi.

1878-yilda sotsialistlarga qarshi favqulodda qonun („Sotsialdemokratlarning xavfli intilishlariga qarshi qonun“ deb atalgan) qabul qilindi. Uning qabul qilinishiga imperator Vilgelm I ga nisbatan ikki bor uyushtirilgan suiqasd bahona bo'ldi. Bu suiqasdni sotsialistlar uyushtirmagan edi. Shunday bo'lsa-da, Bismark ularni jamoat tartibini buzuvchilar deb hisoblardi. Bu qonun partiya faoliyatini amalda taqiqlab qo'ydi. Qonun 2,5 yil muddatga qabul qilingan bo'lsa-da, u 12 yil davomida amal qildi.

Bismark hukumati faqat ta'qiblar bilan mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlab bo'lmasligini yaxshi tushunardi. U ishchilarga oid qonunlar ham qabul qilish lozim deb hisobladi va bunga erishdi.

Chunonchi, bular ishchilar kasal bo'lganida, shikastlanganda, qarilik chog'ida va mehnat qobiliyatini yo'qotganda sug'urta olish to'g'risidagi qonunlar edi.

1888-yilda Vilgelm I vafot etdi. Taxtni 28 yoshli Vilgelm II (1888—1918) egalladi. Undan har qanday xatti-harakatni kutish mumkin edi. U hokimiyatni hech kim bilan, hatto Bismark bilan ham bo'lishishni istamadi va yakka hukmronlikka intildi.

1889-yilda Bismark Reyxstag oldiga sotsialistlarga qarshi qonunga doimiy tus berish masalasini qo'ydi. Biroq, Reyxstag buni rad etdi. Imperator ham Bismarkni qo'llab-quvvatlamadi. Bismark buni o'z sha'niga haqorat deb qabul qildi va 1890-yilda iste'fo berdi. Yangi hukumat favqulodda qonunni bekor qildi.

GSDP ochiq holatda ishlash sharoitiga o'tdi. Partiya mehnatkashlar manfaatini himoya qilish siyosatini davom ettirdi. U eng kuchli va ommaviy partiyalardan biriga aylandi. Natijada, 1891-yildan boshlab yakshanba dam olish kuni deb belgilandi. 13 yoshdan kichik bo'lgan bolalar mehnati taqiqlandi. Xotin-qizlar uchun 11 soatlik ish kuni joriy qilindi.

### **Qishloq xo'jaligidagi ahvol**

Qishloq xo'jaligida barcha haydaladigan yerlarning 25% ga yaqini yunkerlar (katta yer egalari) qo'lida to'plangan edi. Yunkerlar xo'jalik yuritishda yollanma mehnatdan foydalanishga o'tdilar. Ayni paytda, qishloq xo'jaligida qo'llash uchun yaratilgan texnikalardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berildi. Keng miqyosda mineral o'g'itlardan foydalanishga o'tildi.

Bular, o'z navbatida, mehnat unumdorligining oshishini, hosildorlikning ortishini ta'minladi.

Qishloq xo'jaligida texnikaning keng qo'llanilishi ortiqcha ishchi kuchlarining ish izlab shaharga ko'chishiga olib keldi. Bu esa gurkirab rivojlanayotgan sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlashga keng yo'l ochdi.

Germaniyaning qisqa tarixiy davr ichida agrar davlatdan qudratli industrial davlatga aylanishida bu omil ham muhim rol o'ynadi.

### **Mehnatkashlar manfaati uchun kurash**

Germaniya qanchalik gurkirab rivojlanmasin, bu mamlakat ishchilari AQSH va Buyuk Britaniya ishchilariga nisbatan kam ish haqi olardi. 1900—1903-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi ishsizlikning ortishiga, ish haqining yanada kamayishiga olib keldi.

Oqibatda, ishchilarning moddiy ahvoli og'irlashdi. Shunday sharoitda GSDP ishchilar manfaatini parlament yo'li bilan himoya qila boshladi. 1912-yilgi parlament saylovida bu partiya 34,8% ovoz olishga muvaffaq bo'ldi. Bu muvaffaqiyat hukumatni ham yon berishga majbur etdi. Natijada, ish haqi qisman bo'lsa-da oshirildi, ish kunining 9,5 soatga tushirilishiga erishildi. Biroq, ishchilar bu bilan kurashni to'xtatib qo'yganlari yo'q. Ular endi 8 soatlik ish kuni belgilanishi talabi bilan chiqa boshladilar.

GSDP ishchilarning manfaati uchun kurashning tinch, parlament yo'lini tanlagan edi. Bu Parij Kommunasi saboqlaridan kelib chiqib tanlangan birdan bir to'g'ri yo'l edi. GSDPning parlament yo'li bilan kurash taktikasining asosida jamiyatdagi dolzarb, asosiy muammolarni islohot yo'li bilan hal etish maqsadi yotar edi. Ayni paytda, bu yo'l fuqarolar totuvligini ham nazarda tutardi.

To'g'ri, GSDPning rahbarlari ichida mavjud tuzumni qurolli qo'zg'olon yo'li bilan o'zgartirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas edi. Biroq ular kamchilikni tashkil etgan.

Butun o'tgan tarixiy davr bu yo'lning xato ekanligini tasdiqladi.

### ***Savol va topshiriqlar***



1. „Germaniyani prusslashtirish“ iborasining mazmunini izohlab bering.
2. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi kimlarning manfaatini himoya qilgan va bu partiyaning siyosiy kurashida namoyon bo'lgan ikki yo'l haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. GSDP mehnatkashlar manfaati uchun kurash yo'lida qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?



Bugungi Germaniyada qaysi partiya hokimiyatni boshqarayotganini aniqlang.

**Dunyoni qayta bo'lishga da'vogarlik**

Buyuk Britaniya va Fransiya juda katta mustamlakalarga ega bo'lgan holda Germaniya bunday mustamlakalarga ega emas edi.

Germaniya hukmron doiralari „quyoshning hammaning yelkasiga birday nur sochishi“ talabi bilan chiqdilar.

Bismark Germaniyaning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Yangidan tashkil etilgan fransuz qo'shinini qasos oluvchi qo'shin, deb hisoblay boshladi. Shu tufayli, Fransiya hali batamom mustahkamlanib olmasdan, u bilan urush qilishga shoshilmoqda edi. Biroq, Rossiya bilan Buyuk Britaniya Germaniyaning kuchayib ketishini istamas edi.

Bismark esa ikki frontda urush qilishdan qo'rqardi. Shunday sharoitda u o'ziga ittifoqdosh izladi va tez orada uni topdi ham. Bu Avstriya-Vengriya imperiyasi edi. 1879-yilda Germaniya Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. 1882-yilda Avstriya-Vengriya-Germaniya ittifoqiga Italiya qo'shildi. Bunga Italiyaning Fransiya bilan munosabati keskinlashishi sabab bo'ldi. Chunonchi, Fransiya 1881-yilda Italiya da'vo qilib yurgan Tunisni bosib olgan edi. Avstriya-Vengriya imperiyasi esa bu vaqtda Bolqon yarimorolida Rossiya bilan raqobatlashmoqda edi. Shunday qilib, uchta maslakdosh kuchlar birlashib, 1882-yili harbiy ittifoq — „Uchlar ittifoqi“ni tuzishga erishdi. Shu tariqa Germaniya Fransiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan koalitsiyaga bosh bo'lib oldi. Bismark Rossiyani o'z siyosiy rejalarini amalga oshirish yo'lidagi asosiy g'ov deb bilardi.

Lekin Bismark bir vaqtda ham Fransiya, ham Rossiyaga qarshi kurashish yengil emasligini anglardi.

1891-yilda shovinistik tashkilot — „German ittifoqi“ tuzildi. „Qirol Prussiya ustida, Prussiya Germaniya ustida, Germaniya dunyo ustida“ degan shior ilgari surildi.

**Germaniyaning mustamlakachilik ekspansiyasi**

Germaniya Yevropada urushga tayyorlanishi bilan bir vaqtda mustamlakalar bosib olishga ham kirishdi. 1882-yil Bremen savdogarlari Afrikaning janubi-g'arbiy sohilidagi Angra — Peken buxtasiga keldilar. Ular 200 ta eski miltiq va 2000 marka badaliga yerli qabila boshlig'idan anchagina hududni sotib oldilar. Tez orada Germaniya bu yerni o'z protektorati deb e'lon qildi. Afrikaga amaldorlar va askarlar yuborildi. Ularning



yangi yerlarni bosib olishga urinishi mahalliy xalqning qattiq qarshiligiga uchradi.

1884-yilda Germaniya Afrikaning o'rta qismidagi Togo va Kamerun hududlarini, Gvineyaning shimoliy qismini va unga yondosh orollarni ishg'ol qildi. 1885-yilda esa Afrikaning sharqiy qismidagi hududlarni va Zanzibarni zabt etdi. Bu hudud „Germaniya Sharqiy Afrikasi“ degan nom oldi.

Vilgelm II Germaniya hukmron doiralari bosqinchilik siyosatining „jarchisi“ va faol amalga oshiruvchisi bo'lib chiqdi. 90-yillarning oxirida Shandun (Xitoy) provinsiyasining bir qismi bosib olindi. O'sha vaqtdayoq, Germaniya Tinch okeandagi Karolina, Mariana orollarini va Samoa orolining bir qismini egallagan edi. 1885-yilda u Marshall orollarini qo'lga kiritdi.

Shimoliy dengizni Boltiq dengizi bilan tutashtirgan Kil kanali ochildi. Reyxstag harbiy flot qurishning ulkan dasturini qabul qildi. Bu narsa Buyuk Britaniya bilan munosabatni yanada keskinlashtirdi. Marokashga da'vosi esa Fransiya bilan munosabatlarni yanada yomonlashtirdi.

Afrikada „bizni quruq qoldirishdi“ deb hisoblagan german hukmron doiralari „qo'ldan ketganlarning“ o'rnini Yaqin Sharqda to'ldirmoqchi bo'ldi. Ular Kichik Osiyo, Suriya, Mesopotamiya va Falastinda joylashib olmoqchi edilar. Chunki, bu yerlarda dunyodagi eng yirik neft konlari, g'alla va paxta xomashyolari bor edi. Nemis bankiri Simens tashabbusi bilan Berlinni Fors qo'ltig'i bilan bog'lovchi temiryo'l qurish rejasi tuzildi.

1889-yilda Vilgelm II „hazrati Iso qabri“ni ziyorat qilish bahonasi bilan Falastinga bordi. U safar vaqtida Turkiya sultoni bilan uchrashib, reja bo'yicha Bosfordan Kichik Osiyo orqali Bag'dodga va undan Fors qo'ltig'igacha temiryo'l qurish to'g'risida kelishib oldi. Bu yo'l „Bag'dod temiryo'li“ nomi bilan tarixga kirdi.

Nemislarning Fors qo'ltig'iga chiqishi Buyuk Britaniyaning bu hududdagi manfaatlariga putur yetkazar edi. Shu sababli, Buyuk Britaniya „Bag'dod temiryo'li“ning Fors qo'ltig'iga chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun 1899-yilda Quvaytda o'z protektoratini o'rnatdi. Shunga qaramay, 1902-yilda Turkiya bilan Germaniya o'rtasida temiryo'l masalasida yakunlovchi bitim imzolandi.

Ayni paytda, Germaniya zo'r berib qurollanishni yanada kuchaytirib yubordi.

Qurolli kuchlar soni keskin ko'paytirildi. Reyxstag katta harbiy kemalar qurish va suvosti floti uchun katta-katta mablag' ajratdi.



Biroq, 1907-yilda tuzilgan Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya ittifoqi Germaniyaning tashqi ahvolini murakkablashtirib yubordi.

### **Germaniya—Turkiya munosabatlari**

XIX asr oxiridan boshlab, Germaniya—Turkiya munosabatlari tobora yaqinlashib bordi. Turkiya Germaniya qiyofasida o'z

xaloskorini ko'rgandek edi.

Xo'sh, bunga nimalar sabab bo'lgan? Yevropaning buyuk davlatlari bo'lgan Buyuk Britaniya ham, Fransiya va Rossiya ham Turkiya uchun imperiyaning hali u, hali bu hududlariga ko'z olaytirayotgan yoki birin-ketin ularni bosib olayotgan umumiy dushman davlatlarga aylangan edi. Masalan, Turkiyaga rasman qaram bo'lgan Misrni bosib olgan Buyuk Britaniya emasmi? Yoki Tunis va Marokashga da'vogar Fransiya emasmi?

Qora dengizni O'rtayer dengizi bilan bog'lashga imkon beruvchi Turkiyaga qarashli Bosfor va Dardanell bo'g'ozlariga, Istanbul shahriga da'vogarlik qilayotgan Rossiya emasmi? Albatta, shunday edi. Binobarin, bunday sharoitda Germaniya Turkiya ko'z o'ngida uning imperiyasi hududlariga da'vo qilmayotgan birdan bir davlat edi.

Buyuk davlatlarning bosimiga bardosh berish uchun Turkiyaga Germaniyadek ittifoqdosh zarur edi. Germaniya uchun Bag'dod temiryo'lini qura olsa, kelgusida butun Yaqin Sharqqa egalik qilishi mumkindek edi. Shuning uchun ham Germaniya Turkiyani ham moliyaviy, ham harbiy jihatdan qo'llab-quvvatladi.

Bu ikki davlat o'rtasidagi yaqinlik, oxir-oqibatda, Turkiyani o'zi sezmaganda Germaniyaning deyarli vassaliga aylantirib qo'ydi. Endi, Turkiya xohlaydimi, yo'qmi yaqinlashib kelayotgan Birinchi jahon urushida Germaniya tarafida turib urushda qatnashishga majbur edi.

### **Urushning muqarrarligi**

Germaniya ham mustamlakalar bosib olishdan chetda turmadi. XIX asrning 90-yillarida u egallagan mustamlakalar hududi o'zining hududidan deyarli besh baravar ortiq edi.

Ayni paytda, Germaniyaning Yevropada hukmron bo'lishi haqidagi da'volari kuchaydi.

Ikkinchidan, jahon bozorlarida Germaniya Buyuk Britaniyaning asosiy raqibiga aylandi.

Uchinchidan, Afrikani qayta taqsimlashni talab etayotganligi uning ham Fransiya, ham Buyuk Britaniya bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi.

To‘rtinchidan, Germaniyaning Bolqonga, Yaqin, O‘rta va Uzoq Sharqqa suqulib kirishi shu darajada faollashdiki, bu faollik tarixga „Sharqqa hujum“ („Grang nach osten“) nomi bilan kirdi.

Endi, Germaniya hukmron doiralari dunyoga jahon siyosatiga o‘tganliklarini ma’lum qildi va bu yorug‘ dunyodan joy talab qila boshladi. Ayni paytda, barcha xalqaro nizolardan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga urindi. Chunonchi, podsho Rossiyasining Bolqon yarimorolidagi manfaatlarini mensimay, Avstriya-Vengriyaning Bolqon siyosatini qo‘llab-quvvatladi.

Dunyoning barcha nuqtalarida Germaniya ekspansiyasi Buyuk Britaniya manfaatlariga daxl qildi va uning qarshiligiga duch keldi.

Germaniya imperatori Vilgelm II „Germaniyaning kelajagi dengizda“ degan shiorni e‘lon qildi.

Bu shior dengiz hukmdori — Buyuk Britaniya harbiy flotiga teng keladigan flot tashkil etish zarurligini anglatar edi.

Ayni paytda, Germaniya harbiy dengiz floti qudrat jihatidan ikkinchi o‘ringa chiqib olgan edi. Imperator maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun yangi harbiy kemalar qurish ishi jadallashtirib yuborildi.

1905-yilda Germaniya qurolli kuchlari Bosh shtabi ikki frontda, ya‘ni ham G‘arbda, ham Sharqda (Rossiyaga qarshi) urush olib borish rejasini ishlab chiqdi.

Germaniya ham harbiy, ham iqtisodiy va ham mafkuraviy jihatdan urushga tayyorlanishda o‘zining raqiblaridan o‘zib ketdi.



**Koalitsiya** (lotincha — birlashgan) — bir yoki bir qancha davlatlarga qarshi birlashib harakat qilish uchun ikki yoki undan ko‘p davlatlarning tuzgan vaqtinchalik harbiy-siyosiy ittifoqi.

**Ekspansiya** (lotincha — kengaytirish) — buyuk davlatlarning o‘zgalar hududini va bozorlarini, xomashyo manbalarini bosib olishga, siyosiy va iqtisodiy ta‘sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan siyosatlari.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. Germaniya tashqi siyosatining asosiy maqsadi nima edi?
2. Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya harbiy-siyosiy ittifoqi qay tariqa vujudga keldi?
3. Nega Germaniya Yevropaning eng buyuk davlatlari hisoblangan Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiyaning hech bo‘lmaganda bittasi bilan ham ittifoq shartnomasi tuza olmadi?

4. Germaniyaning I jahon urushiga zo‘r berib ko‘rgan tayyorgarligini misollar bilan asoslang.
5. Bugungi Germaniya Federativ Respublikasi va Fransiya munosabatlariga doir ma’lumotlarni to‘plang.



11-§.

## **XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli**

### **Mamlakat siyosiy tuzumi**

Buyuk Britaniya bu davrda ham konstitutsiyaviy monarxiya edi. Biroq, Germaniyadan farqli o‘laroq, bu davlatda qirol hokimiyati asosiy rol o‘ynamasdi. Buyuk Britaniya qirollari davlat boshlig‘i edi, xolos. Ular davlatni amalda boshqarmaganlar. Davlatning ichki va tashqi siyosatini boshqarish parlament tuzadigan hukumat qo‘lida edi.

Buyuk Britaniyada qaysi partiya parlament saylovida g‘olib chiqsa, shu partiya hukumat tuzar edi. Mamlakatda kuchli ikki partiya-viy tizim qaror topgan bo‘lib, ularning biri Konservatorlar, ikkinchisi esa Liberallar partiyasi deb atalardi. Konservatorlar partiyasining asosiy tayanchi yirik zamindorlar va anglikan cherkovi, Liberallar partiyasining asosiy tayanchi esa o‘rta sinf vakillari edi.

Konservatorlar partiyasi an‘analarga sodiqligi bilan ajralib tursa, Liberallar partiyasi zamon ruhiga mos islohotlar o‘tkazish tashabbuskorligi bilan ajralib turardi. Ayni paytda, ularni birlashtiruvchi yagona manfaatlar ham mavjud edi. Bu manfaatlar mush-tarakligi asosini Buyuk Britaniyaning dunyoda yetakchi davlat maqomini saqlab qolishga intilishi, mustamlaka imperiyani yanada kengaytirish, dunyo bozorlaridan o‘z raqiblarini mumkin qadar ko‘proq siqib chiqarishga intilish kabi maqsadlar tashkil etgan.

XIX asr o‘rtalariga kelib Buyuk Britaniyada demokratik jamiyat asoslari qaror topdi. Bular — so‘z, namoyishlar o‘tkazish, matbuot erkinligi kabilarda o‘z ifodasini topdi. Shuningdek, tabaqaviy imtiyozlar tugatildi. Birinchi o‘ringa insonning qaysi tabaqaga mansubligi emas, shaxsning erkinligi, qobiliyati, mustaqilligi, individualligi qo‘yildi.

1867-yili o‘tkazilgan parlament islohoti tufayli saylovda qatnashuvchilar uchun mulk senzi kamaytirildi. Natijada, erkak aholi-niing 50 foizi saylov huquqiga ega bo‘ldi.

Liberallar partiyasidan U.Gladston 4 marta bosh vazirlik lavozimini egallagan. 1864—1874-yillarda bosh vazirligi davrida uning hukumati qator islohotlar o‘tkazdi. Chunonchi, tred-yunionlarga o‘z manfaatlarini sudda himoya qilish huquqi berildi. Shuningdek, ish tashlashlar o‘tkazilishiga ruxsat etildi. Parlamentga saylovlarning yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilishi joriy etildi. Maktab islohoti o‘tkazildi.

B. Dizraeli bosh vazirligi davrida (1874—1880) ham qator muhim tadbirlar amalga oshirildi. Chunonchi, 1875-yilda haftada 54 soatlik ish vaqti belgilandi. 10 yoshdan kichik bolalarni ishga qabul qilish taqiqlandi. 1911-yilda yana bir marta parlament islohoti o‘tkazildi. Bu islohot Buyuk Britaniyada demokratik jamiyat va huquqiy davlatchilik taraqqiyoti yo‘lida muhim bosqich bo‘ldi.

### **Iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolish**

XIX asrning so‘nggi choragida Buyuk Britaniya iqtisodiy jihatdan orqada qola boshladi. „Jahon ustaxonasi“ deb nom olgan Buyuk Britaniyaning XIX asr oxiri — XX asr boshlarida sanoat ishlab chiqarish hajmi 2 marta, tashqi savdodagi ulushi esa 70 foizga qisqardi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 3-o‘ringa tushib ketdi. Mamlakatning jahon ustaxonasi maqomi o‘tmishga aylanib qoldi. Buning asosiy sababi — birinchidan, kapitalning asosan chetga chiqarilishi edi. Ingliz sarmoyadorlari mustamlakalarda zavod, fabrika va boshqa korxonalar qurishni afzal ko‘rganlar. Chunki, mustamlakalar xomashyo va arzon ishchi kuchi manbayi edi. Ularni metropoliyaga olib kelish qimmatga tushar edi.

Chetga kapital chiqarish juda katta daromad keltirgan. Chunonchi, uning keltirgan foydasi tashqi savdo keltirgan foydadan 5 marta ko‘p bo‘lgan. Foyda ketidan quvish oqibatida Buyuk Britaniyaning o‘zidagi korxonalar o‘z vaqtida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlanmay qoldi. Buning natijasida Buyuk Britaniya sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshlik quvvati pasaydi. Germaniya va AQSH tovarlari jahonning barcha bozorlarida Buyuk Britaniya tovarlarini ta‘qib eta boshladi. Chunki, Germaniya va AQSH tovarlari ham sifatli, ham arzon edi. Shu sababli 20 yil mobaynida, ya‘ni 80-yillardan tortib XX asr boshlarigacha Germaniyaning Buyuk Britaniyaga eksporti 41 foiz ko‘paygan, AQSH dan eksport qilish esa ikki martadan ziyodroq oshgani holda, bu davlatlarga ingliz eksporti bor-yo‘g‘i 8 foizga ko‘paygan, xolos.



Bundan tashqari, yosh rivojlanayotgan davlatlar ingliz tovarlariga katta boj to'lovlari joriy etgan edilar. Buyuk Britaniya esa hamon bojsiz savdo an'anasiga sodiq bo'lib qolaverdi.

Ikkinchidan, xalqaro maydonda bo'lingan dunyoni qayta bo'lish uchun kurash kuchaygan bir sharoitda Buyuk Britaniya harbiy xarajatlarni ko'paytirishga majbur bo'ldi. 1900—1914-yillar oralig'ida bu xarajat 3 marta ko'paydi.

Shunday bo'lsa-da, Buyuk Britaniya iqtisodiy jihatdan hamon qudratli edi. London jahon moliya markazi hisoblangan. Jahon savdosida hisob-kitob hamon Buyuk Britaniya pul birligi (funt sterling) asosida amalga oshirilardi.

Ingliz kapitalizmi sanoat sohasidagi oldingi birinchiligidan mahrum bo'lgan bo'lsa ham, juda katta foyda olish imkoniyatini saqlab qoldi. Bunga ko'pdan ko'p mustamlakalaridagi juda katta bozorlarni o'z qo'lida saqlab qolish orqali erishdi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyaning sanoat ustunligi asta-sekin qo'ldan ketgani bilan, jahon vositachilik savdosidan, sug'urta, bank, kemasozlik sohasidagi monopol hukmronligidan mahrum bo'lganicha yo'q edi. Buyuk Britaniya burjuaziyasi bu monopol hukmronlikni avvalo o'zining mustamlaka imperiyasi tufayli uzoq vaqt saqlab qola oldi.

Buyuk Britaniya hamon kapital eksport qilishni davom ettirdi. Bu kapital Buyuk Britaniyaga juda katta foyda keltirardi.



**Kapital** (lotincha — bosh, asosiy) — sarmoya; o'z egasiga daromad keltiruvchi jami vositalar va mablag'lar. Ya'ni qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi qiymat.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. „Siyosiy tuzum“ iborasiga „Davlat va huquq asoslari“ fanidan olgan bilimlaringizga asosanib izoh bering.
2. „Kuchli ikki partiyaviy tizim“ deyilganda nimani tushunasiz?
3. „Huquqshunoslik“ darslingizdan fuqarolik jamiyati qanday jamiyat ekanligi haqidagi ma'lumotlarni toping.
4. XIX asrning so'nggi choragiga kelganda Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyotda yetakchilik mavqeyini yo'qotganligi sabablarini izohlab bering.

**Irlandiya muammosi**

Buyuk Britaniya ichki siyosatidagi keskin muammolardan biri — Irlandiya muammosi edi. Irlandiyaning ijaraga yer olib kun ko'ruvchi dehqonlari nihoyatda muhtojlikda yashardilar. Chunki, yerlarni Britaniya lendlordlari o'zlariniki qilib olgan edilar. Ko'pchilik irlandiyaliklar tirikchilik ko'yida Amerikaga ko'chib ketdilar. Ochlik, o'lim va ko'chib ketish natijasida aholi soni kamayib ketdi.

1875-yilda Buyuk Britaniyaning parlamenti deputati, olsterlik protestant, yer egasi Parnell Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni (gomrul) talab qildi. Shuningdek, u ijaraning qat'iy bo'lishi, ijara haqining insof bilan olinishi va ijaraga olingan yerning qo'ldan qo'lga erkin o'tishini ko'zda tutuvchi agrar islohotni amalga oshirishni talab qilgan hamjamiyat — Irland muxolifat guruhini o'z atrofiga birlashtirdi.

Parnell rahbarlik qilgan muxolifat 70-yillar oxirida nufuzli kuchga aylandi. Irland dehqonlarining „Yer-suv ligasi“ nomli ommaviy tashkiloti shu muxolifat tayanchi bo'ldi. Ijarachilarning yerdan haydalinishiga javoban „Yer-suv ligasi“ Irlandiyadagi katta yer egalari qarshi ommaviy terror boshlab yubordi. Ayni paytda, Britaniya tovarlariga boykot kuchaydi.

Buyuk Britaniya hukumati 1881-yilda irlandlarga gomrul o'rniga „Yer-suv akti“ni taklif qildi. Unda 15 yil muhlatga ijara miqdorini adolat bilan belgilaydigan va ijarachiga o'z yer maydonini boshqa bir shaxsga o'tkazish huquqini beradigan komissiya tuzilishi ko'zda tutilgan edi.

Irland „Yer-suv ligasi“ bu tartibga qarshi chiqdi va boykotni kuchaytirib, britaniyalik pomeshtiklarni qo'rqitish kompaniyasini boshlab yubordi va gomrulni talab qildi. Bunga javoban, hukumat ta'qibni kuchaytirdi. Parnell qamoqqa olindi. „Yer-suv ligasi“ ta'qiqlab qo'yildi.

Buyuk Britaniya hukumatinin bu xatti-harakatlari yonib turgan olovga yog' quyish bo'ldi, xolos. Irland dehqonlari Parnellning da'vati bilan britaniyalik lendlordlarga ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar. Taqiqlangan „Yer-suv ligasi“ o'rniga „Xotin-qizlar yer ligasi“ tuzildi. U bilan bir qatorda, „Oy yog'dusi bahodirlari“, „Oq o'g'lonlar“, „Yengilmas botirlar“ kabi millatchi jangovar irland tashkilotlari paydo bo'ldi.

Irlandiyada ochiqdan ochiq fuqarolar urushi xavfi kuchaydi. Shundan keyin Buyuk Britaniya hukumati Parnell va uning tarafdorlariga kelishishni taklif qildi. 1881-yilda Parnell bilan tuzilgan bitimga muvofiq, irland ijarachi dehqonlari ijara haqi to'lashni davom ettirishlari va boykotni to'xtatishlari, katta yer egalari esa ijarachilarning qarzini kechib yuborishlari lozim edi.

Biroq, Parnell tutgan kelishuvchilik yo'li Irlandiyadagi mayda terrorchi guruhlarini faollashtirib yubordi. Chunonchi, 1882-yilda Dublinda Irlandiya ishlari bo'yicha stats-sekretar va Irlandiya lord-hokimi o'ldirildi. Britaniya tomonidan ta'qib va politsiya terrori boshlandi. Bunga javoban, irland qishlog'ida yangi terrorchilik to'l-qini ko'tarildi.

Oxir-oqibatda, 1886-yilda hukumat gomrul berishga qaror qildi. Biroq, parlament uni rad etdi.

Shunday sharoitda Irlandiya burjuaziyasining bir qismi Irlandiyaga muxtoriyat berilishi talabi bilan chiqdi. Irlandiya burjuaziyasining savdo-sanoat doiralari manfaatini ko'zlovchi qismi esa Irlandiyaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan birmuncha keskin talabni o'rtaga tashladi.

Ushbu guruhning rahbari A. Griffit 1905-yili „Shinfeyn“ („Biz o'zimiz“) partiyasini tuzdi. U Irlandiya mustaqil parlamenti tuzish tashviqotini olib bora boshladi. Britaniya tovarlarini boykot qilish yanada kuchaydi.

Hukumat 1912-yilda parlamentga yana gomrul haqidagi qonun loyihasini taqdim etishga majbur bo'ldi. Biroq, parlament yana uni tasdiqlamadi. Natijada, Irlandiyada siyosiy ahvol nihoyatda keskinlashdi.

Biroq, 1914-yilda boshlanib ketgan jahon urushi parlamentni gomrul haqidagi qonunni tasdiqlashga majbur etdi. Chunki, urush davrida ichki siyosiy barqarorlik havodek zarur edi.

### **1911-yilgi parlament islohoti**

1911-yilda Buyuk Britaniyada parlament islohoti to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu qonun parlamentning yuqori palatasi — Lordlar palatasining veto huquqlarini chekladi.

Chunonchi, endi parlamentning quyi — Jamoa palatasi bir qonun loyihasini 3 marta ma'qullasa, u Lordlar palatasi tomonidan tasdiqlanmasa ham qonun kuchiga ega bo'ladigan bo'ldi. Lordlar palatasi moliya masalalarini ham hal etishdan chetlatib qo'yildi. Parlamentning vakolat muddati 5 yil etib belgilandi. Deputatlarga maosh joriy etildi.



Buyuk Britaniya mehnatkashlari o‘z haq-huquqlari uchun doimo kurash olib borganlar. Buyuk Britaniya ishchilar harakatida tred-yunionlar (kasaba uyushmalari) katta rol o‘ynagan. Tred-yunionlarga a‘zo bo‘lganlar soni ham yildan yilga oshib borgan. Chunonchi, 1888-yilda ularning soni 750 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1892-yilda 1,5 mln. kishiga yetdi.

### **Ijtimoiy harakat**

Buyuk Britaniya tred-yunionlari kurashning parlament yo‘lini tanlaganlar. Qonun ishchilarga ish tashlash huquqini bergan. Biroq, ish tashlash davom etgan kunlarda korxonalar ko‘rgan zarar tred-yunionlar hisobidan undirilardi.

Bu qoida amalda ish tashlashni kurash usuli sifatida yo‘qqa chiqarardi. Tred-yunionlar o‘z partiyalarini tuzishga qaror qildilar. Bu partiya 1900-yilda tuzilgan va u 1906-yildan boshlab Leyboristlar partiyasi deb atala boshlandi.

Leyboristlar partiyasi parlament yo‘li bilan ishchilar manfaatini himoya qilishni o‘z maqsadi, deb e‘lon qildi. Liberallar hukumati rahbari D. Lloyd-Jorj „Leyboristlar partiyasining tuzilishi Liberallar hukumatining xatosi“, deb afsus bilan qayd etgan edi. Leyboristlar partiyasi tuzilgandan so‘ng o‘tkazilgan birinchi parlament saylovidayoq, bu partiya 29 ta deputatlik o‘rnini egalladi.

Iqtisodiy taraqqiyot sur‘atining pasayishi zarur iste‘mol mahsulotlarining narxi ko‘tarilishiga olib keldi. Bu esa ishchilarni ish tashlashga majbur etdi. Eng yirik ish tashlash 1911-yilda yuz berdi. Ko‘mir qazuvchilarning 6 hafta davom etgan ish tashlashi hukumatni zarur choralar ko‘rishga majbur etdi. Chunonchi, „Ish haqi minimumi to‘g‘risida“gi qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, ish tashlashlar vaqtida korxonalar ko‘rgan zararining tred-yunionlardan undirilishi taqiqlandi.

Ishlab chiqarish jarayonida baxtsiz hodisa tufayli jabrlanganlarga korxonalar egalari hisobidan nafaqa to‘lash belgilandi. 70 yoshga to‘lgan kishilarga pensiya tayinlandi. Konchilar uchun 8 soatlik ish kuni belgilandi. Kasallik va ishsizlik sababli sug‘urta to‘lovi joriy etildi.

Bir so‘z bilan aytganda, Buyuk Britaniya hukmron doiralari Birinchi jahon urushi arafasida ichki siyosiy muammolarni yumshatishga va xalqni jipslashtirishga muvaffaq bo‘ldilar.



**Gomrul** — o‘z-o‘zini idora qilish (Irlandiyada).



### **Savol va topshiriqlar**

1. Irlandiya muammosi qay tariqa vujudga kelgan edi?
2. Irland xalqining mustaqillik uchun olib borgan kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Gomrul haqidagi qonun qabul qilinmasligi mumkin edimi?
4. 1911-yilda Buyuk Britaniyada o'tkazilgan parlament islohoti haqida so'zlab bering.
5. Leyboristlar partiyasining tuzilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Buyuk Britaniya qachon Irlandiyani bosib olgan edi?

### **13-§.**

### **Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati**

#### **Eng ko'p mustamlakaga ega davlat**

Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti AQSH va Germaniyaga nisbatan pasayayotgan bo'lsa-da, harbiy jihatdan hamon dunyoning eng qudratli davlati bo'lib qolayotgan edi. Qudratli harbiy dengiz floti Buyuk Britaniyani dengizda tanho hukmron davlatga aylantirgan edi. Shu qudrat tufayli, Buyuk Britaniya XIX asrdan boshlab dunyoning barcha qit'alarida juda katta hududlarni bosib oldi va ularni o'z mustamlakasiga aylantirdi.

XIX asr oxiriga kelganda, mustamlakalarga aylantirilgan hududlar 33 mln. kv. km.ni tashkil etdi. Ularda qariyb 370 mln. kishilik aholi yashardi.

Mustamlakalardan keladigan daromad olinayotgan foydaning katta qismini tashkil etardi.

O'sha davr tarixchilari Buyuk Britaniya uchun mustamlakalarning ahamiyati haqida majoziy ma'noda bunday deb yozgan edilar: „Hindiston Buyuk Britaniyani boquvchi enaga. Misr esa Britaniya imperiyasi boshiga kiydirilgan tojdir“.

#### **Mustamlakachilik imperiyasining tashkil topishi**

Britaniyaning dengizdagi tanho hukmronligi hatto mamlakat madhiyasida ham o'z ifodasini topgan edi. Buyuk Britaniyaning o'g'lonlari va qizlari madhiyadan o'rin olgan „Britaniya, dengizlarni boshqar, hukmronlik qil!“ degan satrlarni mag'rurlik bilan ijro etardilar.

Iqtisodiy jihatdan Buyuk Britaniyaning eng ilg'or mamlakat sifatidagi mavqeyining pasaya borishi uni yangi-yangi mustamlakalar bosib olishni kuchaytirishga undadi. Ayni paytda esa, avvalgi mustamlakalarda o'z mavqeyini yanada mustahkamlashga intildi.

1875-yilda dastlab Misr hukumatidan Oʻrtayer dengizidan Hind okeaniga chiqishga imkon beruvchi Suvaysh kanalining 45% aksiyasini sotib oldi. Tez orada, kanalning boshqa, xususiy kishilar qoʻlida toʻplangan aksiyalarini ham qoʻlga kiritdi. Shu orqali Hindistonga chiqadigan dengiz yoʻllari nazorati toʻla Britaniya qoʻliga oʻtdi.

1876-yilda esa Britaniya oʻz qirolichasi Viktoriyani Hindistonning imperatori deb eʼlon qildi. Shu tariqa, Buyuk Britaniya imperiyasi tashkil etildi. Endilikda Buyuk Britaniya imperiya deb, parlamenti esa imperiya parlamenti deb yuritiladigan boʻldi.

**Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasi** Buyuk Britaniya oʻz oldiga Oʻrta Osiyoni ham egallash maqsadini qoʻygan edi. Ayni paytda, Yer sharining bu mintaqasiga podsho Rossiyasi ham daʼvogarlik qilmoqda edi. Podsho hukumatining maqsadi Oʻrta Osiyoni egallash orqali Afgʻonistonga chiqish va shu orqali Hindistonga bevosita tahdid solib turish imkoniga ega boʻlish yoʻli bilan xalqaro masalalarda Buyuk Britaniyani yon berishga majbur etish edi.

Podsho Rossiyasi Oʻrta Osiyo davlatlarini bosib olish uchun harakat boshlagani Buyuk Britaniyani tashvishga solmay qolmadi. Nihoyat, ikki davlat manfaatlarining oʻzaro mushtarakligiga erishishdi. Yaʼni Rossiya Hindistonga xavf solish, Buyuk Britaniya esa Oʻrta Osiyoni egallash niyatidan voz kechdilar. Afgʻoniston bu ikki buyuk davlat manfaatlari tigʻini qaytarib turuvchi hudud vazifasini oʻtashi lozim edi.

Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasi manfaatlari toʻqnash keladigan yana bir hudud Bolqon yarimoroli, shuningdek, Qora dengizni Oʻrtayer dengizi bilan bogʻlaydigan Turkiyaga qarashli Bosfor va Dardanell boʻgʻozlari hamda Istanbul shahri edi. XIX asr oxirlarida Bolqon yarimoroli xalqlarining maʼlum qismi Turkiya zulmi ostida edi.

Podsho Rossiyasining Bolqonda mustahkam oʻrnashib olishga intilishi, Turkiyaning esa Bolqondagi slavyan xalqlarini oʻz zulmi ostida saqlab turishga urinishi 1877-yilda Rossiya—Turkiya urushini keltirib chiqardi. Bu urushda qoʻli baland kelgan Rossiya Turkiyani oʻzi uchun qulay San-Stefano sulh shartnomasini imzolashga majbur etdi. Biroq, Rossiyaning kuchayib ketishini istamagan Buyuk Britaniya, Rossiyani San-Stefano shartnomasini buyuk davlatlarning Berlin kongressida qayta koʻrib chiqishga majbur

etdi. Kongressda slavyan xalqlarining manfaatlariga zid qarorlar qabul qilindi. Turkiya manfaatlari qattiq himoya etildi. Bu xizmat evaziga Turkiya Buyuk Britaniya foydasiga Kipr orolidan voz kechdi.

Biroq, bora-bora Buyuk Britaniya podsho Rossiyasiga nisbatan dushmanlik munosabatini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Bunga Germaniya harbiy qudratining tobora o'sib borayotganligi, uning hatto Buyuk Britaniya mustamlakalariga ham da'vo qilayotganligi sabab bo'ldi. Eng ko'p mustamlakali davlatlar bo'lgan Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasi o'z mustamlakalarini Germaniya bilan baham ko'rishni aslo istamas edilar. Endi, bu ikki davlat umumiy dushman xavfiga qarshi turish uchun o'zaro yaqinlashish yo'llarini izlay boshladi.

### **Afrikadagi mustamlakalar**

Buyuk Britaniya tabiiy qazilmalarga boy Afrika qit'asida ham katta mustamlakalar bosib olishga kirishdi. 1882-yilda Misrni egalladi. Keyingi yillarda Nigeriya, Somali, Keniya, Ugandani zabt etdi.

1899-yilda Afrikaga Gollandiya, Fransiya va Germaniyadan ko'chib borgan kishilar avlodlari boshqarayotgan Bur Respublikalariga qarshi urush harakatlarini boshladi. 1902-yilda Bur Respublikalari taslim bo'ldi (Transvaal va Oranj Respublikalari).

Buyuk Britaniya Janubiy Afrikada bosib olgan barcha hududlarni yagona birlikka — Janubiy Afrika Ittifoqiga birlashtirdi.

### **Buyuk Britaniyaning xalqaro ahvoli**

Bozorlar va mustamlakalar uchun buyuk davlatlar o'rtasida raqobatning kuchayib ketganligi Buyuk Britaniyaning xalqaro ahvolini ancha yomonlashtirib bordi. Ayniqsa, Germaniya bilan Buyuk Britaniya ziddiyatlari kuchaydi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya Germaniyaga qarshi boshqa davlatlar bilan til topish yo'lini izlashga majbur bo'ldi. 1901-yilda Panama kanali masalasida AQSHga yon berdi. 1902-yilga kelib, Yaponiya bilan shartnoma imzoladi va unga katta moliyaviy yordam ko'rsatdi. 1904-yili Buyuk Britaniya bilan Fransiya o'rtasida shartnoma tuzilib, u Antanta nomini oldi. 1907-yilda Buyuk Britaniya—Rossiya bitimi tuzildi.

Buyuk Britaniya hukumati, ayni paytda, o'zga davlatlarning ichki ishlariga ham aralashishni davom ettirdi. Chunonchi, Erondagi

(1905—1911-yillardagi) inqilobni bostirdi. Xitoyda 1911-yilgi inqilobga qarshi chiqqan kuchlarni qoʻllab-quvvatladi.

Ayni paytda, Buyuk Britaniyadan koʻchib borgan inglizlar joylashgan mustamlakalarda mustahkamlanib olgan milliy burjuaziyaning tazyiqi ostida hukumat bu mustamlakalarga rasmiyatchilik jihatdan mustaqillik huquqini (dominion) berishga majbur boʻldi. Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika Ittifoqi dominionlik huquqini oldilar (1867-yili Kanada shunday huquqni olgan edi).



### **Savol va topshiriqlar**

1. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning eng ulkan mustamlakachi davlat ekanligini dalillar bilan asoslang.
2. Buyuk Britaniya mustamlakachi imperiyasi qay tariqa tashkil topdi?
3. Buyuk Britaniya—Rossiya munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Buyuk Britaniya ham I jahon urushining aybdorlaridan biri boʻlganligini asoslab bering.

## **III bob**

### **XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA AMERIKA DAVLATLARI**



#### **Amerika Qoʻshma Shtatlari**

**Iqtisodiy taraqqiyot** Fuqarolar urushidan keyin yagona ichki bozorning vujudga kelganligi, qulchilikning tugatilishi, quldorlik latifundiyalarining bekor qilinishi, unumdor yerlarning, foydali qazilma boyliklarining koʻpligi, sersuv daryolar va poyonsiz oʻrmonlar, Amerika xalqining tadbirkorligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining nihoyatda tezlashuviga sabab boʻldi. Ayni paytda, AQSHga qoʻshni davlatlar (Kanada va Meksika) kuchsiz edi. Bu hol AQSHni ortiqcha harbiy xarajatlardan xalos etdi. Bundan tashqari, AQSHga yashash uchun kelganlarning katta qismi amalda yuqori malakali mutaxassislar edi.

1870—1914-yillarda AQSHga 25 mln. kishi koʻchib keldi. Bu ham AQSH taraqqiyotida muhim rol oʻynadi. Shuningdek, ishchi kuchiga doimiy muhtojlik yangi texnika va texnologiyalarning ishlab

chiqarishga keng joriy etilishiga yo‘l ochdi. Qo‘lida biror hunarning yo‘qligi uyat hisoblanadigan hodisaga aylandi. Bu omillar ham AQSHning gurkirab rivojlanishiga olib keldi.

XIX asrning oxirgi o‘ttiz yili AQSH tarixida taraqqiyotning yuksakligi va juda muhim iqtisodiy va siyosiy voqealar bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Agar 1860-yil AQSH sanoat mahsuloti hajmi jihatidan dunyoda 4-o‘rinda turgan bo‘lsa, 1894-yilga kelganda birinchi o‘ringa chiqib oldi. 1894-yilda AQSHning sanoat mahsuloti G‘arbiy Yevropadagi hamma mamlakatlar mahsulotining yarmiga teng va Buyuk Britaniya mahsulotidan esa ikki baravar ortiq edi.

AQSHda keng ichki bozorning vujudga keltirilishi kapitalizm taraqqiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunga qishloq xo‘jaligidagi kapitalizm taraqqiyotining „amerikacha yo‘li“ (ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga mahsulotni ko‘paytirish) g‘alaba qilganligi, g‘arbiy hududlarning tezlik bilan o‘zlashtirilganligi, katta tezlik bilan temiryo‘llar qurilganligi va immigratsiya natijasida aholining tez ko‘payishi ham yordam berdi.

AQSH sanoati o‘shida Yevropa kapitali ham muhim rol o‘ynadi. Yevropa davlatlarining AQSHga qo‘ygan kapitali 1890-yilda 3 mlrd. dollarga yetdi. Biroq, AQSH chetga kapital chiqarish bo‘yicha Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyadan orqada edi.

### **Ishlab chiqarishning markazlashuvi**

XX asr boshlarida mamlakatda ishlab chiqarishning markazlashuvi hamda bank kapitali bilan sanoat kapitalining qo‘shilib ketishi davom etdi. Sanoat mahsulotining qiymati 1909-yilda 20 mlrd. dollardan oshdi. Bu Buyuk Britaniya sanoat mahsulotlari qiymatidan 2,5 baravar, Germaniyadagidan 2 baravar ortiq edi. I jahon urushi davrida AQSHda qazib chiqarilayotgan toshko‘mirning, ishlab chiqarilayotgan cho‘yan va po‘latning miqdori Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya erishgan jamiki miqdoriga teng edi. Sanoatning barcha tarmoqlari bo‘yicha AQSH jahonda birinchi o‘ringa chiqdi. Ishlab chiqarishning deyarli hamma tarmoqlarida trestlar tashkil etildi. Po‘lat, neft, mis, elektr va shu kabi sanoat tarmoqlari „qirollari“ning qudratli sulolalari vujudga keldi. Ford avtomobil qiroliga aylandi.

1901-yilda Morgan 1 milliard dollarlik kapitalga ega bo‘lgan „Po‘lat korporatsiyasi“ deb atalgan katta trestni tashkil etdi. Eng

yaxshi kokslanadigan ko‘mir konlari joylashgan 5000 gektardan ko‘proq yer, ming milyadan uzunroq temiryo‘l, 100 dan ortiq savdo kemalari shu trestning qo‘lida edi.

Rokfellerning „Standart oyl“ tresti jami neft mahsulotining 90 foizini, okeanlarda qatnaydigan yuzlab paroxodlarni o‘z qo‘liga oldi.

1914-yilga kelib, aholining 2 foizini tashkil etgan sarmoyadorlar milliy boylikning 60 foiziga egalik qila boshladi.

### **Qishloq xo‘jaligidagi tub o‘zgarish**

Qishloq xo‘jaligidagi tub o‘zgarishning mazmunini qo‘l mehnati o‘rnini mashinaning tobora ko‘proq egallab borishi tashkil etdi. 1860—1910-yillar oralig‘ida AQSHda fermerlar soni 3 marta ko‘paydi.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer esa 160 mln. gektardan 352 mln. ga yetdi. AQSHda G‘arbiy Yevropaga o‘xshash qirol xonadoni ham, Sharq mamlakatlaridagi singari yirik zamindorlar ham, katta-katta mulklarga ega bo‘lgan cherkov yer egaligi ham yo‘q edi.

Tez orada qishloq xo‘jaligi texnikalari ixtiro qilindi. Bular xashakni press qiladigan mashina, g‘alla o‘radigan va yanchadigan mashina (kombayn), ekuvchi, qirquvchi, po‘st archuvchi, yerni yumshatuvchi, o‘g‘it sochuvchi, kartoshka ekuvchi, somon qurituvchi, uy parrandalari inkubatori kabilardan iborat bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligida ilm-fan yutuqlari ham keng qo‘llanila boshlandi.

### **Janubdagi ahvol**

Janubda fuqarolar urushidan keyin katta o‘zgarishlar yuz berdi. Qulchilik tugatildi. Aholi faollashdi. 1870-yilda AQSH konstitutsiyasiga tuzatish kiritildi. Unga ko‘ra, „irqi, terisining rangi yoki ilgarigi qullik holatini bahona qilib“ saylovlarda ishtirok qilishni har qanaqasiga cheklash bekor qilindi. Janubdagi shtatlarning yangi hukumatlari tarkibida qora tanli aholi ham qatnasha boshladi. Davlat maktablari tizimi vujudga keltirildi. Adolatli soliq tizimi joriy etildi. Irqiy kamsitish qonunlari bekor qilindi. Mahalliy hokimiyat organlari demokratlashtirildi. Keksalar, nogironlar va yetim-yesirlar uchun xayriya jamiyatlari tashkil qilindi.

Kongress 1872-yilda Janubdagi sobiq isyonchilarga umumiy afv berish to‘g‘risidagi qonun qabul qildi. Ayni paytda, isyon boshliqlaridan 500 ga yaqin kishining davlat vazifalarida ishlashi taqiqlandi. Bu hol plantatorlarning eski tartiblarni tiklash uchun



kurash olib borishiga bahona bo'ldi. Janubda „Ku-kluks-klan“ singari irqiy-terrorchi tashkilot yana bosh ko'tardi. Taraqqiyparvar ziyoli xodimlardan o'ch olish va „Linch sudlari“ yana oddiy hodisaga aylandi. Janub qora tanli aholi uchun „turma“ bo'lib qoldi. Prezident saylovlari oldidan faqat ikki janubiy shtat (Janubiy Karolina va Luiziana shtatlari) respublikachilar qo'li ostida qoldi, xolos.

**Ikki partiyaviy tizim** AQSHda kuchli prezidentlik respublikasi qaror topdi. Ayni paytda, kuchli ikki partiyaviy tizim ham chuqur ildiz otdi.

1828-yilda tashkil topgan Demokratik partiya fuqarolar urushi vaqtida „yegan“ zarbalaridan o'zini tez „o'nglab olib“, yirik yer egalari, boy fermerlar, Janub burjuaziyasi va Shimol sanoatchilari, moliyachilar manfaatini himoya qiluvchi partiya bo'lib qoldi. 1854-yilda tashkil topgan Respublikachilar partiyasi yirik sanoatchilar va moliyachilar partiyasiga aylandi.

Har ikkala partiya ham mayda fermerlarga va shaharlardagi mayda burjuaziyaga, ishchilarga o'z ta'sirini o'tkazish uchun kurash olib bordi. Lekin, ishlab chiqarish yanada o'sib, ijtimoiy harakat rivojlanib borgan sari bu partiyalar o'rtasidagi farq asta-sekin yo'qolib bordi.

Amerika burjuaziyasi ikki partiyali tizimdan ustalik bilan foydalanib keldi. Agar hokimiyat tepasida respublikachilar turgan bo'lsa, demokratlar hukumatni tanqid etar, o'zlarini esa xalq manfaatlarini himoya qiluvchilar qilib ko'rsatib, norozilarning katta qismini o'z tomonlariga og'dirib olardilar. Demokratlar g'alaba qilgan taqdirda muxolifatchi partiya rolini respublikachilar o'ynardilar. Bu omil amalda boshqa uchinchi partiya tuzilishiga jiddiy to'siq bo'lib keldi.



**Korporatsiya** (lotincha—birlashma) — monopolistik aksiyadorlar birlashmasi.

**Latifundiya** (lotincha) — katta yer-mulk.

**Ku-kluks-klan** — irqchilik terrorchi tashkilot.

**Linch sudi** — AQSHda qora tanli kishilar va demokratik harakat qatnashchilarini sudsiz va so'roqsiz jazolash.

**Milya** — 1609,3 metrga teng uzunlik o'lchovi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Qanday omillar AQSHning gurkirab rivojlanishiga sabab bo'ldi?
2. AQSHning dunyoda yetakchi davlatga aylanganligini isbotlovchi dalillar keltiring.
3. AQSH qishloq xo'jaligida yuz bergan tub o'zgarishlarning mazmuni nimadan iborat edi?
4. Irqchilik qay tariqa vujudga kelgan? U keltirgan ayanchli oqibatlarga misollar keltiring.
5. „Kuchli ikki partiyaviy tizim“ iborasi mazmunini izohlab bering.
6. Hozir amaldagi AQSH prezidenti qaysi partiya vakili? U haqida bilgan ma'lumotlaringizni qog'ozga tushiring.



15-§.

### **AQSHning ichki siyosati**

#### **Ijtimoiy harakat**

AQSH iqtisodining rivojlanishi va dunyoda birinchi davlatga aylanishi jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy muammolarni o'z-o'zidan bartaraf etishga olib kelgani yo'q. AQSHda ham ishchilar sinfi o'z haq-huquqlari uchun qattiq kurash olib borishga majbur bo'lgan. Bu davrdagi ishchilar harakatining asosiy maqsadi 8 soatlik ish kuni joriy etilishiga erishish edi.

1886-yil 1-may kuni umumiy ish tashlashlarda 350 mingdan ortiq ishchi ishtirok etdi. Buning natijasida 200 mingga yaqin ishchi 8 soatlik ish kuni joriy etilishiga erishdi. Biroq, keyingi 2 yilda bu muvaffaqiyat deyarli yo'qqa chiqdi.

8 soatlik ish kuni uchun boshlangan harakat Chikagoda juda ham keskin tus oldi. Shaharning Senno maydonida bo'lgan ommaviy miting vaqtida politsiya ish tashlaganlarga qarab o'q uzdi. Natijada 6 kishi o'ldirildi va ko'plab ishchilar yarador bo'ldi. Darg'azab bo'lgan Chikago ishchilari bu xunrezlikka qarshi norozilik bildirib, ommaviy miting tashkil qildilar. Qurolli politsiyachilar guruhi ishchilarga qarshi yuborildi. Sudning qaroriga muvofiq, ommaviy harakat rahbarlaridan 4 kishi dorga osildi. Ular o'limga tik qaradilar. Osib o'ldirishga mahkum qilinganlardan biri — Shpis oxirgi so'zida „Shunday zamon keladiki, bizning sukunatimiz nutqlarimizdan ham o'tkirroq bo'ladi“, degan edi.

XIX asr oxiriga kelib, ijtimoiy harakatga rahbarlik 1881-yilda tuzilgan „Qo‘shma Shtatlar va Kanada uyushgan tred-yunionlari va ishchi ittifoqi federatsiyasi“ga o‘tdi. 1886-yilda u Amerika Mehnat Federatsiyasi degan nom oldi. AMF, asosan, yuqori malakali ishchilar manfaatini himoya qilardi. 1914-yilda uning a‘zolari soni 2 mln. kishini tashkil etdi.

Tashkilot ishchilar manfaati yo‘lidagi kurashda Kongress a‘zolari hamda korxonalar egalariga ta‘sir o‘tkazishga alohida e‘tibor berdi. Hukumat 1894-yilda sentabrning birinchi dushanbasini „Mehnat kuni“ bayrami deb e‘lon qilishga majbur bo‘ldi. Bu bayram hozirgacha nishonlanib kelinmoqda.

1913-yil sentabrda kon ishchilari og‘ir mehnat sharoitiga qarshi ish tashladilar. Ular 8 soatlik ish kuni joriy etilishini va ish haqini oshirishni talab etdilar. Hukumat ishchilarga qarshi kuch ishlatdi. Butun Kolorado shtatida harbiy holat e‘lon qilindi. Ishchi lagerlari o‘qqa tutildi. Ko‘plab ishchilar halok bo‘ldi va yarador qilindi. Ish tashlovchilarning rahbarlari esa otib tashlandi. Ishchilar majburan konlarga qaytarildi.

**Qora tanlilar ahvoli** Fuqarolar urushidan so‘ng qora tanli qullar ozodlikka erishdilar. Biroq, ular tenglikka erisha olmadilar. Mamlakatda segregatsiya tartibi qaror topdi. Qora tanlilar oq tanlilar o‘qiydigan maktabga, oq tanlilar qatnaydigan cherkovga borolmasdi. Oq tanli chiqqan transportga chiqqolmasdi. Hatto qabristonlar ham alohida edi. Shu tariqa, mamlakatda irqchilik avj oldi. Ayniqsa, Janubda yashaydigan qora tanlilarning ahvoli og‘ir edi. Ular Shimolga qochib o‘tardilar. Biroq, bu yerda ham ular alohida mavzelerde yashashga majbur edilar. Qarzdor qora tanli qamoqqa olinishi va qarzdan qutulishi uchun istagan kishiga shartnoma asosida ishchi qilib berilishi mumkin edi. Janubiy shtatlarda ular saylov huquqidan mahrum etilgan edilar. Ularning ilg‘or ziyoli guruhlari qora tanlilarning teng huquqli fuqaro bo‘lishlari yo‘lidagi kurashga rahbarlik qildilar. Ular kurashning tinch yo‘lini tanladilar.

**Hindular ahvoli** AQSHning tub yerli aholisi—hindular qat-tiq azob-uqubatlarga duchor etildi. Hindular o‘z haq-huquqlari uchun kuchlari yetguncha kurashdilar. Biroq, kuchlar nihoyatda noteng bo‘lgan kurashda ular yengildilar.

1880-yilgi oxirgi jangda yengilgan hindular alohida rezervatsiyalarga surib chiqarildi. Bu rezervatsiyalar unumsiz tashlandiq yerlar

edi. Bu yerda ular hukumat „vasiyligi“ga olindilar. Hindular masalasi ana shunday yo‘l bilan hal etildi.

Ayni paytda, AQSH Kongressi hindularga fermerlik faoliyati bilan shug‘ullanishga imkon beruvchi qonun qabul qildi.

Biroq, qonun amalga oshmay qolaverdi. Bunga, birinchidan, hindularga ajratilgan yer maydonlarining unumsizligi, ikkinchidan esa fermerlik faoliyati bilan shug‘ullanish hindularning jamoaviy turmush tarziga zid kelishi sabab bo‘ldi.

### **T. Ruzvelt va V. Vilsonlar davrida ichki siyosat**

1900—1914-yillar AQSH tarixiga „taraqqiyparvar davr“ nomi bilan kirgan. Bunga AQSH prezidentlarining monopoliyalarga qarshi kurash olib borganliklari sabab bo‘lgan.

Monopoliyalarga qarshi kurashdan maqsad — o‘rta tabaqalar manfaatini himoya qilish edi. Monopoliyalarga qarshi kurash tarafdorlari *taraqqiyparvarlar* deb ataldi. Ularning safida 1901-yilda AQSH prezidenti lavozimini egallagan Teodor Ruzvelt ham bor edi.

U Amerika—Ispaniya urushida shaxsan qatnashib, shuhrat qozongan edi. T. Ruzveltning monopoliyalarga qarshi kurash siyosati „Adolatli yo‘l“ deb nom oldi. Uning hukumati, ayni paytda, ishchilar bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi mojarolarda hakamlilik vazifasini ham bajara boshladi. Hukumat trestlarga qarshi 20 dan ortiq sud jarayonini tashkil etdi. Bular ma‘lum natijalar ham berdi. Xususan, sud qarori bilan Morgan nazorat qiladigan temiryo‘l kompaniyasi ikkiga bo‘lindi. 1906-yilda temiryo‘llar faoliyatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi.

1912-yilgi prezident saylovlarida demokrat Vudro Vilson g‘alaba qozondi. U Birinchi jahon urushi arafasida bojxona tariflari to‘g‘risida yangi qonun qabul qilinishiga erishdi. Qonunga ko‘ra, tarif stavkasi 10 foizga kamaytirildi. Daromadning oshib borishiga qarab, qo‘shimcha soliq solinadigan bo‘ldi. Saylov tizimida ham islohot o‘tkazildi.

Unga ko‘ra, oldin ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan saylanadigan senatorlar endi xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan bo‘ldi.

1914-yilda AQSH Kongressi trestlarga qarshi qonun qabul qildi. Qonun ish tashlash davrida trestlarga yetkazilgan zararni kasaba uyushmalaridan undirib olish tartibini bekor qildi.



**Rezervatsiya** (lotincha — saqlayman) — biror davlatda tub joy aholisining omon qolgan qismini zo‘rlab joylashtirish uchun ajratilgan hudud.

**Segregatsiya** (lotincha — bo‘lish) — ayrim davlatlarda aholini majburiy irqiy guruhlarga bo‘lish.



### **Savol va topshiriqlar**

1. AQSHda ishchilar sinfi o‘z haq-huquqlari uchun kurashda oldilariga qanday maqsadni qo‘ygan edilar?
2. AQSH Mehnat Federatsiyasining ishchilar harakatida tutgan o‘rni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. AQSH hukumati qora tanli aholi masalasini qanday hal etdi?
4. Tub aholi — hindularga nisbatan qanday siyosat yuritildi?
5. Prezidentlar T. Ruzvelt va V. Vilsonlar ichki siyosatlarini bir-biri bilan taqqoslang.



Nima uchun Fransiyada uch marta Respublika e‘lon qilingan bir sharoitda AQSHda bunday hodisa ro‘y bermagan?

## **16-§.**

### **AQSHning tashqi siyosati**

#### **AQSH harbiy qudratining namoyishi**

Mamlakatning bepoyon hududlari va Rosiyadan sotib olingan Alaskani o‘zlashtirish bilan band bo‘lgan AQSH mustamlakalar va o‘z ta’sir doiralarini qo‘lga kiritishga Yevropa mamlakatlaridan kechroq kirishdi. Uning e’tibori dastlab Lotin Amerikasi, Karib havzasi va Tinch okean bo‘yida joylashgan mamlakatlarga qaratildi.

AQSH Lotin Amerikasida hukmron bo‘lib olish uchun kurashib, riyokorlik bilan „Hamma Amerika mamlakatlarining manfaatlari bitta“, degan g‘oyani targ‘ib qilib keldi. 1889-yilda AQSH Davlat departamenti tashabbusi bilan Vashingtonda birinchi Panamerika konferensiyasi chaqirildi. Birinchi Panamerika konferensiyasining birdan bir aniq natijasi xalqaro „Amerika respublikalari syezdi“ assotsiatsiyasini tuzishdan iborat bo‘ldi. AQSH ning G‘arbiy yarimshardagi mamlakatlar ustidan tanho hukmronlik qilishga qaratilgan Panamerikanizm siyosati shu tariqa vujudga keldi. „Monro doktrinasi“ga tayanib, ko‘p o‘tmay Samoa orollari qo‘lga kiritildi.

1898-yilda Tinch okeanning eng markazida, Osiyoga olib boradigan strategik jihatdan muhim bo‘lgan dengiz yo‘llari kesishgan joydagi Gavayi orollari bosib olindi.

XIX asrning oxirida AQSH nihoyatda qudratli davlatga aylandi. Ispaniyaga qarashli Kuba oroli Amerika hukmron doiralarning havasini keltirardi. AQSH Ispaniyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. AQSH o'z fuqarolarining manfaatini himoya qilish bazonasi ostida 1898-yil Kuba sohillariga o'z harbiy kemasini yubordi. Bu harbiy kema Gavana reydidagi turgan joyda noma'lum sababga ko'ra portlab ketdi. AQSH bu qo'poruvchilikda Ispaniyani aybladi. Kongress esa Ispaniyaga qarshi urush harakatlarini boshlash haqida qaror qabul qildi.

Bu dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi urush edi. 3 oy davom etgan urushda Ispaniya yengildi va sulh so'rashga majbur bo'ldi. 1898-yil 10-dekabrda Parij shahrida AQSH-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, AQSH Puerto-Riko va Guam orollariga, Ispaniyaga 20 mln. dollar to'lab Filippinga ham ega bo'lib oldi. 1898-yilda Kuba nomiga mustaqillik oldi. Amalda esa AQSHga qaram bo'lib qolaverdi.

### **Panama kanali**

AQSH Karib dengizi havzasida ham tajovuzkor siyosat olib bordi. 1903-yilda Kubaga majburan shartnoma qabul qildirdi. Unga ko'ra, AQSHning ruxsatisiz bironta davlat bilan ittifoq tuzish yoki o'zining ichki siyosatiga birorta o'zgarish kiritish huquqidan mahrum etildi.

AQSHning Meksikaga kiritgan kapitali 1911-yil oxirida 1,5 mlrd. dollarga yetdi. Asosiy ishlab chiqarishning deyarli 70 foizi AQSH monopolistlarining qo'liga o'tdi. AQSH Gvatemala, Kosta-Rika va Nikaraguaga asoratli shartlar asosida qarzlarni berdi. Bu qarzlarni berish vaqtida qo'yilgan shartlar AQSHning bu mamlakatlar ichki ishlariga aralashuviga imkon berardi.

Gavayi va Filippin orollari bosib olinganligi hamda Tinch okean bo'yida joylashgan mamlakatlar bilan savdo-sotiqning kuchayganligi sababli, AQSH Tinch va Atlantika okeanlarini birlashtiruvchi kanal qurish masalasiga alohida ahamiyat bera boshladi.

Fransiyadan Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan aksiyadorlik jamiyatining hamma aksiyalarini arzon-garovga sotib oldi. Kanal Kolumbiya hududida edi. Endilikda kanal qurish va undan foydalanish huquqiga Amerikaning to'la ega bo'lishiga Kolumbiya Senati qarshilik qildi. Shundan so'ng, 1903-yil 3-noyabrda AQSH Panamada Kolumbiyaga qarshi isyon tashkil etdi va u yerda „qo'g'irchoq“ hukumat tuzdi. Panama mustaqil respublika deb e'lon qilindi. AQSH Panama Respublikasining mustaqilligini tan oldi. Panama hukumati AQSH bilan kanal qazish, temiryo'llar va



Panama kanali bo'yida istehkomlar qurish uchun Amerikaga juda keng huquqlar bergan shartnomani imzoladi. Buning evaziga Panama 10 mln. dollar oldi va yiliga 250 ming dollar renta olib turadigan bo'ldi. AQSH Panama kanali qurilishiga e'tiborini kuchaytirdi. Qurilish 10 yil davom etib, 1914-yilda tugallandi.

Kanal AQSHning Atlantika okeani sohillaridan Tinch okean sohillariga boradigan dengiz yo'lini ancha qisqartirib, AQSH uchun strategik va iqtisodiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

**Panamerika ittifoqi** 1910-yilda Buenos-Ayresda o'tkazilgan IV Panamerika konferensiyasida Amerika Respublikalari ittifoqi tashkiloti „Panamerika ittifoqi“ deb nomlandi va AQSH manfaati uchun niqob bo'ldi. 1912-yilda prezident Taft „dollar diplomatiyasi“ siyosatini e'lon qildi. Bu siyosat, asosan, iqtisodi nochor bo'lgan Lotin Amerikasi davlatlariga nisbatan qo'llandi. „Yordam berish“ niqobi ostida sotib olish, davlat to'ntarishlari uyushtirish oddiy holga aylanib qoldi.

Lotin Amerikasini bo'ysundirish uchun boshqa davlatlarga qarshi kurashda AQSH „Monro doktrinasi“ (VIII sinf darsligiga qarang. „Amerika amerikaliklar uchun“ shiori)ga tayanib ish olib bordi. Bu doktrinani Teodor Ruzvelt AQSHga moslab talqin etdi. Unga ko'ra, Amerika mamlakatlaridan birontasida tartibsizliklar doimiy tus olgan taqdirda xalqaro politsiya rolini bajarish AQSHning burchi bo'lishi kerak edi. Shu tariqa „yo'g'on kaltak“ atamasi vujudga keldi. „Yo'g'on kaltak“ siyosati AQSHni „G'arbiy yarimsharning politsiyasiga“ aylantirdi.

**„Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar“ doktrinasi** AQSH XX asr boshlarida Xitoyga ekspansiya qilishni kuchaytirib yubordi. Biroq, boshqa davlatlar Xitoyni o'z ta'sir doiralari taqsimlab olganlari sababli, AQSH uchun o'z tovarlarini shu „ta'sir doiralari“ga olib kirishga, so'ngra o'zining tanho hukmronligini o'rnatishga imkon beradigan doktrina topish zarur bo'lib qoldi.

1899-yilda AQSH davlat kotibi Xey Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya va Italiyaga ayni bir mazmunda nota yubordi. Unda tarixga „Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar“ nomi bilan kirgan doktrina o'z ifodasini topgan edi.

Bu doktrinaga ko'ra, AQSH Xitoydagi mavjud „ta'sir doiralari“ni tan olardi. Ayni paytda esa Amerika tovarlari uchun shu „ta'sir doiralari“ni ochib qo'yishni, ya'ni savdo-sotiq erkinligini talab qilardi. Shuningdek, biror-bir davlat Xitoyda savdo qilish



uchun hech qanday imtiyoz olmasligi zarur edi. AQSH Xitoyning boshqa davlatlarga bergan imtiyozlarini Amerika kapitalining Xi-toyga kirib kelishiga va Osiyoda o'zining cheksiz hukmronligini o'rnatish rejasining amalga oshirilishi yo'lidagi g'ov deb hisoblardi.

Prezident V. Vilson tashqi siyosatda o'zining yaqin o'tmish-doshlari qatori AQSHning dunyoda eng qudratli ta'sirga ega bo'lishi uchun kurashdi. Chunonchi, u bunday deb yozgan edi: „Yangi davr arafasida turibmiz. Bu davrda biz amerikaliklar dunyoni boshqarishimiz kerak“.

Ha, tez orada shunday bo'ldi ham. Birinchi jahon urushi AQSH maqsadlarining ro'yobga chiqishiga imkon yaratdi.



**Davlat departamenti** — AQSH tashqi ishlar vazirligi.

**Doktrina** (lotincha — ta'limot) — siyosiy rahbarlik tamoyili.

**Nota** (lotincha) — bir davlatning boshqa davlatga yozgan rasmiy murojaatnomasi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. AQSH tashqi siyosati mohiyatini izohlab bering.
2. „Yo'g'on kaltak“, „dollar diplomatiyasi“, „Monro doktrinasini“ iboralarining mazmunini tushuntirib bering.
3. Panama kanali qurilishi qay tariqa amalga oshirildi?
4. „Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar“ mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?

T/r	Prezidentlar	Prezidentlik qilgan yillari	Partiyasi
1.	U. Grand	1869—1876	Respublikachi
2.	R. Xeys	1877—1880	Respublikachi
3.	D. Garfild	1881— 4 oydan so'ng otib oldirildi	Respublikachi
4.	Ch. Artur	1881—1884	Demokrat
5.	S. Klivlend	1885—1889	Demokrat
6.	B. Garrison	1890—1893	Respublikachi
7.	S. Klivlend	1894—1897	Demokrat
8.	U. Mak-Kinli	1898—1901	Respublikachi

9.	U. Mak-Kinli	1901— 6 oydan so'ng otib o'ldirildi	Respublikachi
10.	T. Ruzvelt	1901—1908	Respublikachi
11.	V.G.Taft	1909—1912	Respublikachi
12.	V. Vilson	1913—1920	Demokrat



## XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Lotin Amerikasi davlatlari

### Umumiy tavsif

Amerika qit'asi shartli ravishda Shimoliy va Janubiy Amerikaga bo'linadi. Ba'zan Lotin Amerikasi iborasi ham ishlatiladi. Ma'lumki, Janubiy Amerikani ispanlar va portugallar istilo qilgan edi. Ularning tili lotin tilidan kelib chiqqanligiga nisbat berilib, bu materik Lotin Amerikasi deb atalgan. Lekin Lotin Amerikasi Janubiy Amerikaga nisbatan keng tushuncha. Unga Janubiy Amerikadan tashqari Meksika (Shimoliy Amerikaning bir qismi) va Vest-Indiya ham kiradi (ilovaga qarang).

Shimoliy va Lotin Amerikasining taraqqiyoti bir xil darajada kechgani yo'q. Shimoliy Amerikada joylashgan AQSH dunyoning birinchi davlatiga aylangan bo'lsa, Lotin Amerikasi taraqqiyotda orqada qolib ketdi.

Buning asosiy sababi Lotin Amerikasi davlatlarini tashkil etgan hukmron doiralari va ularning vakili bo'lgan siyosiy arboblari kelib chiqishiga ko'ra ispaniyalik va portugaliyaliklar bo'lganligi bilan izohlanadi.

Ispaniya va Portugaliya bu davrda G'arbiy Yevropaning iqtisodiy jihatdan taraqqiyotda orqada qolgan davlatlari edi. Bu ikki davlat jamiyati hayotida o'rta asr feodal tartiblarining hamon saqlanib kelinayotganligi buning asosiy sababi edi.

Lotin Amerikasi davlatlari hukmron doiralari aynan shu ikki davlatda hukm surayotgan o'rta asr feodal munosabatlariga asoslangan andozadagi tartiblarni o'zlarida ham saqlab turganlar. Chunki, xuddi shu tartiblar ularga hokimiyatni o'z qo'llarida mustahkam saqlab turishning kafolati bo'lgan o'rta asr feodal tartiblarining saqlanib qolganligi Lotin Amerikasida ham jamiyat taraqqiyotining orqada qolishiga sabab bo'lgan.

Lotin Amerikasida siyosiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlatlarning tashkil topish jarayoni 1870-yilga kelib, deyarli tugallandi.

Argentina, Meksika, Chili, Urugvay, Venesuela va Kolumbiya mamlakatlari Ispaniya zulmiga qarshi uzoq vaqt o'z mustaqilliklarini saqlash va feodal monarxiyani ag'darib tashlash uchun kurashdilar.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligida XIX asrning oxirgi choragida sanoat taraqqiyoti endigina boshlangan edi. Ularning iqtisodiyotida kapitalistik munosabatlar bilan bir qatorda, feodal munosabatlar, qulchilik qoldiqlari va hindularning sodda urug'-qabilachilik jamoalari ham mavjud edi. Bu mamlakatlarning asriy qoloqligidan Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH va Germaniya kabi buyuk davlatlarning monopolistlari foydalanib qoldilar. XIX asrning oxirlariga kelib, Lotin Amerikasi mamlakatlari amalda Buyuk Britaniya va AQSHning yarimmustamlakalariga aylanib qoldilar.

Lotin Amerikasi davlatlarida kapitalizmning qaror topishi uzoq va o'ta mashaqqatli yo'ldan bordi. Bu mintaqaga eng ko'p kapital kiritgan davlat Buyuk Britaniya edi. Asosiy mablag'lar bandargohlarga, temiryo'llar qurilishiga, banklarga hamda tropik o'simliklarni o'stirishga va go'sht sanoatiga sarflanardi.

XIX asr oxirida Lotin Amerikasiga AQSH kapitali ham kirib kela boshladi.

### **Kubaning mustaqillik uchun kurashi**

1868—1878-yillarda Kuba xalqi ispan mustamlakachilariga qarshi ozodlik kurashi olib bordi (Ispaniya Kubani 1510-yilda bosib olgan edi). Biroq, Ispaniya qaramligidan ozod bo'lishga erishilmadi. Shunday bo'lsa-da, 1880-yilda qulchilikning bekor qilinishiga erishdi.

Tez orada Kubaga AQSH da'vo qila boshladi. U Kubani sotib olish niyatida Ispaniyaga murojaat qildi. Biroq, Ispaniya rozi bo'lmadi. 1895-yilda Kuba xalqi o'z milliy qahramoni Xose Marti hamda Maksimo Gomeslar boshchiligida qo'zg'olon ko'tardi.

1898-yil Parijda imzolangan Ispaniya — AQSH sulh shartnomasiga ko'ra, Kuba mustaqil deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda AQSHga qaram bo'lib qoldi.

### **Meksikada Dias diktaturasi**

XIX asrning 70-yillarida AQSH—Meksika (Meksika 1821-yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan edi) munosabatlari keskinlasha bordi. Bunga AQSHning Meksikani o'ziga siyosiy va iqtisodiy qaram qilishga intilishi sabab bo'ldi. Chunonchi, 1876-yilda AQSH

o'ziga chegaradosh Meksikaning shimoliy tumanlarida Amerika korxonalar va temiryo'llar qurish uchun Meksika hukumatidan ruxsat so'radi. Biroq, hukumat bu murojaatni rad etdi. Natijada, davlat to'ntarishi uyushtirildi. AQSH va mahalliy pomeshiklar reaksiyasiga tayangan Porfirio Dias 1876-yilda prezident deb e'lon qilindi va bu lavozimda o'zina tanaffus bilan 1911-yilgacha turdi.

Dias diktaturasi davri Meksikani chet el monopoliyalarning yarimmustamlakasiga aylantirish davri bo'ldi.

Dias idora qilgan davrning oxiriga borib, AQSHning Meksikaga qo'ygan kapitali 1 mlrd. dollardan oshdi. AQSH Meksikaning neft konlarini o'z qo'liga oldi. Tashqi savdoning 90 foizini o'z nazoratiga bo'ysundirdi.

1909-yilda esa Meksikada hosil bo'lmadi. Oqibatda, dehqonlar g'alayoni boshlandi. Dehqonlar harakatiga Emiliano Sapata rahbarlik qildi. Sapata „Dehqonlarni himoya qilish xuntasi“ni tuzdi. Uning shiori „Yer va ozodlik“ degan chaqiriqdan iborat edi.

1910-yil iyulda Meksikada prezidentlik saylovi o'tkazildi. Diktator Diasni prezidentlikka qayta saylashga qarshi turgan ko'pchilik muxolifat yetakchisi Madero atrofida birlashdi.

Prezidentlikka saylovda Madero o'z nomzodini qo'ydi. Saylov oqibatlaridan qo'rqan Dias Maderoni turmaga tashlatdi.

Saylovlar tinch o'tib, odatdagidek, Dias yana g'alaba qozondi. Oradan ancha vaqt o'tgach, turmadan bo'shatilgan Madero saylovlarning soxtaligini oshkor qilib, o'zini esa qonuniy prezident deb atadi. Diktatura davrida hindulardan g'ayriqonuniy tortib olingan yerlarini qaytarib berishga, pomeshiklarga qarashli yerlarning bir qismini haq to'lash evaziga dehqonlarga berishga va'da berdi. Xalqni qo'zg'olonga chaqirdi. 1911-yilda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan qo'rqib ketgan Dias Meksikadan qochishga majbur bo'ldi.

Madero esa poytaxtga kirib keldi va prezidentlik lavozimini egalladi. Biroq, Meksikadagi og'ir ichki siyosiy vaziyat tufayli u biror jiddiy o'zgarishlar qila olmadi. Shunday bo'lsa-da, ish ku-



**Emiliano Sapata.**

nini 10 soatgacha cheklab qo‘ydi va ishlab chiqarishda jarima tizimini bekor qildi. Chet el kapitalini cheklashga va milliy iqtisodini himoya qilishga intildi.

**Uerta diktaturasi** AQSH Maderoning siyosatiga dushmanlik ko‘zi bilan qaradi va diktator Diasning maslakdoshi, general Uertani Maderoga qarshi gijgijlay boshladi. AQSHning qo‘llashidan ruhlangan Uerta 1913-yilda davlat to‘ntarishi o‘tkazdi. Madero otib tashlandi.

Uerta diktaturasi Meksikadagi ahvolni yanada og‘irlashtirdi. Faqat oddiy xalq emas, balki milliy burjuaziya va burjualashgan pomeshiklarning bir qismi ham Uertaga qarshi chiqdilar. Mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi. Milliy vatanparvar kuchlar general Uerta diktaturasini ag‘darib tashladilar.

**Meksika inqilobi** XX asr boshlarida Meksikada qudratli dehqonlar harakati boshlandi. Buning sababi—dehqonlarning yersizligi edi. Dehqonlar harakati inqilobga aylandi. Bu inqilob (1910—1917) Meksika tarixiga „burjua inqilobi“ nomi bilan kirgan. Mamlakat janubidagi dehqonlar harakatining rahbari Emiliano Sapata 1911-yilda o‘z agrar dasturini e‘lon qildi. Bu dastur hindulardan tortib olingan yerlarni ularga qaytarib berish, qolgan barcha yerlarni musodara qilish va ularni yersiz dehqonlarga bo‘lib berish kabi talablardan iborat edi.

Mamlakat shimolidagi dehqonlar harakati rahbari Fransisko Vilya bayrog‘iga „Yer va ozodlik“ shiori yozilgan edi. E. Sapata va F. Vilya qurolli kuchlari 1914-yilda mamlakat poytaxti Mexiko shahrini egalladi. Lekin, ko‘p o‘tmay, hukumat qo‘shini ularni chekinishga majbur etdi. 1917-yilga kelibgina dehqonlar qo‘zg‘oloni bostirildi. E. Sapata va P. Vilyalar turli yillarda yollangan qotillar tomonidan o‘ldirildi.

Dehqonlar qo‘zg‘oloni yengilgan bo‘lsa-da, izsiz ketmadi. Hukumat agrar masalani qisman bo‘lsa-da, hal etdi. Chunonchi, latifundistlar tomonidan noqonuniy bosib olingan yerlar dehqonlarga qaytarildi. Bundan tashqari, 1917-yilda demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi.



**Diktatura** (lotincha—cheklanmagan hokimiyat)— hech qanday qonun bilan cheklanmagan, zo‘rlikka tayanuvchi hokimiyat.

**Muxolifat**—amaldagi hukumat siyosatiga qarshi kuchlar.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. Lotin Amerikasining taraqqiyotda orqada qolib ketishining sabablarini qayd eting.
2. Kuba qanday holatda amalda AQSHga qaram bo'lib qoldi?
3. AQSH Lotin Amerikasi mamlakatlarini siyosiy va iqtisodiy qaramlikda tutish yo'lida qanday usullarni qo'llagan?
4. Meksikada diktatorlik rejimlarining nisbatan uzoq hukm surganligini qanday izohlaysiz?
5. 1910—1917-yillardagi Meksika inqilobining ahamiyatini qayd eting.
6. Bugungi Meksika Respublikasi haqida ma'lumot to'plang.

## **18-§. Lotin Amerikasining boshqa davlatlari**

### **Braziliyada qulchilikning bekor qilinishi**

Braziliya Janubiy Amerikadagi yirik davlatlardan biri bo'lib, unda 15 mln. aholi yashagan. Braziliya, ayni paytda, eng qoloq davlat ham edi. Braziliyada qulchilik, qashshoqlik, jaholat va huquqsizlik keng avj olgan edi. Qullarni sotadigan bozorlar, o'z oilasiga, o'z uyiga ega bo'lish huquqidan mahrum bo'lgan kishilarni sotish, zahmatkash qulni nazoratchilar tomonidan qamchilab ishlatish 1870—1880-yillarda odatiy hol edi.

Shunday bir sharoitda qullar ham o'z insoniy huquqlarini himoya qilishga majbur bo'lganlar. Chunonchi, qul Bonifatsio boshchiligidagi shakarqamish plantatsiyalarida ishlovchi qullar qo'zg'oloni buning dalilidir. Qullar o'zlarining qora tanlilar respublikasini e'lon qildilar va Bonifatsioni prezident etib sayladilar. Bonifatsio qurolli kurash orqali barcha qullarni ozod qilish zarur deb hisoblagan. Biroq, hukumat qo'shinlari Bonifatsio qo'shinini tor-mor etgan.

Qullikka qarshi kuchlar 1883-yilda qullarni qullikdan ozod qilishga chaqiruvchi „Ozodlik manifesti“ni e'lon qildilar.

Qulchilikka qarshi bo'lgan ayrim plantatorlar abolitsionistik harakatni qo'llab-quvvatladilar. Masalan, ulardan biri plantator Antonio Predo o'z qullarini ozod qilib yubordi. U davlat vaziri bo'lgach, qullarni ozod qilish haqida taklif kiritdi. Kasalligi uchun vazifasini bajara olmayotgan imperator Pedru II o'rnida vaqtincha davlatni boshqarib turgan malika Izabel 1888-yilda Braziliyada qullarni ozod qilish haqidagi „Oltin qonun“ nomi bilan mashhur qonunga qo'l qo'ydi. Mamlakatda bu paytda 750 ming qul bor edi.

## **Respublika e'lon qilinishi**

Qulchilik bekor qilingach, respublika uchun kurash kuchayib ketdi. 1889-yil Rio-de-Janeyroda respublika tarafdorlarining katta namoyishi bo'lib o'tdi. Namoyishda talabalar, hunarmandlar, savdogarlar qatnashdi. Bu namoyish respublika tuzumi tarafdori bo'lgan harbiylar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Oqibatda, 1889-yil 19-noyabrda Pedru II taxtdan voz kechib, Britaniya kemasida Portugaliyaga jo'nab ketdi. Hokimiyat harbiylar qo'liga o'tdi. Yangi hukumat mamlakatni Respublika deb e'lon qildi. 1891-yilda qabul qilingan yangi konstitutsiyaga binoan, mamlakat Braziliya Qo'shma Shtatlari deb ataladigan bo'ldi. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi e'lon qilindi. Yozish va o'qishni biluvchi fuqarolarga umumiy saylov huquqi berildi.

Mamlakatning iqtisodiy ahvoli og'ir edi. Bundan ingliz, fransuz, german va Shimoliy Amerika monopoliyalari foydalandilar. Ular hal qiluvchi tarmoqlarni egallab oldilar.

## **Argentinadagi ahvol**

Uzoq davom etgan ichki kurash, Paragvay bilan olib borilgan urush oqibatida Argentinada iqtisodiy hayot deyarli to'xtab qolgan edi.

Mamlakat hukumati ichki ahvolni barqarorlashtirish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Chunonchi, 1872-yilda Buenos-Ayresda milliy bank ochildi. Immigratsiya rag'batlantirila boshlandi. Natijada, qisqa davr ichida Argentinaga 300 000 kishi ko'chib keldi. Yevropadan kelganlar imtiyozli shartlar bilan davlatdan yer oldilar. Ko'plab shaharlar, yo'llar qurib, kengaytirildi. Maorif va ilm-fan tez rivojlana boshladi. Buenos-Ayresda piyoda askarlar va harbiy dengiz maktabi ochilib, harbiy ta'limga asos solindi.

1876-yil immigratsiya va kolonizatsiya to'g'risida qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra, hali aholi band qilmagan davlat yerlari 80 gektardan oshmaydigan maydonlarga bo'linib sotildi. Hindularning hosildor yerlari tortib olinib, ofitserlar va askarlarga bepul bo'lib berildi.

Hukumat, ayni paytda, chet el kapitali kiritilishini ham rag'batlantira bordi. Birgina Buyuk Britaniyaning kiritgan kapitali 1914-yilda 1,5 mln. dollarni tashkil etganligi bejiz emas edi.

Biroq, mehnatkashlarning ahvoli hamon yomonligicha qolmoqda edi. Oqibatda, ishchilar sinfi o'z haq-huquqlari uchun kurash boshladi. Ular 8 soatlik ish kunini talab qildilar. 1895-yilda Sotsialistik partiya tuzildi. Partiya diniy ta'limni bekor qilish,



yagona soliq joriy qilish, kasaba uyushmalarini birlashtirish va namoyishlarga ruxsat uchun kurash olib bordi. 18 yoshga toʻlgan erkak fuqarolarga (ruhoniy va harbiylardan tashqari) umumiy saylov huquqini berish toʻgʻrisida qonun chiqarilishiga erishildi.

### Markaziy Amerika- dagi ahvol

Markaziy Amerikada AQSHning taʼsiri tez surʼatlar bilan kuchayib bordi. Buning oqibatida, ichki kurashlar natijasida holdan toygan Gvatemala AQSHga qaram boʻlib qoldi.

Gonduras, Salvador va Nikaragua 1895—1896-yillarda yagona davlat — Buyuk Markaziy Amerika Respublikasiga birlashdilar. Aynan shu birlik AQSHni tashvishga solib qoʻydi. Chunki, AQSHga Markaziy Amerikada uning siyosatiga toʻgʻonoq boʻlishi mumkin boʻlgan davlatlar ittifoqi kerak emas edi. AQSH monopoliyalari bu mamlakatlardagi hukumatga muxolifatdagi guruhlariga tayanib Buyuk Markaziy Amerika Respublikasini tarqatib yuborishga erishdi.

1914-yil avgustida Panama kanali ochilgach, kanal zonasida Amerika gubernatori oʻziga boʻysunadigan yirik harbiy kuchlar bilan Markaziy Amerika mamlakatlariga xavf solib turdi.



**Abolitsionizm** (lotincha—yoʻqotish, bekor qilish) — qora tanlilarni qullikdan ozod qilish harakati.



### Savol va topshiriqlar

1. Braziliyada qulchilik qay tariqa barham topdi?
2. Braziliyada Respublika tuzumining oʻrnatilishi haqida soʻzlab bering.
3. Argentina hukumati mamlakatni ogʻir iqtisodiy holatdan olib chiqish uchun qanday choralar koʻrdi?
4. Markaziy Amerika davlatlari taraqqiyotiga xos asosiy ichki xususiyatlarni qayd eting.



Fikr yuriting: mamlakat va xalqlarni bir-biriga qarshi gijgijlash qanday oqibatlarga olib kelgan? Bizning davrimizda-chi?



AQSH bilan Panama Respublikasi oʻrtasida Panama kanali toʻgʻrisida tuzilgan shartnomadan. 1903-yil.

..., **2-modda.** Panama Respublikasi nomi tilga olingan kanalni qurish, saqlab turish, undan foydalanish, uni sanitariya holatiga keltirish hamda himoya qilish uchun 10 milyalik zona doirasidagi yerlar va

suv ostidagi inshootlardan foydalanish, ularni egallash va nazorat qilish huquqini Amerika Qo‘shma Shtatlariga abadiy topshiradi.

**3-modda.** Panama Respublikasi Amerika Qo‘shma Shtatlariga zonadagi barcha huquqlarni, vakolatlarni va butun hokimiyatni topshiradi...”

## **IV bob** XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA POD SHO ROSSIIYASI, MARKAZIY VA JANUBI-SHARQIY YEVROPA DAVLATLARI



### **XIX asr oxiri—XX asr boshlarida podsho Rossiyasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli**

#### **Rossiyaning siyosiy tuzumi**

Rossiya bu davrda cheklanmagan monarxiya bo‘lib, butun hokimiyat podsho qo‘lida to‘plangan edi. (Tarix kitoblarida podsho hokimiyatiga nisbatan „chorizm“, „samoderjaviye“ iboralari ham ishlatiladi.)

Podsho hokimiyatining asosiy tayanchi pomeshiklar hamda pravoslav cherkovi edi. Podsho xonadonining o‘zi eng katta pomeshik bo‘lib, 7 mln. desyatina (1 desyatina = 1,1 gektar) yerga egalik qilardi.

Pomeshik xo‘jaligi Rossiyaning kapitalistik taraqqiyoti yo‘lidagi asosiy to‘siq edi. Pomeshiklar jon-jahdlari bilan eski tartiblarning saqlanib qolishiga harakat qilar edilar.

Rossiyada burjuaziya sinfi ham bor edi. Ularning sarmoyalari hajmi tobora o‘sib bordi. Biroq, burjuaziyaning siyosiy nufuzi past, davlatni boshqarishdagi ishtiroki deyarli sezilmas edi.

#### **Iqtisodiy ahvol**

Rossiya agrar-industrial davlat edi. Mamlakat aholisining 85%i qishloqlarda yashardi. Shunday bo‘lsa-da, podsho Rossiyasida kapitalizm shiddat bilan rivojlanib bordi. Chet el kapitalining kirib kelishi tufayli og‘ir sanoat tezlik bilan ilgariladi. Uning metallurgiya, mashinasozlik, neft va ko‘mir qazib olish kabi tarmoqlari yuksala boshladi. Rossiya qisqa vaqt ichida neft qazib chiqarish bo‘yicha AQSHni ham ortda qoldirdi va dunyoda birinchi o‘ringa chiqdi. Chetga ko‘plab kerosin eksport qilindi. Metall eritish bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinni egalladi.

Rossiya iqtisodiy taraqqiyotiga xos yana bir xususiyat — monopoliyalarning vujudga kelganligi bo‘ldi. Chunonchi, Rossiya qora metallurgiyasida „Prodmets“, ko‘mir sanoatida „Produgol“ nomli yirik monopoliyalar vujudga keladi. Rangli metallurgiya sohasida „Med“ jamiyati (1907) hal qiluvchi mavqeni egallab oldi.

Rossiya iqtisodiy taraqqiyotiga xos yana bir xususiyat — chetga kapital chiqarishdan ko‘ra chetdan Rossiyaga kapital kiritishning ustunligi edi. Bu, bir tomondan, Rossiya kapitalizmining zaifligi oqibati bo‘lsa, ikkinchidan, Rossiyada chet el kapitaliga katta foyda keltiruvchi sohalarning, mintaqalarning ko‘pligi hamda arzon ishchi kuchining mavjudligi bilan ham izohlanardi.

Mamlakat sanoatiga qo‘yilgan chet el kapitalining asosiy qismi Fransiya kapitali edi.

Rossiya qishloq xo‘jaligi ham sekinlik bilan bo‘lsa-da, taraqqiy etdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishi ham o‘rdi. Asosiy eksport mahsuloti—g‘alla edi.

Rossiyada kapitalizm taraqqiy etishi bilan moliya kapitali ham vujudga keldi. „Peterburg xalqaro banki“, „Azov-Don“ va „Rus-Osiyo“ banklari mamlakat hayotida yetakchi rol o‘ynay boshladi.

Shunday bo‘lsa-da, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya iqtisodiy taraqqiyotda boshqa buyuk davlatlarga nisbatan orqada edi. Chunonchi, sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinda edi.

**Ichki siyosat** Rossiya imperiyasi tarkibida 100 dan ortiq millat va xalq yashar edi. Ularning hududlari turli asrlarda, turli tarixiy sharoitlarda Rossiya tomonidan istilo etilgan.

Istilo etilgan o‘lkalarda ruslashtirish siyosati olib borildi. Bosqinchilar zulmiga qarshi ko‘tarilgan milliy-ozodlik harakatlari esa ayovsiz bostirildi.

Binobarin, podsho Rossiyasida fuqarolarning katta qismi, shuningdek, mustamlaka xalqlari og‘ir hayot kechirardi. Bu esa qachondir katta portlash ro‘y berishiga olib kelishi shubhasiz edi. Buning ustiga, 1904-yildagi Rossiya—Yaponiya urushi xalq ommasining turmush darajasini yanada og‘irlashtirib yubordi. Oxir-oqibat, bu — 1905-yilda inqilob yuz berishiga olib keldi.

To'g'ri, inqilob yengildi. Hukmron tabaqalar bu inqilobdan zarur saboqlar ham chiqardi. Uning asosiysi—dehqonlarni inqilobiy harakatdan chetlatish haqidagi saboq edi. Ikkinchisi, qishloqlarda podsho hokimiyatining kuchli ijtimoiy tayanchini vujudga keltirish muammosi edi.

Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun agrar islohot o'tkazishga qaror qilindi. Podsho 1906-yilda agrar islohot o'tkazish va dehqonlarni ko'chirish to'g'risida farmon chiqardi. Bu islohot bosh vazir P.A. Stolipin tashabbusi bilan bog'liq bo'lganligi uchun u tarixga „Stolipin agrar islohoti“ nomi bilan kirgan. Unga ko'ra, dehqonlarning o'z xususiy yeriga ega bo'lishi masalasining quyidagi 3 usul orqali amalga oshirilishi mo'ljallandi:

— jamoa yer egaligini bekor qilish va dehqonlarga sotib olgan jamoa yerini xususiy mulkka aylantirish hamda dehqonga o'z yerini sotish huquqini ham berish;

— dehqonlarning davlat va pomesniklarga qarashli yerlarni sotib olishlari uchun ularga „Dehqonlar banki“ orqali yordam berish;

— yer tanqisligi kuchli bo'lgan markaziy mintaqalardagi dehqonlarning bir qismini Sibir, Turkiston, Uzoq Sharq va imperiyaning milliy chekka o'lkalariga ko'chirish.

Stolipin agrar islohoti qishloq aholisining tabaqalanishini va ichki bozorning o'sishini kuchaytirdi. Badavlat dehqonlar (qu-loqlar)ning mavqeyini mustahkamladi. Biroq, agrar islohot pomesnik yer egaligini tugata olmadi.

Bundan tashqari, ko'chib ketganlar yana avvalgi joylariga qayta ko'chib kelishga majbur bo'la boshladilar. Chunki ko'chirish moddiy jihatdan yetarli ta'minlanmadi. Buning oqibatida 1911-yilda ko'chib ketganlarning (ularning soni 3,5 mln. dan ortiq edi) yarmidan ko'pi qayta ko'chib keldi.

Shuningdek, ko'chirish siyosati milliy chekka o'lkalardagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Bunga chekka o'lkalardagi, xususan, Turkistondagi mahalliy aholiga qarashli eng yaxshi yerlarning ko'chib kelganlarga berilganligi, yerli aholining esa sharoiti og'ir yerlarga surib chiqarilganligi sabab bo'ldi.

Shu tariqa, Stolipin mamlakatni „tinchlantira“ olmadi. Hukmron tabaqalar uning iste'fo berishini talab eta boshladilar. Bunga

erishilmagach, 1911-yilda Stolipin otib o'ldirildi. Lekin, barcha nuqsonlariga qaramay, Stolipin agrar siyosati qishloqda kapitalizmning taraqqiy etishiga yo'l ochdi.



**Islohot** – biror sohadagi mavjud tartiblarni tubdan o'zgartirish.

**Agrar islohot** – yer-suv, yerga egalik va yer-suvdan foydalanishga oid tartiblarni qayta o'zgartirish.

**Chorizm** – Rossiya podshosining, monarxiyaning cheklanmagan hokimiyatini asoslagan davlat tuzumi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Rossiya siyosiy tuzumini Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya siyosiy tuzumi bilan taqqoslang.
2. Rossiya iqtisodiy taraqqiyotiga xos xususiyatlarni qayd eting.
3. Stolipin agrar islohoti mazmuni va oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?



## **20-§. Podsho Rossiyasining tashqi siyosati**

### **Podsho Rossiyasi mustamlakachi davlat**

Rossiya ham yirik mustamlakachi davlatlardan biri bo'lgan. Bosqinchilik urushlari yo'li bilan ulkan imperiya vujudga keltirildi. Ayni paytda, Rossiya mustamlakachilik

imperiyasi Buyuk Britaniya yoki Fransiya mustamlakachilik imperiyasidan farq qilardi.

Bu farq – Rossiya bosib olgan hududlarning imperiya tarkibiga bevosita qo'shib olinishida edi. Shu tufayli Rossiyaning okean yoki dengizorti mustamlakalari yo'q edi.

Chunonchi, O'rta Osiyoning bosib olingan qismi imperiya tarkibiga qo'shilib, bu hududda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganligi sizga „O'zbekiston tarixi“dan ma'lum.

Rossiya bosqinchilik siyosatining asosiy yo'nalishlari Bolqon, Uzoq Sharq, Qora dengiz bilan O'rtayer dengizini bog'lovchi Turkiyaga qarashli Dardanell va Bosfor bo'g'ozlari hamda O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish edi.

Rossiya XIX asrning 70-yillaridan keyin ham O'rta Osiyoda bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. 1873-yilda Xiva xonligi vassal davlatga aylantirildi. O'rta Osiyo 1885-yilda to'la bo'ysundirildi.

### **Rossiya—Turkiya urushi**

1875-yilda Bosniya va Gersegovinada Turkiya mustamlakachiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Ular milliy mustaqillik talab qildilar. Bolgariyada ham shunday qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq, qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi.

Bolqon inqirozi buyuk davlatlarning manfaatini yana bir bor to'qnashtirdi.

1876-yil Serbiya—Turkiya urushida Turkiyaning qo'li baland kela boshladi. Shunday sharoitda Rossiya Turkiyadan Serbiya bilan yarash bitimi imzolashni va armiyasini demobilizatsiya qilishni talab etdi. Biroq, Turkiya bu talabning bajarilishini paysalga soldi.

Nihoyat, Rossiya bu masalada Turkiyaga ultimatum topshirdi. Shu tariqa, Serbiya halokatdan saqlab qolindi.

Turkiya Serbiya bilan tinchlik shartnomasi tuzgan bo'lsa-da, o'z armiyasini demobilizatsiya qilmadi. Bu Rossiya uchun ayni muddao bo'ldi. Rossiya 1877-yilning 24-aprel kuni Turkiyaga urush e'lon qildi. Serbiya va Chernogoriya ham urush harakatlarida qatnashdi. Rossiya Turkiyaga katta talafot yetkazdi. 1878-yil yanvarda Rossiya armiyasi Adrianopolni ishg'ol qildi.

Rossiyaning muvaffaqiyatlari Buyuk Britaniyani tashvishga solib qo'ydi va u o'z harbiy kemalarini Marmar dengiziga kiritdi. Rossiya armiyasi Konstantinopol shahriga bostirib kirsam, Rossiya bilan diplomatik aloqasini uzishini ma'lum qildi.

### **San-Stefano shartnomasi**

1878-yilda San-Stefanoda Rossiya-Turkiya shartnomasi imzolandi. Shartnoma Bolqon yarimorolining siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunonchi, Bolgariya Turkiyaga nomigagina qaram, amalda esa mustaqil davlatga aylandi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya to'la mustaqil davlatlar deb tan olindi. Turkiyaning Rossiyaga katta miqdorda tovon to'lashi belgilandi.

Biroq, San-Stefano shartnomasini Buyuk Britaniya tan olmadi. U bu shartnomani qayta ko'rib chiqishni talab etdi. Germaniya va Avstriya-Vengriya ham bu talabga qo'shildilar. Yakkalanib qolgan Rossiya yangi xalqaro kongress — Berlin kongressi chaqirilishiga noiloj rozi bo'ldi.

### **Berlin kongressi**

Kongress 1878-yilning 13-iyunida ochildi. Unda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Italiya va Turkiya delegatsiyalari qatnashdi.

Kongressda „Berlin traktati“ deb nomlangan hujjat imzolandi. Bu hujjat Rossiyaning San-Stefano shartnomasi natijasida qo‘lga kiritgan katta muvaffaqiyatlarining ahamiyatini kamaytirib yubordi. Chunonchi, Buyuk Britaniya harbiy kemalari Qora dengizga kirish huquqiga ega bo‘ldi, Kipr oroli Buyuk Britaniyaga, Bosniya va Gersegovina Avstriya-Vengriyaga in‘om etildi. Bolgariya ikkiga bo‘lib yuborildi. Ayni paytda, Turkiya to‘lashi lozim bo‘lgan tovonning katta qismi evaziga Rossiyaga Kavkazning Botumi, Kars va Ardagan hududlari berildi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiyaning davlat mustaqilligi tan olindi.

**Uzoq Sharq siyosati** Rossiya savdo-sanoat doiralari Uzoq Sharqning qo‘lga kiritilishidan manfaatdor edilar. Shuning uchun ham Amurbo‘yi va Primorye o‘lkasini bosib oldi.

Shu sababli Rossiya Yaponiya bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga intildi. AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiyaning Yaponiyaga qarshi qaratilgan harbiy ekspeditsiyalarida ishtirok etmadi. 1875-yilda Yaponiya hukumati Janubiy Saxalinga bo‘lgan da‘vosidan voz kechish sharti bilan Kuril orollarining shimoliy qismini Yaponiyaga berilishi to‘g‘risida shartnoma tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

**O‘rta Osiyo masalasida qarama-qarshiliklar** 70-yillarda podsho hukumati bilan Britaniya hukumati o‘rtasida O‘rta Osiyodagi ta‘sir doiralarini aniqlash uchun muzokaralar boshlandi va bu 1873-yil bitim tuzish bilan yakunlandi. Unga ko‘ra, Rossiya Afg‘onistonni o‘z ta‘siridan tashqari, deb tan oldi. Buyuk Britaniya esa Xivaga da‘vo qilmaydigan bo‘ldi.

1878-yilda Buyuk Britaniya Afg‘onistonga qarshi yangi bosqinchilik harakatlarini boshladi. Biroq, afg‘on xalqi bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Qo‘zg‘olonga Afg‘onistonning Rossiya ta‘sirida bo‘lgan siyosiy arbobi Abdurahmon boshchilik qildi. Qo‘zg‘olonchilar tez orada inglizlar ustidan g‘alaba qozondilar. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng Buyuk Britaniya hukumati Abdurahmonni Afg‘oniston amiri deb tan olishga majbur bo‘ldi.

O‘zining strategik maqsadiga erishgan Rossiya hozirgi Turkmaniston hududlarini bosib olishga kirishdi. 1880-yilda Rossiya qo‘shinlari general Skobelev boshchiligida yurish boshladi. 1881-yilda shiddatli janglardan keyin Ko‘ktepa qal‘asi egallandi. Ayni paytda, turkman qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklar, ularning yagona kuch sifatida birlasha olmaganliklari ham Rossiyaga juda qo‘l keldi.



Natijada, 1885-yilda Kushka shahri bosib olindi. Shundan soʻng Buyuk Britaniya va Rossiya oʻrtasida Afgʻonistonning taqdiri va uning chegarasini belgilash masalasi hal etildi. 1891-yilda Rossiya bosib olgan Oʻrta Osiyo hududi va Afgʻoniston oʻrtasidagi chegaraning Pomirdan oʻtishi haqidagi shartnoma imzolandi.

### **Rossiya—Yaponiya urushi**

Rossiya—Yaponiya munosabatlari Xitoy va uning provinsiyasi Manjuriya tufayli tobora keskinlashdi. Ertami-kechmi bu ikki davlat oʻrtasida urush kelib chiqishi muqarrar boʻlib qoldi.

Buni yaxshi anglagan Yaponiya endi buyuk davlatlar bilan yaqinlashish yoʻllarini izlay boshladi. Va, nihoyat, 1902-yilda Yaponiya-Buyuk Britaniya bitimi imzolandi. Ular har qanday sharoitda ham bir-birini qoʻllab-quvvatlashga kelishib oldilar.

AQSH Yaponiyani Rossiyaga qarshi urushga tayyorlanishga ragʻbatlantira boshladi. Harbiy jihatdan urushga tayyor boʻlgan Yaponiya floti 1904-yilda urush eʻlon qilmay turib, Port-Arturdagi Rossiya harbiy dengiz kuchlariga hujum qildi va unga katta talafot yetkazdi (ilovaga qarang).

Rossiya harbiy-iqtisodiy jihatdan urushga tayyor emas edi. Buning oqibatida ham dengizda, ham quruqlikda magʻlubiyatga uchradi. Nihoyat, Port-Artur taslim boʻldi. 1905-yilda Susima yonida rus floti yakson qilindi. Shu tariqa deyarli butun Tinch okean floti halokatga uchradi.

Shunday sharoitda Rossiyaning Yaponiya bilan tinchlik shartnomasini imzolashdan boshqa iloji qolmadi.

AQSH vositachiligida 1905-yilning 23-avgustida shunday shartnoma imzolandi.

Shartnomaga koʻra, Rossiya Koreyani Yaponiya taʻsir doirasi deb tan oldi.

Yaponiya Port-Arturni ijaraga olish huquqiga ega boʻldi. Saxalin orolining janubiy qismi Yaponiyaga berildi.



**Demobilizatsiya** — harbiy xizmatdan boʻshatish.

**Traktat** — xalqaro shartnoma, bitim.

**Ultimatum** — bir davlatning ikkinchi davlatga qoʻyadigan qatʻiy talabi.





### **Savol va topshiriqlar**

1. Rossiya mustamlakachilik imperiyasi boshqa imperiyalardan qay jihati bilan farq qilgan?
2. Rossiyaning manfaatlari eng ko'p darajada to'qnashgan davlatlardan biri Turkiya bo'lganligini qanday omillar bilan izohlaysiz?
3. 1877—1878-yillardagi Rossiya—Turkiya urushi va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Rus—Yapon urushi oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi?



Germaniya birlashgandan keyin yagona ichki bozorning vujudga kelganligi uning gurkirab rivojlanishiga olib keldi. Rossiya esa bir necha asrlar davomida yaxlit davlat bo'lsa-da, iqtisodiy jihatdan qoloqligicha qolaverdi. Buni qanday izohlay olasiz?

## **21-§. Rossiyada Davlat dumasining tashkil etilishi**

### **Ijtimoiy harakat**

Rossiya aholisining turmush darajasi G'arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan juda past edi. Bu hol mamlakatda chuqur iqtisodiy-siyosiy islohotlar o'tkazilishini talab qilishga qodir konstitutsiyaviy muxolifatning yo'qligi oqibati edi. Mavjud hukmron tuzum esa chuqur ijtimoiy islohotlarning ashaddiy dushmani edi.

Korxonalarda ish vaqti o'rta hisobda 12—14 soat davom etar edi. Fabrikaga yollangan ishchi xo'jayin do'konidan mahsulotni nasiyaga olishga majbur edi. Do'kon korxonaga egalari uchun ishchilarni qo'shimcha ekspluatatsiya qilish vositasi vazifasini bajargan.

Milliy chekka o'lkalarda ishchilar ayniqsa og'ir va huquqsiz ahvolda edilar.

Jamiyatda mavjud tuzumni o'zgartirish haqida o'ylovchi turli guruhlar, uyushmalar yo'q emas edi. Ularning biri — G.V. Plexanov rahbarlik qilgan „Mehnatni ozod qilish“ guruhi edi. Bu guruh 1883-yilda tuzildi. G.V. Plexanov ishchilar sinfini inqilobiy kuch deb hisoblagan. Lekin hokimiyatni qurolli qo'zg'olon yo'li bilan bosib olishga qarshi edi. U jamiyatni islohotlar yo'li bilan yangilash tarafdori edi.

1895-yilda Peterburgda „Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi“ tuzildi. 1898-yilda Rossiyadagi barcha sotsial-demokratik guruhlar „Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi“

(RSDRP) deb atalgan partiyaga birlashdilar. 1903-yildan boshlab bu partiyaga rahbarlik V.I. Ulyanov (Lenin) qo‘liga o‘tdi. U RSDRPdagi bolsheviklar deb atalgan oqimga yetakchilik qildi.

Bolsheviklar Rossiyada xususiy mulk mutlaqo bo‘lmaydigan, jamiyat a‘zolari ezuvchi va eziluvchilarga bo‘linmaydigan, davlat hokimiyati, asosan, ishchilar sinfi qo‘lida bo‘ladigan, barcha mulk davlatniki hisoblanadigan jamiyatni qurmoqchi edilar.

Bunday jamiyatni qurish uchun mavjud tuzumni ishchilarning qurolli qo‘zg‘oloni (aslida davlat to‘ntarishi) orqali ag‘darib tashlash g‘oyasini targ‘ib etganlar.

### **1905-yil inqilobining boshlanishi**

1905-yilning 9-yanvar kuni Rossiya tarixida birinchi inqilob boshlandi. Bu inqilob Rossiya mehnatkashlarining og‘ir turmushi Rus—Yapon urushi natijasida yanada yomonlashib ketishi oqibatida yuz berdi.

Podshoning „odilligi“ga hali ham ishongan Peterburg ishchilaridan 250 ming kishi 9-yanvar, yakshanba kuni o‘z iltimoslarini podshoga bildirish uchun tinch namoyishga chiqdilar. Iltimosnomada Ta’sis majlisi chaqirish, demokratik erkinliklar berish, 8 soatlik ish kuni joriy etish kabilar ilgari surilgan edi.

Biroq, podsho tinch namoyishni o‘qqa tutishni buyurdi. Bu voqea Rossiya tarixiga „qonli yakshanba“ nomi bilan kirgan. Peterburgdagi „qonli“ voqealarga javoban Moskva, Riga, Varshava, Boku va boshqa shaharlarning ishchilari ish tashladilar, namoyishlar boshlandi.

Mamlakatda dehqonlar harakati ham boshlandi. Inqilobiy harakat, hatto ayrim harbiy qismlarga ham ta’sir ko‘rsatdi. Chunonchi, Qora dengiz flotiga qarashli „Potyomkin“ bronenosesi matroslari 1905-yilning yozida qo‘zg‘olon ko‘tardilar.

**Rossiyada parlamentning tashkil etilishi** Inqilobiy harakatning bunday tus olishi podsho Nikolay II ni yon berishga majbur etdi. 17-oktabr kuni podsho Manifest e‘lon qildi. Unda vijdon, so‘z, matbuot erkinligi, yig‘ilish o‘tkazish va turli ittifoqlar tuzish huquqi, shuningdek, qonun chiqaruvchi hokimiyat—Davlat dumas (parlament)ni joriy etish va‘da qilindi.

Hukumat 1905-yilning dekabrda Davlat dumasiga saylov to‘g‘risida qonun qabul qildi. 1906-yil 27-aprelda 1-Davlat dumas o‘z ishini boshladi. Unda 448 deputat qatnashdi. Duma faoliyati-

dagi asosiy masala agrar masala edi. Deputatlarning 1/4 qismiga yaqini dehqonlar vakillaridan iborat edi. Ular Dumada „Trudoviklar“ („Mehnat guruhi“) fraksiyasini tashkil etdilar. „Trudoviklar“ hamma yerlarning dehqonlar o‘rtasida taqsimlanishini taklif etdilar. Bu amalda pomeshik yer egaligining tugatilishini anglatar edi.

Podsho esa Dumadagi vaziyatdan tashvishda edi. Duma podsho o‘ylagandek yuvosh bo‘lib chiqmadi. Shuning uchun Nikolay II Dumani tarqatib yubordi.

1907-yilning yanvarida 2-Davlat dumasiga saylov o‘tkazildi. Bu Dumada ham agrar masala asosiy masala bo‘ldi.

Agrar masala xususida Duma hukumat loyihasini tasdiqlamadi. Tez orada, hukumat, Dumadagi sotsial-demokratlarga davlat to‘ntarishi tayyorlamoqda, deb ayb qo‘ydi va ularni Duma tarkibidan chiqarishni talab etdi. Bu talabga javob berishning cho‘zilib ketganligi bahonasida Nikolay II 3-iyunda yana Dumani tarqatib yubordi. Shu tariqa birinchi rus inqilobi mag‘lubiyat bilan tugadi. 1905-yilgi saylov to‘g‘risidagi qonun bekor qilindi.

### **Saylov to‘g‘risidagi yangi qonun**

1907-yil 3-iyunda saylov to‘g‘risidagi yangi qonun qabul qilindi. Yangi qonun o‘zida hukmron tabaqa manfaatini to‘la darajada aks ettirdi. Chunonchi, bir pomeshikning ovozi 4 ta yirik burjuaziya vakilining, 260 nafar dehqonning va 543 nafar ishchining ovozigacha teng edi. Shu tariqa, 3-Dumaga saylangan 442 nafar deputatning 202 nafari pomeshiklarning vakillari bo‘ldi.

Ayni paytda, Rossiya parlamenti ikki palatali parlamentga aylandi. Davlat Kengashi parlamentning yuqori palatasi vazifasini bajardi. Davlat Kengashi a‘zolarining 50 foizini podsho tayinlar edi. Hukumat podsho oldida javobgar edi. Unga „veto“ huquqi berildi. Sirdan qaraganda Rossiya konstitutsiyaviy monarxiyaga aylangandek edi. Aslida, podsho hokimiyati cheklanmaganligicha qolaverdi. Bu ham Rossiya ijtimoiy-siyosiy hayotining o‘ziga xos bir xususiyati edi.

Birinchi rus inqilobi izsiz ketmadi. Chunonchi, ishchilarga kasaba uyushmalariga birlashish huquqi berildi. Ish tashlaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish, dehqonlarning esa yer uchun haq to‘lashlari bekor qilindi. Podsho hokimiyati izmida bo‘lsada, vakolatli muassasa—parlament joriy etildi.



**Manifest** (lotincha) — hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati.

**Fraksiya** (fransuzcha-lotincha) — parlament deputatlarining biror siyosiy partiyaga mansub guruhi.

**Ekspluatatsiya** (fransuzcha) — mulkdorlarning boshqalar mehnati mahsulini o'zlashtirib olishi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Rossiyadagi ijtimoiy harakatning o'ziga xos xususiyatini qayd eting.
2. Bolsheviklarning jamiyatni qayta qurish haqidagi ta'limotini bugungi kun nuqtayi nazaridan baholang.
3. 1-rus inqilobining sabablari va oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Rossiyada Davlat dumasi (parlament) qay tariqa vujudga keldi?



Bugungi Rossiya Federatsiyasi Davlat dumasi haqida ma'lumot toping.



## **XIX asr oxiri—XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasi**

### **Siyosiy tuzum**

Avstriya-Vengriya imperiyasi 1867-yilda Avstriya va Vengriyaning hukmron tabaqalari o'rtasidagi bitim asosida vujudga keldi.

Imperiyaning Avstriya qirolligi tarkibiga Chexiya, Moraviya, Galitsiya va Bukovina, Vengriya tarkibiga esa Slovakiya, Xorvatiya va Transilvaniya kirgan.

Shu yilning o'zida imperiyaning yangi konstitutsiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, imperiyaning umumiy hukmdori Avstriya imperatori bo'lgan. Imperator Gabsburglar sulolasi vakili edi. Sulola imperiyani 1867-yildan 1918-yilgacha boshqargan. Imperiya tashkil etilgan paytda imperator Frans Iosif II edi.

Avstriyada imperator hokimiyati rasman Reyxstag, Vengriyada esa Seym tomonidan cheklangan. Binobarin, Avstriya-Vengriya konstitutsiyaviy monarxiya edi.

Imperiya tashkil etilgach, quyidagi 3 ta umumimperiya vazirligi tashkil etilgan: 1. Tashqi ishlar. 2. Harbiy va dengiz. 3. Moliya. Boshqa vazirliklar imperiyaning har ikki qismida ham mustaqil faoliyat yuritganlar. Vengriya o'z parlamentiga, ijroiya hoki-

miyatiga, siyosiy va ma'muriy muxtoriyatiga ega bo'lgan. Imperiya aholisining aksariyatini bo'ysundirilgan slavyan xalqlari tashkil etgan.

### **Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti**

XIX asrning so'nggi choragida Avstriya-Vengriya Yevropaning rivojlangan davlatlariga nisbatan qoloq mamlakat edi.

Mamlakatda o'rta asr feodalizm sarqitlarining saqlanib qolganligi ilg'or Yevropa mamlakatlariga nisbatan sanoat taraqqiyoti sekinlashuviga sabab bo'ldi.

1890-yillarda shahar aholisi butun Avstriya-Vengriya aholisining faqat uchdan birini tashkil qilardi. Hatto imperiyaning eng rivojlangan qismi bo'lgan Avstriyada ham qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etar edi.

1867-yilda tuzilgan Avstriya-Vengriya bitimi Vengriyaning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun ma'lum turtki bo'ldi. Vengriya ko'miri bazasida sanoatning metallurgiya tarmog'i rivojlana boshladi. Lekin, Vengriyaning asosiy sanoat tarmog'i oziq-ovqat sanoati bo'lib qolaverdi. 1898-yilda Vengriyaning ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari imperiyada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yarmini tashkil etgan.

Imperiyaning industrial tumanlari Quyi Avstriyada va Chexiyada ishlab chiqarishning markazlashuvi va monopoliyalarning vujudga kelish jarayoni jadallik bilan bordi.

XX asr boshlariga kelib ssuda kapitali, asosan, Venadagi yirik banklarda to'plandi. Mamlakat hayotida moliya oligarxiyasining ta'siri kuchayib bordi.

Ayni paytda, imperiya taraqqiyotining o'ziga xos yana bir xususiyatini — uning chet el kapitaliga qaramligi kuchayib borganligi tashkil etdi. Fransiya, Belgiya, Germaniya banklari qarz berish, sanoatga mablag'lar yo'naltirish orqali Avstriyani o'z kapitallari bilan to'ldirib tashladi.

Avstriya-Vengriya sanoatining metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va shu kabi tarmoqlari Germaniya firmalari tomonidan moliyaviy jihatdan ta'minlanib turildi. Nemis kapitalining to'qimachilik va mashinasozlik korxonalarida ham mavqeyi yuqori edi. Nemis kapitali qishloq xo'jaligiga ham suqilib kirdi. Avstriyaning 200 000 gektar yeri nemis pomesliklariga tegishli edi.

### **Ijtimoiy harakat**

Imperiya mehnatkashlari o'z haq-huquqlari uchun kurash olib borganlar. Chu-

nonchi, 1869-yilda imperiya poytaxti Vena shahrida ishchilarning ommaviy namoyishi o'tkazildi. Namoyishchilar demokratik erkinliklar berilishini talab qildilar.

Hukumat bunga javoban, Avstriya ishchilar harakatining rahbarlarini davlatga xiyonatda aybladi. Sud ularni uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etdi.

Avstriya hukumati ham Bismarkdan o'rnak olib, 1884-yilda ishchilar harakatiga qarshi „favqulodda qonun“ joriy etdi. Qonun ishchilar harakatiga qarshi politsiya terrorining kuchaytirilishiga ruxsat berdi. 80-yillar oxiriga kelib, kasaba uyushmalari tarqatib yuborildi. Ishchi gazetalarini nashr etish to'xtatildi. Shunday bo'lsa-da, ishchilar kurashni davom ettirdilar. 1889-yilda esa Avstriya sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) tuzildi.

Partiya dasturida siyosiy erkinliklarni joriy etish, parlamentni umumiy, teng, to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylash to'g'risida qonun qabul qilish, cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish, ish kunini qisqartirish kabi talablar bor edi.

Ishchilar harakati tobora kuchayib boravergach, 1907-yilda hukumat saylov tizimi islohoti haqida qonun qabul qilishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, 24 yoshli erkaklar saylash va saylanish huquqiga ega bo'ldilar.

### **Milliy-ozodlik harakati**

Imperiyada har qanday sharoitda ham slavyan xalqlarining mustamlaka holatini saqlab qolishga intiluvchi shovinistik kayfiyatdagi kuchlar ham o'z siyosiy partiyalarini tuzdilar. Bu partiyalardan biri Pangerman partiyasi, ikkinchisi esa Xristian sotsialistlar partiyasi deb ataldi.

Ko'proq avstriyalik katoliklardan iborat bo'lgan Xristian sotsialistlar partiyasi arboblari „Buyuk Germaniya“ g'oyasini sinfiy tinchlikni targ'ib qilish, barcha ijtimoiy nizolarni „inoqlik va muhabbat ruhida“ hal qilishga da'vat qilish va antisemitizmni targ'ib qilish bilan qo'shib olib bordilar. Biroq, hukmron doiralarda slavyan xalqining milliy-ozodlik harakatini to'xtata olmadilar.

Chex muxolifati Chexiyaga ham siyosiy huquqlar berilishini talab qildi. Hukumat bunga javoban ta'qib choralarini kuchaytirib yubordi. 1868-yil hatto Chexiyada qamal holati joriy qilindi. Biroq, bu usul chex muxolifatini „sindira“ olmadilar. Kurash davom etdi, nihoyat, 1880-yilda Chexiyada sud va ma'muriy ishlar uchun ikki til joriy qilindi. 1882-yildan boshlab, Praga universitetida ham o'qitish ikki tilda (nemis va chex) olib boriladigan bo'ldi.



Galitsiyadagi ukrain va polyak aholisi ham milliy zulm ostida edi. Avstriya hukumati Galitsiyadagi hukmron doiralar bilan bitim tuzib, o'lkani idora qilishda ularga rahbarlik rolini berdi.

XIX asrning so'nggi o'n yillarida milliy zulm yanada kuchaydi. Zakarpatyedagi ukrain aholisi „vengrlashtirildi“. Xorvatiya doimo harbiy yoki favqulodda holatda tutildi, xalq noroziligi qattiq ta'qiblar bilan shafqatsiz bostirildi.

Xorvatiyadagi milliy-ozodlik harakatiga Vengriya hukumati 1912-yilda Xorvatiya Seymini tarqatib yuborish va konstitutsiyani to'xtatib qo'yish bilan javob berdi.

**Iqtisodiy inqiroz** 1912-yilda Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Oqibatda, yirik sanoat va savdo korxonalarini sindi. Imperiya eksport salohiyati keskin kamaydi. Bu esa iqtisodiy inqirozni yanada chuqurlashtirib yubordi. Mehnatkash xalq ommasining turmush darajasi pasaydi. Imperiya hukmron tabaqalari milliy zulmni yanada kuchaytirdilar. Oqibatda, iqtisodiy va milliy-ozodlik kurashi keskinlashdi.

Imperiyadagi og'ir vaziyatga qaramay, Vengriya hukmron doiralari Avstriyaning Bolqondagi bosqinchilik siyosatida faol qatnasha boshladi. Hatto, armiya qaytadan tuzildi. Bu — imperiyaning urushga tayyorgarlik ko'rayotganligini anglatar edi.

Mamlakatni harbiylashtirishga, urushga tayyorgarlik ko'rila-yotganligiga va milliy zulmga qarshi Vengriyaning asosiy shahri Budapesht shahrida ko'p ming kishilik namoyish o'tkazildi.

Umumiy norozilik yalpi ish tashlashlarga olib keldi. Namoyishchilarga qarshi politsiya kuchlari yuborildi. Oqibatda, Budapesht barrikadalarga to'lib ketdi. Kuchlar nisbati teng emas edi. Shuning uchun ham ishchilar namoyishni to'xtatishga majbur bo'ldilar.

Ijtimoiy harakat va imperiya tarkibidagi slavyan xalqlarining milliy-ozodlik uchun kurashi Avstriya-Vengriya imperiyasi chuqur inqiroz davriga kirganligini ham anglatar edi.

Shunday bir sharoitda, ayrim siyosatchi arboblarning *trializm* (uchlik) talabi bilan chiqdilar. Trializm g'oyasi imperiyani Avstriya, Vengriya va imperiya tarkibidagi slavyan xalqlari yerlarini o'z ichiga oluvchi, har uch tomonni teng huquq asosida birlashtiradigan federatsiyaga aylantirish, degani edi. Biroq, federatsiyaning slavyan qismi kuchayib ketishidan cho'chigan hukmron doiralar trializm g'oyasini rad etdilar.

Bu hol Birinchi jahon urushi arafasida imperiyada ichki ziddiyatlarning keskinligicha qolishiga sabab bo'ldi.



**Federatsiya** (lotincha — ittifoq) — hududiy jihatdan muayyan siyosiy mustaqillikka ega bo‘lgan bir necha davlatlardan iborat yagona ittifoq davlat.

**Ssuda** — moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to‘lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Avstriya-Vengriya va Germaniya imperiyalarining siyosiy tuzumini taqqoslang.
2. Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolishiga sabab bo‘lgan omillarni izohlab bering.
3. Ijtimoiy harakat nima va u Avstriya-Vengriyada qanday kechdi?
4. „Milliy-ozodlik harakati“ tushunchasiga izoh bering. Avstriya-Vengriyada milliy-ozodlik harakati juda keskin kechganligining sabablari nimalardan iborat edi?



## **Avstriya-Vengriya imperiyasining tashqi siyosati**

### **Germaniya bilan yaqinlashuv**

Avstriya-Vengriya imperiyasi tashqi siyosatining markazida, asosan, Bolqon yarim-oroli yotgan. Shuning uchun u Bolqonda egallab olgan slavyan xalqlari yerlarida mustahkam o‘rnashib olishga, Rossiyaning Bolqon yarimorolidagi ta’sirini keskin kamaytirishga jon-jahdi bilan harakat qilgan.

Avstriya-Vengriyaning yakka o‘zi bu vazifaning uddasidan chiqqa olmas edi. Shuning uchun ham u Germaniya bilan yaqinlashdi. O‘z navbatida, Germaniya ham bu yaqinlashuvdan manfaatdor edi. Chunki, bu davrda Germaniya buyuk davlatlar o‘rtasida bo‘linib bo‘lgan dunyoni yana qayta bo‘lishga intilayotgan edi. Bu maqsadning ro‘yobga chiqishi uchun Germaniyaga, albatta, ittifoqchi zarur edi. Natijada, 1879-yilda bu ikki imperiya o‘rtasida ittifoq shartnomasi tuzildi.

### **Avstriya-Vengriya va Rossiya munosabatlari**

Bu ikki imperiya, asosan, Bolqon yarim-orolidagi yerlarga ko‘z tikkandi. Avstriya-Vengriya bu yerda slavyan xalqlarini o‘ziga bo‘ysundirishga, ularning mamlakatlarini esa mustamlakaga aylantirishga urinardi. Ayni paytda, Bolqonda Turkiya katta mustamlaka hududlariga ega edi.

Slavyan xalqlari o‘z milliy-ozodliklari uchun doimiy kurash olib borgan. Bu kurashda ular Rossiyaga tayangan. Rossiya slavyan

xalqlarining milliy-ozodlik kurashini qo‘llab-quvvatlash barobarida o‘zi ham Bolqonda mustahkam o‘rnashib olishga intilgan.

Binobarin, bu uch imperiyaning manfaatlari Bolqonda surunkali to‘qnashib turgan.

Avstriya-Vengriyaning Bolqonga nisbatan yuritgan siyosati Rossiya bilan munosabatlarining yomonlashuviga olib kelgan. Bu ikki imperiya o‘rtasida qachonlardir urush chiqishi muqarrar edi.

1878-yilda bo‘lib o‘tgan Berlin kongressida Avstriya-Vengriya Bolqondagi Bosniya va Gersegovinani bosib olish huquqini qo‘lga kiritdi. Uning maqsadi bu hududni qulay imkoniyat tug‘ilishi bilanoq bosib olish edi. Nihoyat, 1908-yilda Avstriya-Vengriya o‘z maqsadini amalga oshirdi. Bu esa Avstriya-Vengriya va Rossiya munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi.

Ayni paytda, bu hodisa slavyan xalqlari orasida Rossiya obro‘sigam ham putur yetkazdi. Chunki, Rossiya Avstriya-Vengriya istilosining oldini ola olmadi. Bunga Germaniyaning Avstriya-Vengriyani qo‘llab-quvvatlashi, uning Rossiyaga qarshi urush e‘lon qilishi mumkinligi haqidagi do‘q-po‘pisalari sabab bo‘ldi.

### **Avstriya-Vengriyaning urushga tayyorgarlik ko‘rishi**

Turkiya va Italiya manfaatlarining Shimoliy Afrikada to‘qnashuvi, oxir-oqibatda, 1911-yilda ular o‘rtasida urush kelib chiqishiga olib keldi. Bu urushda Turkiyaning yengilishi uni yanada zaiflashtirdi. Bu omil janubiy slavyan xalqlarining Turkiya zulmidan ozod bo‘lishlari uchun olib borilayotgan kurashlarining yanada kuchayishiga qulay sharoit yaratgandi.

Bu qulay sharoitdan foydalangan Bolqonning mustaqil davlatlari Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya va ularga qo‘shilgan Gretsiya tez orada Bolqon ittifoqini tuzdilar. Ittifoq 1912-yilda Turkiyaga qarshi urush boshladi. Bu urush tarixga „Birinchi Bolqon urushi“ nomi bilan kirgan. Bu urush Bolqon slavyanlari va greklarning Turkiya hukmronligidan ozod bo‘lishi bilan tugadi. Biroq, ittifoqchilar Turkiyadan ozod etilgan hududlarni bo‘lish masalasida o‘zaro kelisha olmadilar. Bunga Bolgariyaning hammadan ko‘p ulush olishga urinishi sabab bo‘ldi. Uning da‘volari Avstriya-Vengriya tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Avstriya-Vengriya shu yo‘l bilan Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya madadiga tayanayotgan Bolqon ittifoqini buzib yubormoqchi edi. Chunki, bu ittifoqning mavjudligi Avstriya-Vengriyaga Bolqonda mustahkam o‘rnashib olishga imkon bermas edi.

Avstriya-Vengriya o'z maqsadiga erishdi ham. Oqibatda, 1913-yilda Bolgariya Serbiya va Gretsiyaga hujum qildi. Shu tariqa, Ikkinchi Bolqon urushi boshlanib ketdi. Bu urushda Chernogoriya va Ruminiya Serbiya va Gretsiyaga yordam berdi. Kechagi umumiy dushman — Turkiya ham Bolgariyaga qarshi urushda qatnashdi.

Ikkinchi Bolqon urushida Bolgariya yengildi va qo'lga kiritilgan hududlarining bir qismini yo'qotdi.

Urush natijasida Serbiya Bolqonning yetakchi davlatiga aylandi. Endi, Avstriya-Vengriya va Germaniya o'z oldilariga kuchayib borayotgan Serbiyani yanchib tashlash va shu orqali Rossiyaning Bolqondagi ta'siriga putur yetkazish maqsadini qo'ydilar.

Avstriya-Vengriyaning maqsadlari uni tashqi siyosatda Germaniyaga mutlaq qaram qilib qo'ydi.

Avstriya-Vengriya urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Mamlakatda qisman safarbarlik ham o'tkazildi. 1914-yilda esa parlament tarqatib yuborildi. Ana shunday qaltis vaziyatda, serb millatchilari tomonidan 1914-yil 28-iyulda Avstriya-Vengriya taxti vorisi Frans-Ferdinandning o'ldirilishi Avstriya-Vengriya hukmron tabaqalarining urushni boshlab yuborishlari uchun bahona bo'ldi. Mamlakatda harbiy diktatura o'rnatildi.



**Harbiy diktatura** — harbiylarning cheklanmagan hokimiyati.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Avstriya-Vengriya nega Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi?
2. Avstriya-Vengriya va Rossiya munosabatlari qanday kechdi?
3. Bolqon urushi haqida nimalarni bilib oldingiz?



Bolgariya misolida kecha ittifoqdosh bo'lgan davlatlarning bugun birdaniga dushmanga aylanib qolishi mumkinligini qanday izohlaysiz?

## **24-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Italiya**

### **Italiyaning siyosiy tuzumi**

Fransiyaning Prussiya bilan urushda yengilishi Italiyani to'la birlashtirish yo'lidagi oxirgi to'siqni bartaraf etishga imkon berdi.

1870-yilning 3-oktabrida Fransiya qo'shini himoyasida bo'lgan italyan qo'shini tomonidan egallangan Rim shahri Italiya qirolligi

poytaxtiga aylantirildi. Papa hokimiyati Vatikan saroyi bilan cheklab qo'yildi. Bungacha papa Piy IX Rim shahrining Italiyaga qo'shilishiga qarshilik qilayotgan va uni Fransiya armiyasi himoya qilayotgan edi.

Italiya siyosiy tuzumiga ko'ra konstitutsiyaviy monarxiya bo'lib qoldi. Konstitutsiyaga binoan, ikki palatali (Senat va deputatlar palatasi) parlament tashkil etildi. Qirol Viktor Emmanuil II qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament bilan bo'lib oldi. Senatorlar qirol tomonidan umrbod muddatga tayinlanar edi. Ijro etuvchi hokimiyat Bosh vazir qo'lida to'plandi.

Konstitutsiyada barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, uy-joy daxlsizligi, so'z va matbuot erkinligi, yig'ilish o'tkazish huquqi e'tirof etildi. Xristian dinining katolik oqimi yagona din bo'lib qoldi. 1871-yilda cherkov va davlat munosabatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi. Qonun Rim papasini muqaddas va daxlsiz deb e'lon qildi va uning qarorgohi joylashgan shahar-davlat — Vatikanga boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabat o'rnatish huquqi berildi.

### Iqtisodiy ahvol

Italiyaning milliy davlat bo'lib birlashtirilishi mamlakatda kapitalistik tuzumni barqaror qilish jarayonini tezlashtirish uchun qulay sharoit yaratib berdi. Biroq, Italiya hamon agrar davlatligicha qolmoqda edi.

Yerga, asosan, yirik zamindorlarning egalik qilishi saqlanib qoldi. Buning ustiga, yerdan foydalanishning qoloq shakllari hukm surardi. Pomeshiklar yerining katta qismi mayda uchastkalariga bo'linib, juda og'ir shartlar bilan (hosilning 3/4 qismini to'lash sharti bilan) dehqonlarga ijaraga berilardi.

Ayni paytda, mamlakat oldida katta moliyaviy muammolar paydo bo'lgan. Bu — Italiya ichki va tashqi qarzining nihoyatda ko'payib ketganligi oqibati bo'lgan edi.

O'sib borayotgan chiqimlarni qoplash uchun hukumat davlat zayomlari chiqarishga, mamlakat ichidagi hamda tashqarisidagi kapital egalari yordam so'rab murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Oqibatda, Italiyaning davlat qarzi shiddat bilan ko'payib boraverdi. Shunga qaramay, kapitalizm tobora chuqur qaror topa bordi. Hukumat, avvalo, temiryo'l qurilishini kengaytirdi.

Savdo floti qurish keng avj oldi. Tez orada Italiya savdo floti dunyoda uchinchi o'ringa chiqdi. Hukumat Italiyani Fransiya va

Shveysariya bilan bog'laydigan ikkita tunnel qurdi. Yangi sanoat tarmoqlari aksiyadorlik jamiyatlari tariqasida vujudga keldi.

1906-yilda tashkil topgan „Fiat“ aksiyadorlik jamiyati kimyo, rezina, mashinasozlik, elektr, avtomobil sanoati va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda tezda ustunlik mavqeyini egallab oldi.

Birinchi jahon urushiga qadar Italiya agrar mamlakatligicha qolib, ishga yaroqli aholisining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band edi. Shunday bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi soni yildan yilga kamayib bordi.

### **Ijtimoiy harakat**

Mamlakatda mehnatkashlar ahvoli nihoyatda og'ir edi. Italiya aholi jon boshiga daromad taqsimoti darajasi bo'yicha G'arbiy Yevropada eng oxirgi o'rinda turar edi. Ish soati 12—13 soat davom etardi.

Ahvol, ayniqsa, mamlakat janubida og'ir edi. Oqibatda, Italiyaning ko'plab fuqarolari ish izlab chet ellarga ketdilar.

Italiya xalqi o'z ahvolini yaxshilash va o'z haq-huquqlari uchun kurash olib borishga majbur bo'lgan. Bu kurash oqibatida, 1892-yilda Italiya Sotsialistik partiyasi tuzildi.

Dehqonlarning ahvoli ham og'ir edi. Bu og'ir hayot Sitsiliyada dehqonlar qo'zg'olonining ko'tarilishiga olib keldi. 1898-yilda Milanda ro'y bergan umumiy ish tashlash 5 kunlik barrikada janglariga aylanib ketdi. Hukumat ishchilar harakatini armiya kuchi bilan bostirdi.

1903—1914-yillarda (orada ma'lum uzilishlar bilan) Italiya hukumatini o'z davrining mashhur siyosiy arbobi J. Jolitti boshqardi.

J. Jolitti aholi xarid quvvatini oshirmay turib, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirib bo'lmasligini yaxshi tushunar edi. Buning uchun esa mehnatkashlarga yaxshi ish haqi to'lash zarur edi. Bu haqda u „Sanoat taraqqiyoti tepasida ish haqi yuqori bo'lgan mamlakatlar turadi“, deb ta'kidlagan edi. Uning davrida kasaba uyushmalari tuzilishiga, ish tashlash o'tkazilishiga ruxsat etuvchi, tungi smenada bolalar va ayollar mehnatidan foydalanmaslik, saylovchilarning mulk va savodxonlik senzini bekor qilish haqida qonunlar qabul qilindi.

Ayni paytda, u davlatning mamlakat iqtisodidagi rolini oshirish tarafdori edi. Uning fikricha, davlat — mehnat va kapital o'rtasida hakam vazifasini bajarishi lozim edi.

## Tashqi siyosat

Italiya tashqi siyosatida „irredentizm“ tarafdorlarining ta'siri kuchaydi. Bu hol uning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarini yomonlashtirdi.

Italiya da'vo qilayotgan Shimoliy Afrika davlatlari hududini birin-ketin Fransiya egallay boshladi. Bu hol Italiyani Germaniya bilan yaqinlashtirdi. 1882-yilda Italiya Germaniya va Avstriya-Vengriya Ittifoqiga qo'shildi.

Ittifoqchilarga ega bo'lgan Italiya tez orada Somali va Eritreyani bo'ysundirdi. 1895-yilda esa Efiopiyani bosib olish maqsadida bu davlatga hujum qildi.

Biroq, 1896-yilning 1-avgustida Adua yonida Italiya qo'shinlari tor-mor etildi. Oqibatda, 5 ming italyan askari halok bo'ldi. Bu voqea Italiyada milliy sharmandalik sifatida qabul qilindi.

Yangi mustamlakalar bosib olish uchun qulay sharoit yaratish zarur edi. Italiya hukumati xuddi shunday sharoitni yarata oldi.

Chunonchi, Italiya Fransiya bilan o'rtasidagi keskin munosabatlarni bartaraf etishga erishdi. 1902-yilda bu ikki davlat o'rtasida bitim imzolandi. Bitimga ko'ra, tomonlar ikki davlatning biri boshqa davlatning hujumiga uchraydigan bo'lsa, o'zaro qat'iy betaraflik majburiyatini oldilar.

1908-yili Italiya Bosniya va Gersegovinani Avstriya istilo qilishiga qat'iy norozilik bildirdi va 1909-yilda Rossiya bilan Bolqon yarimorolidagi o'z manfaatlarini quvvatlovchi bitim tuzdi. Bu ikki davlat Avstriya-Vengriyaning Bolqon mamlakatlariga suqilib kirishiga qat'iy qarshilik ko'rsatishga kelishib oldi.

Qulay diplomatik sharoit yaratilgach, Italiya 1911-yilda Liviyaga hujum qildi. Liviya bu davrda rasman Turkiya imperiyasi tarkibida edi. Bu hol Italiya—Turkiya urushini keltirib chiqardi. Urush Italiya g'alabasi bilan tugadi. 1912-yildan boshlab Liviya Italiya mustamlakasiga aylandi.



**Mulk senzi** — saylovda qatnashish uchun fuqaroning ma'lum darajadagi mulkka ega bo'lishi (boshqa davlatlarda ham bo'lgan).

**Irredentizm** — Italiyaga qo'shni bo'lgan davlatlarda italyanlar qisman yashaydigan hududlarni qo'shib olishni targ'ib qiluvchi millatchilik harakati.





### **Savol va topshiriqlar**

1. Italiyaning boshqa Gʻarbiy Yevropa davlatlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan zaif, agrar davlat boʻlib qolishi sabablarini qayd eting.
2. Italiya iqtisodiy taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatini izohlab bering.
3. Italiya mehnatkashlarining ogʻir qismati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. J. Jolitti hukumati ichki siyosatda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?



### **XIX asr oxiri—XX asr boshlarida Bolqon davlatlari**

#### **Bolqon xalqlarining Turkiya tomonidan ezilishi**

XIX asrning 70-yillariga kelganda janubiy slavyanlarning koʻpchiligi hamon chet el zulmi ostida ezilmoqda edi. Faqat Chernogoriya va Serbiya yerlarining bir qismigina mustaqil edi. Janubiy slavyanlar—bolgarlar, makedoniyaliklar, Bosniya va Gersegovina slavyanlari, serblarning talaygina qismi hamon Turkiya hukmronligi ostida edi.

Xorvatlar, slovenlar, gʻarbiy slavyanlar (chex, slovak, polyak) ning bir qismi ham Gabsburglar hukmronligi ostida edi. Polyaklarning ikkinchi qismi Germaniya, uchinchi qismi esa podsho Rossiyasi zulmidan azob chekardilar. Chet el zulmi slavyan xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga toʻsqinlik qilardi.

#### **Milliy-ozodlik harakati**

XIX asrning 70-yillaridan boshlab slavyan xalqlarining milliy-ozodlik kurashi kuchaydi. Jasur bolgar inqilobchisi Vasil Levskiy mustaqil demokratik Bolgariya Respublikasini barpo etish rejasini ilgari surdi. U Bolgariya hududida yashirin qoʻzgʻolonchi qoʻmitalar tuzdi. 1872-yilda V. Levskiy qatl etishgan boʻlsa-da, ozodlik harakati pasaymadi. 1876-yil Bolgariyada qoʻzgʻolon boshlandi. Qoʻzgʻolonchilar oʻz bayroqlariga „Ozodlik yoki oʻlim“ shiorini yozgandilar. Isteʼdodli publitsist va shoir Xristo Botev ozodlik harakatiga yoʻlboshchilik qildi. U 1876-yil turklar bilan boʻlgan jangda qahramonlarcha halok boʻldi. U halok boʻlgan kun Bolgariyada Xotira kuni sifatida nishonlanadi.

Bolgar xalqining kurashi juda og'ir kechdi. Kuchlar teng emas edi. Turklar ozodlik harakati qatnashchilarini beayov qilichdan o'tkazdilar va ko'plab qishloqlarni kultepa aylantirdilar.

Bu vahshiyliklar ko'plab mamlakatlar jamoatchiligini qattiq g'azablantirdi. Rus hukumati Bolqonda o'z ta'sirini mustahkamlash uchun qo'zg'olonlardan foydalanishga qaror qildi va Bolqon slavyanlarini yoqlab chiqdi.

Turkiya Chernogoriya va Serbiyaning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Ularning hududi ancha kengaydi. Ruminiya mustaqil davlat deb e'tirof etildi.

Rossiya hukumati 1877-yil 24-aprelda Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Urushda Turkiya mag'lubiyatga uchradi. Ikki o'rtada imzolangan San-Stefano shartnomasiga ko'ra, mustaqil Bolgariya davlati tashkil topdi.

### **Bolgariyaning qayta tiklanishi**

Yangidan vujudga keltirilgan Bolgariyaning davlat tuzumini 1878-yilda qabul qilingan Bolgariya konstitutsiyasi belgilab berdi. Konstitutsiyaga muvofiq, Bolgariya konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilindi. Konstitutsiya Bolgariya mustaqilligini amalda tasdiqladi.

Biroq, Buyuk Britaniya va Avstriya-Vengriya Bolqonda Rossiya mavqeyining mustahkamligidan hamda qudratli Bolgariya davlati tashkil topganligidan tashvishda edilar. Shuning uchun ham ular Rossiyani San-Stefano sulh shartnomasini qayta ko'rib chiqishga rozilik berishga majbur etdilar. Berlinda chaqirilgan xalqaro kongress aynan shu masalaga bag'ishlandi. Kongress ko'pgina masalalar qatori Bolgariya masalasini ham ko'rib chiqdi va uning San-Stefano shartnomasiga ko'ra ega bo'lgan hududlarini qisqartirish to'g'risida qaror qabul qildi.

### **Mustaqillikdan keyingi ichki siyosiy ahvol**

Rossiya imperatori Aleksandr II qaynisi hamda bir vaqtning o'zida Pruss zobiti bo'lgan Aleksandr Battenbergni Bolgariya davlati boshlig'i etib saylashni taklif etdi. Bolgariya Buyuk xalq majlisi bu taklifni ma'qulladi.

Biroq, yangi hukmdor Rossiyadan mustaqil siyosat yuritishga urindi. Buning uchun unga tayanadigan davlatlar ham kerak edi. Shuning uchun ham A. Battenberg G'arb davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yurita boshladi. Uning asl niyati — Bolgariya

armiyasida xizmat qilayotgan rus zobitlarini nemis zobitlari bilan almashtirishda yaqqol namoyon bo‘ldi. Endi, Rossiya hukumati unga Rossiyaning dushmani sifatida qaray boshladi.

Mamlakatda o‘z mavqeyini mustahkamlashga intilgan Aleksandr Battenberg janubiy va shimoliy Bolgariyaning yangidan yagona davlatga birlashganligini e‘lon qildi. Bu holni Bolqondagi boshqa slavyan davlatlari o‘z manfaatlariga zid harakat, deb baholadilar.

Rossiya ularning ham manfaatlarini hisobga olishi kerak edi. Shuning uchun ham Aleksandr II hukumati norozilik belgisi sifatida Bolgariyadan o‘z zobitlarini chaqirib oldi. Shunday sharoitda Rossiya talafdorlari bo‘lgan oliy zobitlarning bir guruhi 1886-yilda Aleksandr Battenbergni taxtdan voz kechishga majbur etdilar. Ammo, hukumat kuchlari bu zobitlarni hibsga oldi. Oxir-oqibatda, Rossiya va Bolgariya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlari uzildi. Buning ustiga, Bolgariya taxtiga Avstriya-Vengriya nomzodi Ferdinand Koburg o‘tqazildi. Rossiya — Bolgariya diplomatik munosabatlari 1896-yildagina tiklandi, xolos.

1908-yilda Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o‘zini Turkiyadan to‘la mustaqil davlat deb e‘lon qildi.

Ikkinchi Bolqon urushida Bolgariyaning mag‘lubiyatga uchrashi uning keyingi tashqi siyosatining yo‘nalishini belgilab berdi. 1913-yilda hokimiyat tepasiga germanparast hukumat keldi. Bu hukumat tashqi siyosatda Bolgariyaning milliy manfaatlarini „Uchlar ittifoqi“ (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya) yordamida himoya qilishini ma‘lum qildi. Bu bayonot, Yevropada bo‘ljak katta urushda Bolgariya „Uchlar ittifoqi“ tarafida turishini anglatar edi.

### Serbiyaning mustaqillikka erishishi

XIX asr oxirlarida Serbiya Turkiyaga nomigagina qaram edi, xolos. Serbiya tashqi siyosatining asosiy maqsadi — Turkiya qo‘l ostida qolayotgan serb yerlarini to‘la qaytarib olish va ularni yagona Serbiya davlatiga birlashtirishdan iborat edi. Shuning uchun ham Serbiya Rossiyaning Turkiyaga qarshi urushlarida faol qatnashgan.

Berlin kongressi Serbiyaning Turkiyadan mustaqil ekanligini tasdiqladi. Ayni paytda, Serbiya zimmasiga chet el tovarlaridan tranzit boj olmaslik va unga Turkiyadan olib berilgan yangi hududlarga mutanosib miqdorda Turkiyaning chet el davlatlari oldidagi qarzini to‘lash majburiyati yuklandi.



Serbiyada Rossiya tarafdorlari bo'lgan kuchlar katta ta'sirga ega bo'lgan. Natijada, shu omillar qachonlardir Avstriya-Vengriya va Rossiya manfaatlarining qattiq to'qnashuvini keltirib chiqarishi muqarrar edi.

### Albaniyaning mustaqillikka erishishi

Bolqonning boshqa xalqlari qatori, Turkiya mustamlakasi bo'lgan Albaniya ham o'z mustaqilligi uchun kurashni kuchaytirdi. Albaniyadagi barcha siyosiy kuchlar Albaniyani taqsimlab olish rejalarini tuzayotgan chet el davlatlari siyosatiga qarshi chiqdilar. Bolgariyada chiqayotgan „Kalendari kombiar“ („Milliy kalendar“) jurnali 1902-yilda shunday deb yozgan: „Biz uyquda yotibmiz, bu vaqtda esa bizning ustimizda savdolashmoqdalar“. 1909—1911-yillarda Albaniyada qo'zg'olon ko'tarildi. Bunda xalqning barcha tabaqalari ishtirok etdi.

Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida, 1912-yil 28-noyabrda Albaniya mustaqillikka erishdi. Turklarning qariyb besh asr davom etgan hukmronligiga barham berildi.



### Savol va topshiriqlar

1. Avvalgi sinflarda olgan bilimlaringizga tayanib, Bolqonning qay tariqa Turkiya mustamlakasiga aylanganligi to'g'risida so'zlab bering.
2. XIX asr so'nggi choragida Bolqondagi siyosiy ahvol qanday edi?
3. 1877—1878-yillardagi Rossiya—Turkiya urushi Bolqon xalqlari taqdirida qanday rol o'ynadi?
4. Besh asrga yaqin Turkiya asoratida qolib kelgan slavyan xalqlari nega aynan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ozodlikka erishdilar?



### Mavzu ustida mustaqil ishlash

T/r	Davlatning nomi	Bosib o'tgan yo'li
1.		
2.		

# III BO‘LIM

## OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

### V bob

### XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSH- LARIDA OSIYO DAVLATLARI



#### XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya

##### Tub o‘zgarishlar yo‘lida

1867—1868-yillarda Yaponiyada yuz bergan Meydzi islohoti Yaponiyada bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurilishiga keng yo‘l ochdi. Endigi asosiy vazifa — yapon xalqining milliy an‘analarini saqlab qolgan holda jamiyatni G‘arb modelida qayta qurish edi. Imperator Mutsixito ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga to‘sqinlik qiluvchi qonun va tartiblarni bekor qildi. Yaponiya dunyoning barcha davlatlari uchun ochib qo‘yildi. Mamlakatni modernizatsiyalash boshlandi. Dastlab, yagona pul birligi joriy etildi.

Ayrim-ayrim hokimliklar chegaralaridagi bojxonalar va boshqa to‘siqlar olib tashlandi. Bu tadbirlar mamlakat miqyosida savdo-iqtisodiy aloqalarga keng yo‘l ochdi. Yo‘llarda dehqonlarning shaharga qochib ketishiga qarshi, ularni tutib joyiga qaytarish uchun qo‘yilgan poyloqchilik manzillari tugatildi. Chunki sanoat qishloqdan ishchi kuchi „oqib“ kelishidan manfaatdor edi. Bu tadbirlar Yaponiyada ichki bozorning, sanoat tarmoqlarining rivojiga xizmat qila boshladi. 1869-yilda aholining barcha tabaqalari — feodal zamindor, samuray, dehqon, hunarmand, savdogarlar — rasman teng huquqli deb e‘lon qilindi.

Butun mamlakat miqyosida markazlashgan hukumat boshqaruvi yuzaga keldi. Yalpi harbiy xizmat haqida qonun qabul qilindi.

1871—1878-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlar o‘tkazilib, yerni erkin oldi-sotdi qilishga, istalgan turdagi ekinlarni ekishga ruxsat berildi. Hosildan hissa ko‘rinishidagi soliq pul so-

lig'i bilan almashtirildi. Yerning mayda bo'laklarga bo'linib ketishiga qarshi qonun chiqarildi.

**Sanoatni rivojlantirishda davlatning roli** Sharoit qanchalik og'ir bo'lmasin, Yaponiyada bozor munosabatlari tez rivojlana boshladi. Sharqda birinchi bo'lib Yaponiya Yevropa tajribalaridan foydalandi. Yevropada uzoq vaqt davomida yuzaga keltirilgan ilg'or sanoat texnikasini Yaponiya tayyor holda sotib ola boshladi. Davlat sanoatni rivojlantirish ishiga homiylik qildi.

Birinchi galda Yaponiyada to'qimachilik sanoati tez rivojlandi. 1890-yilda u barcha sanoat tarmoqlarining 45 foizini tashkil etdi. Chorak asr davomida 1300 ta sanoat korxonasi qurildi. Ular dastlab badavlat sanoatchilarga ijaraga berildi. Keyinroq esa sanoat korxonalari o'z narxining yarmiga, hatto 10—15 foiziga ham xususiy qilib sotiladigan bo'ldi. Natijada, bank kapitali bilan sanoat kapitali qo'shilib bordi. Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishi Rossiyadan o'n barobar tezroq rivojlandi.

### **Yaponiya taraqqiyotining xususiyatlari**

Yaponiyada monopolistik kapitalizm feodal-monarxiya qoldiqlari bilan chirmashib ketdi. Bu jihatdan Yaponiya Rossiyaga o'xshab ketardi.

Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSHdan farqli o'laroq, Yaponiyada hokimiyat burjuaziya qo'lida bo'lmay, balki pomeshik-burjuaziya bloki qo'lida edi.

Yaponiya, ayni paytda, armiya va flotni ham qayta qura boshladi. Yaponiya hukumati og'ir industriyani rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Oqibatda, 1900—1913-yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib, Fransiyaqa yaqinlashdi. Mamlakatda sanoat, savdo-sotiq va banklar markazlashib, monopoliyalar vujudga keldi.

### **Ijtimoiy hayot**

Yaponiyada kapitalizm taraqqiyoti dehqonlarning yerdan ajralishi bilan birgalikda kechdi. Agrar islohotga ko'ra, yer olgan dehqonlarning atigi 1/3 qismigina olgan yerlarini saqlab qola oldi. Raqobatga bardosh bera olmaganlar ijaraga yer olib xo'jalik yuritishga majbur bo'ldilar. Qolganlari esa shaharga ketib, yollanma ishchilarga aylandilar. Sanoat egalari yangicha, ilg'or ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yib, mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib

chiqa boshladilar. Sanoat korxonalarining soni yildan yilga ko'payib bordi.

Lekin, shu sanoat korxonalarida ishlayotgan ishchilarning iqtisodiy ahvoli og'ir edi. Chunki, ish haqi juda past edi. Korxonada texnika xavfsizligiga javobgarlik yo'q edi. Buning ustiga, yapon ishchilari va mehnatkashlari na siyosiy, na ijtimoiy huquqlardan foydalanar edilar. Yaponiya ishchilar sinfi kasaba uyushmalariga birlasha boshladilar. Yaponiya jamiyatining ilg'or qatlami parlament tashkil etish uchun kurashdilar.

### **1889-yil konstitutsiyasi**

Iqtisodiy islohotlar burjuaziyaning o'sishiga va siyosiy jihatdan kuchayishiga sabab bo'ldi. Burjuaziya davlatga rahbarlikni o'z qo'liga olishni da'vo qila boshladi.

Shunday sharoitda hukumat yon berishga qaror qildi. Niho-yat, 1889-yilda Prussiya konstitutsiyasi namunasi asosida tuzilgan konstitutsiya qabul qilindi. Mamlakatda ikki palatali (yuqori (per-lar) va quyi (vakillar)) parlament joriy etildi.

Konstitutsiya imperatorning mavjud barcha huquqlarini nafaqat saqlab qoldi, balki unga yanada keng huquqlar berdi. Masalan, u parlamentni chaqirish, ochish, tarqatib yuborish, qonunlar o'r-niga oliy farmonlar chiqarish, qo'shinlarning Oliy bosh qo'mon-doni bo'lish, urush e'lon qilish, sulh tuzish kabi huquqlarni o'zida saqlab qoldi. Konstitutsiyaga ko'ra, Vazirlar Kengashi faqat imperatorga hisob berardi.

Parlamentning barcha qarorlari imperator huzuridagi Yashirin Kengashdan o'tishi zarur edi. Saylov huquqi mol-mulk senzi bilan cheklandi. Saylov yoshi 25 yosh qilib belgilandi. Shunga qaramay, Yaponiyadek o'rta asrlar an'alariga boy mamlakatda konstitutsiya qabul qilinishining o'zi katta voqea edi.

### **Tashqi siyosat**

Aholining kambag'alligi sanoat mahsu-lotlarining sotib olinishini qiyinlashtirdi. Bu hodisa Yaponiya hukmron doiralarini qo'shni davlatlar hu-dudlarini bosib olishga undagan. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun Yaponiya zo'r berib qurollandi. Yaponiyaning bosqinchilik maqsadlari Koreya, Xitoy, Tinch okean havzasiga qaratildi. Tez orada Yaponiya bosqinchilik urushlarini boshlab yubordi. 1879-yilda Yaponiya, Xitoyning noroziligiga qaramay, Ryukyu orolini bosib oldi. 1875-yilda Janubiy Saxalin hisobiga Kuril orollarini Rossiyadan ajratib, o'ziga qo'shib oldi. 1876-yili yaponlar uchun Koreya ochiq mamlakat deb e'lon qilindi. Yapon tovarlari bojsiz



sotiladigan bo'ldi. Shu yo'l bilan Koreya Xitoy ta'siridan ajratib olindi. Maqsad Koreyani anneksiya qilish edi.

### **1894—1895-yillardagi Yaponiya—Xitoy urushi**

1894-yil Yaponiya Seulda saroy to'ntarishi uyushtirib, yaponparast hukumat tuzdi va poytaxt garnizonini qurolsizlantirdi. Bu hodisa Yapon—Xitoy urushi boshlanishiga olib keldi. Xitoy harbiy flotining transport kemalari cho'ktirildi. Ayni paytda, yapon qo'shinlari urush e'lon qilmasdan Koreyada turgan Xitoy harbiy qismlariga hujum qildi. 1894-yilda Xitoy qo'shinlari Pxenyanda yonida mag'lubiyatga uchradi. Bu hol Yaponiyaning Uzoq Sharqda ustunlikka ega bo'lishiga yo'l ochdi. Yaponiyaning zamonaviy qurollar bilan ta'minlangan harbiy kuchlari ham quruqlikdan, ham dengizdan hujum uyushtirib, Xitoy qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. 1895-yilda bu ikki davlat o'rtasida Simonoseki sulhi tuzildi. Xitoy Koreyaning mustaqilligini tan oldi. *Lyadun, Tayvan, Penxu* (Peskador) orollarini Yaponiyaga berdi. Shuningdek, Yaponiyaga katta miqdorda tovon to'lashga majbur bo'ldi.

Shartnomaga ko'ra, Yaponiya o'z savdosi uchun Xitoy hududida sanoat korxonalarini qurish va ulardan foydalanish huquqini oldi. Endi uning maqsadi Uzoq Sharqdagi asosiy raqibi Rossiyani mag'lub etish edi.

1895-yilda shuning uchun 10 yillik qurollanish dasturini qabul qildi. Rossiya bilan urush chiqqan taqdirda, buyuk davlatlarning betaraf qolishini ta'minlaydigan shartnomalar tuzishga erishdi. Shunday qilib, muqarrar bo'lib qolgan urushda Rossiya yolg'izlatib qo'yildi. 1904-yil yuz bergan Rossiya — Yaponiya urushida erishilgan g'alaba Yaponiyaning qudratini yanada orttirdi.

1910-yilda Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi. Koreyada yapon general-gubernatori cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Mustamlakachi hukumatni qo'llab turish maqsadida Yaponiya katta harbiy kuchlarni Koreyaga joylashtirdi.

Yaponiya endilikda barcha e'tiborni Xitoyga qaratdi. Yevropa davlatlari va AQSHning Xitoy boyliklaridan foydalanishi Yaponiyani ham Xitoy mulklaridan foydalanishga undar edi. Uning bu harakati AQSH va Buyuk Britaniya bilan munosabatlarining yomonlashuviga olib keldi. Yaponiya Uzoq Sharqda xavfli raqibga aylandi. Shu tariqa, Yaponiya ham yangi urush girdobiga tobora ko'proq tortilib boraverdi.



**Annexsiya** (lotincha — birlashtirish) — bir davlat hududini zo‘ravonlik yo‘li bilan butunlay yoki qisman o‘z davlatiga qo‘shib olish.

**Tovon** — (forscha) — urushda mag‘lubiyatga uchragan davlatdan g‘olib chiqqan davlat foydasiga majburan undiriladigan tovon.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Meydzi islohotining mohiyatan inqilobga teng ekanligini dalillar bilan asoslab bering.
2. Yaponiya taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan Rossiya taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini taqqoslang.
3. Yaponiya iqtisodiyotiga davlat aralashuvi qay yo‘sinda amalga oshirildi?
4. 1889-yilgi Yaponiya konstitutsiyasi 1875-yilgi Fransiya konstitutsiyasidan qay jihatlari bilan farq qiladi?
5. Yaponiya bosqinchi tashqi siyosat yuritmasligi mumkin edimi?



Nima uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarurat bo‘lib qoladi?



Bugungi Yaponiya va O‘zbekiston aloqalari haqida ma‘lumot to‘plang.



**27-§.**

## **XIX asrning oxirida Xitoy**

### **Xitoyning yarim-mustamlakaga aylantirilishi**

XIX asr oxirida Xitoy qoloq, yarimfeodal davlat edi. Yerning asosiy qismi zamindor boylar qo‘lida edi. Ko‘pchilik dehqonlar zamindorlardan yerni ijaraga olar, ijara haqini pul bilan yoki hosil hisobidan to‘lar edilar. Yeri bor dehqonlar juda kam edi.

Dehqonlar shaharga ish qidirib kelardilar. Lekin har doim ham ish topilmas edi. Chunki, Xitoyda sanoat juda sekin taraqqiy etayotgan edi.

XIX asrning so‘nggi choragidan boshlab mamlakatda kapitalistik munosabatlar ham rivojlana boshladi. Dastlabki temiryo‘llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengaydi. Yirik shaharlar barpo etildi. Ishchilar soni ko‘paydi. Sanoat vujudga kelishi bilan milliy burjuaziya ham shakllana boshladi. Biroq, milliy burjuaziyaning ko‘pchiligi kompradorlardan iborat edi. Ular amalda chet el fir-

malarining yollangan vakillari edi. Ular chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xomashyo sotib olish hisobiga boyib borardilar.

Pulga muhtoj bo'lgan Sin sulolasi chet el davlatlari bilan asoratli shartnomalar tuzar va milliy manfaatlarga xilof ravishda ularga yon berardi. 70-yillardayoq ajnabiylar Xitoyning 26 bandargohiga bemalol kirardilar va o'zlarini xo'jayinlardek tutardilar.

Temiryo'llar qurilishi xorijliklar tasarrufida edi. Ko'mir shaxtalari, konlarning katta qismi ham ularning ixtiyorida bo'lib, Xitoy chet el davlatlarining xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Chet elliklar katta shaharlarda hatto o'z mavzellarini tashkil etib, Xitoy ma'murlarini mensimasdan, mustaqil ish yuritardilar.

Xitoyning Yaponiya bilan 1894—1895-yillardagi urushda mag'lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko'proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo'ldi. 1897—1898-yillarda Germaniya Szyaochjouvan (Sindao) bandargohini bosib oldi va Shandun viloyatini o'z ta'sir doirasiga kiritdi. Fransiya Guamchjuvan ko'rfazini egalladi va Yunan viloyatida hukmronlik ta'sirini o'tkaza boshladi. Rossiya Port-Aturni (Lyuysun), Buyuk Britaniya Veyxayvey bahdargohini ijaraga oldi. Eng boy hudud—Yanszi daryosi havzasi Buyuk Britaniyaning ta'sir doirasiga tushib qoldi. Futsziyan viloyatida yapon bosqinchilari hukmron bo'lib oldilar. Xitoydagi har qanday o'zgarishlar buyuk davlatlar tomonidan nazorat qilindilar. Shunday qilib, Xitoy yarimmustamlakaga aylandi.

### **Sanoat taraqqiyoti va chet el hukmronligi**

XIX asrning oxirida Xitoyda ilk sanoat korxonalari paydo bo'la boshladi. 1881-yilda Shimoliy Xitoyda birinchi temiryo'l ishga tushirildi. 1897-yilda bu yerda 600 ga yaqin chet el firmalari mavjud edi. Lekin sanoat korxonalarining o'sishi va ko'payishi sust bordi.

Import eksportdan ancha ko'p edi. Xitoy bilan Buyuk Britaniya o'rtasida 1876-yili tuzilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi. Konvensiya Buyuk Britaniyaga Xitoyning 10 dan ortiq bandargohiga erkin kirish, qator viloyatlarda imtiyozli savdo qilish huquqini berdi.

1884-yilda Fransiyaning Vyetnamni bosib olishi tufayli Fransiya—Xitoy munosabatlari yomonlashdi. Shu yili Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi va u yerda Fransiya protektoratini tan oldi. Xitoy hukumati Fransiya bilan shoshilinch bitim tuzdi va Fransiya qator masalalarda yon berdi.

## Ijtimoiy harakat

Xitoy endigina sanoatlashuv yo'liga qadam qo'yganda xorijiy davlatlar tomonidan talon-taroj qilinishi xalq ahvoriga og'ir ta'sir ko'rsatdi. Xitoyni to'g'ri taraqqiyot yo'liga olib chiqish haqida turli g'oyalar shakllandi. Bu islohotchilik harakati deb ataldi. Bu davr ijtimoiy harakatida Sun Yat Senning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. U Xitoyni inqilob yo'liga yetaklagan rahnamo edi. Sun Yat Senning „Xitoy uyg'onish jamiyati“ nomli tashkiloti manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlash va Xitoyda demokratik milliy davlat tuzish uchun kurashdi.

Xitoyda bu davrdagi ijtimoiy harakatda „Ixtuan“ — „Tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan musht“ deb atalgan yashirin tashkilot ham katta rol o'ynadi. „Ixtuan“lar „Manjur sinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz“ shiori ostida ish ko'rardilar.

1899-yili „Ixtuan“ harakati qo'zg'olon tusini oldi. Ixtuanlar Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish, Tayvanni Xitoyga birlashtirish kabi talablarni qo'yidilar. Sin hukumati qo'zg'olondan cho'chib qoldi. Chunki Ixtuanlar poytaxt va viloyatlarning qariyb yarmini qo'lda tutib turgan edilar. 1900-yili hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi.

Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari Pekinga yurish boshladilar va bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatdilar.

## Xitoyga qarshi intervensiya

Bu voqea Pekinga chet elliklar intervensiyasi boshlanishiga bahona bo'ldi. Intervensiyada sakkiz davlat — Germaniya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Rossiya va Avstriya-Vengriya qatnashdi. Ularning har biri Xitoyda kattaroq ulushga ega bo'lish maqsadini ko'zlar edi.

1899-yil sentabrda AQSH davlat kotibi Xeyning „ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar“ siyosati e'lon qilindi va „Xey“ doktrinasi deb nom oldi.

1900-yil iyul oyida chet el interventlari yalpi hujumga o'tdilar va Pekin shahri egallandi. Xorijliklar shaharni va imperator saroyini talon-taroj qildilar. Sakkiz davlat Xitoyni asoratli shartnomani imzolashga majbur qildi. Shartnomada qo'zg'olonda qatnashgan mansabdor shaxslarni qatl etish yoki surgun qilish talab etildi. Shuningdek, Pekin bilan dengiz sohili o'rtasidagi yo'llarni

muhofaza qilish uchun ajnabiy davlatlarga Xitoyda o‘z qo‘shinlarini saqlashga ruxsat berildi. Bundan tashqari, Xitoy chet el interventlariga 33 mln. dollar tovon to‘lashga majbur etildi. Xitoyga qurol-aslaha kiritish taqiqlandi. Ajnabiylarning Xitoydagi imtiyozlari ko‘paydi. Natijada, Xitoy yanada himoyasiz bo‘lib qoldi.

Ayni paytda Ixetuan qo‘zg‘oloni mustamlakachilarni ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etdi.



**Intervensiya** (lotincha — aralashuv) — o‘zga davlat hududini bosib olish, o‘z hukmronligini o‘rnatish maqsadida shu davlat ichki ishlariga zo‘rlilik bilan aralashish.

**Komprador** (ispancha — xarid qiluvchi) — iqtisodiy qoloq va qaram davlatlar burjuaziyasining chet el kapitali bilan ichki bazor o‘rtasida vositachilik qiluvchi qismi.

**Konvensiya** (lotincha — shartnoma) — ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Xitoy va Yaponiya taraqqiyotining o‘xshash va o‘ziga xos xususiyatlarini taqqoslang.
2. Xitoy qay tariqa yarimmustamlakaga aylanib qoldi?
3. 1876-yilgi Xitoy — Buyuk Britaniya konvensiyasi Xitoy uchun qanday oqibatlar keltirdi?
4. Ixetuanlar qo‘zg‘oloni va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. „Xey“ doktrinasi qanday maqsadni ko‘zlagan edi?



## **XX asr boshlarida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli**

### **Ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli**

XX asr boshlarida Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketdi. Manjurlarning Sin sulolasi hukmronligi inqirozga yuz tutdi.

Shoshilinch ko‘rilgan islohot choralari jamiyat ahvolini tubdan yaxshilamadi. Xitoyda sanoat taraqqiyoti bilan unga to‘siqqa aylangan feodal yer mulkchiligiga xos qoloq ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasida ziddiyat chuqurlashdi. Omma orasida manjurlar boshqaruviga qarshi harakat kuchaydi. Xitoy sanoati rivojla-



nishi ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsa-da, har yili 50 tadan ko'proq korxonaga ishga tushirildi. Natijada, mamlakat eksport hajmi 2 baravar o'sdi. Xorijiy davlatlar ichida Buyuk Britaniya tovar ayirboshlashda birinchi o'rinda (50 foiz) turar edi. Xitoyning chet elliklardan qarzi ortib bordi.

**Sun Yat Sen** Inqilobchi demokrat Sun Yat Sen (1866—1925) Xitoydagi milliy-ozodlik harakatining atoqli arbobi edi. U Guanchjou (Kanton) yaqinida dehqon oilasida tavallud topdi. Sun Yat Sen 90-yillarning boshida Gonkongda ingliz tibbiyot institutini tamomladi. Keyingi hayotini u siyosiy soha bilan bog'ladi.

Sun Yat Sen 1905-yilda „Xitoy uyushmalari ittifoqi“ (Tun-minxay) degan siyosiy tashkilot tuzdi. Yirik shaharlarda bu ittifoqning yashirin bo'limlari ochildi. Ittifoq 1905-yil noyabrida „Minbao“ (Xalq gazetasi)ni chiqara boshladi.

„Ittifoq“ Sun Yat Sen rahbarligida dastur qabul qildi. Dasturda Sin monarxiyasini ag'darish, Respublika ta'sis etish va yerga egalik huquqini tenglashtirish, mustaqillikni tiklash ko'zda tutilgan edi.

Sun Yat Sen ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust taraqqiy etgan Xitoyda yerga egalik huquqini tenglashtirish yo'li bilan, ijtimoiy adolatli tuzum yaratish mumkin, degan fikrda edi.

### **Muvaqqat Respublika hukumatining tuzilishi**

Sun Yat Sen tashkiloti respublika tuzumini o'rnatish maqsadini qo'ydi. Bu g'oya manjurlarga qarshi harakatni yanada kuchaytirdi. Bu harakat 1911-yili chet elliklardan temiryo'l qurilishi uchun qarz olish haqida bitim tuzilgach, qurolli qarshilik tusini oldi. Hatto armiyada ham norozilik boshlandi.

Uxan shahrida askarlar yotog'ini tintuv qilishga kirgan manjur ma'muriyati tarafdorlarini askarlar o'ldirdilar. Qurol-aslahaga omborini bosib oldilar. Boshqa qo'shin qismlari ham ularga qo'shildi. Inqilobchilar 11-oktabrda Uxanni to'la qo'lga kiritdilar. Ular Respublika hukumati tuzdilar va barcha Xitoy viloyatlarini Respublika atrofida birlashishga chaqirdilar. Manjur sulolasi hukmronligi tugatilganligi e'lon qilindi. Bu inqilob Xitoy tarixiga „Sinxay inqilobi“ nomi bilan kirgan. Shunday qilib, „Sinxay inqilobi“ qurolli qo'zg'olon yo'li bilan Xitoyda XVII asrdan boshlab hukm surgan manjurlar hokimiyatini ag'darib tashladi.

1911-yilda ko‘p yillik muhojirlikdan so‘ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytib keldi. Uni Xitoy xalqi xursandchilik bilan kutib oldi. 29-dekabrda Nankinda inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat Millat Majlisi to‘plandi. Millat Majlisi Xitoyni Respublika deb e‘lon qildi va muhojirlikdan qaytib kelgan Sun Yat Senni Xitoy Respublikasining vaqtincha prezidenti etib sayladi. Millat Majlisi qabul qilgan konstitutsiyada barcha fuqarolarning tengligi va turli demokratik erkinliklar e‘lon qilinsa-da, dehqonlarning orzu-tilaklarini ifoda etuvchi „yerga egalik qilishda teng huquqli bo‘lish“ shiori o‘z aksini topmadi. Buning sababi — yerga egalik qilishda teng huquqqa ega bo‘lishga qarshi kuchlarning katta mavqega ega bo‘lganligi edi.

### **Yuan Shikay diktaturasi**

Inqilob natijasida Xitoyda ikki hokimiyatchilik vujudga keldi. Ularning biri — Xitoy Respublikasi hokimiyati, ikkinchisi — Shimolda saqlanib qolgan imperator hokimiyati edi. Pekindagi imperator hukumatining boshlig‘i Yuan Shikay edi.

Buyuk davlatlarni Xitoydagi mavqelarining qay ahvolda qolishi tashvishga solib qo‘ydi. Shu sababli, ular turli bahonalar bilan Xitoyning ichki ishlariga tobora ko‘proq aralasha boshladilar. Ular Xitoydagi inqilobni qurol kuchi bilan bostirish maqsadida o‘z kuchlarini birlashtirishga erishdilar.

Buyuk davlatlarning Pekin hukumatini qo‘llab-quvvatlashdan maqsadi Xitoyning ichki ishlariga o‘z bilganicha aralashish edi. Biroq, bu Xitoyda umumiy norozilik keltirib chiqardi. Aholi chet el tovarlarini boykot qila boshladi. Shunday sharoitda respublikaga qarshi kuchlar Bosh vazir Yuan Shikay atrofiga birlashdi.

Pekin saroy ahli unga monarxiyaning xaloskori deb qarar edi. Biroq, Yuan Shikay inqilobiy harakatning tazyiqi bilan 1912-yil 12-fevral kuni Sin sulolasini taxtdan voz kechishga majbur etdi. Hukmron tabaqalar butun hokimiyatni unga topshirishga urindilar. Bu orada, buyuk davlatlar ham Sun Yat Senning hokimiyatdan ketishini ochiq talab qildilar va Xitoyga intervensiya uyushtirishga oshkora tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Xitoyga qarshi intervensiya xavfi ostida Sun Yat Sen prezidentlik lavozimini Yuan Shikayga topshirishga majbur bo‘ldi.

Butun hokimiyatni o‘z qo‘liga to‘plagan Yuan Shikay demokratik erkinliklarni yo‘qqa chiqara boshladi. U ishni, avvalo,



inqilob qo‘shinlarini butunlay qurolsizlantirishdan boshladi. Hukumatga qarshi tuzilgan har qanday guruh a‘zolarining taqdiri o‘lim bilan yakunlanardi. Har bir qishloqda jazo guruhi ish ko‘radigan bo‘ldi. Shunga qaramay, demokratik kuchlar 1912-yilda Gomindan (Milliy partiya)ni tuzdilar. Partiya boshqaruvi raisligiga Sun Yat Sen saylandi.

O‘z g‘alabasidan ruhlangan Yuan Shikay Millat Majlisini o‘zini besh yil muddatga prezident etib saylashga majbur qildi. Buyuk davlatlar bilan yangi asoratli qarz to‘g‘risida shartnoma imzoladi. Shundan so‘ng, buyuk davlatlar Xitoy Respublikasini tan olganliklarini ma‘lum qildilar. Xitoyning iqtisodiy ahvoli og‘irlashdi. Aholi turmush darajasi yomonlashdi. Shunday bir sharoitda Gomindan xalqni qo‘zg‘olon boshlashga undadi. 1913-yilda Xitoyning janubida hukumatning siyosatiga qarshi „ikkinchi inqilob“ deb nomlangan qo‘zg‘olon boshlanib ketdi.

Biroq, kuchlar teng bo‘lmaganligi tufayli chet el davlatlaridan harbiy madad olgan hukumat qo‘shinlari tomonidan „ikkinchi inqilob“ tor-mor etildi.

1914-yilda Yuan Shikay Konstitutsiyaviy Kengash chaqirdi. Unda „Yangi Xitoy Konstitutsiyasi“ qabul qilindi. Yuan Shikay prezident sifatida cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘ldi. Mamlakatda harbiy diktatura o‘rnatildi. Respublika boshqaruv organlari tugatildi.



**Sinxay** — sinxay o‘zbek tilida „yil“ degan ma‘noni anglatadi. Xitoy oy kalendariga ko‘ra, inqilob bir yil davom etgani uchun u Sinxay (bir yil davom etgan inqilob) deb atalgan.

**Sin sulolasi** — 1628—1644-yillardagi dehqonlar urushi natijasida barham topgan Min sulolasidan keyingi hukmron sulola. Bu sulola 1644—1911-yillarda hukmronlik qilgan.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Sinxay inqilobi qay tariqa yuz berdi va uning oqibatlari nimalardan iborat bo‘ldi?
2. Sun Yat Sen faoliyatini qanday baholaysiz?
3. Yuan Shikay diktaturasining o‘rnatilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?



*Siz ushbu fikrlarning qaysi birini to'g'ri deb hisoblaysiz? O'z fikrlaringizni dalillar bilan asoslang.*

1. Xitoy hukumati mamlakatning yarimmustamlaka holatiga tushib qolishining oldini olishga qodir edi.

2. Xitoy hukumati mamlakatning yarimmustamlaka holatiga tushib qolishining oldini olishga qodir emas edi.



## **XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Hindiston**

### **Mustamlakachilik**

Hindiston bu davrda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. U Hindistonni vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya yordamida boshqarar edi.

Ingliz mustamlakachiligi sharoitida Hindistonda sarmoyadorlikka asoslangan mahalliy ishlab chiqarish tizimi yuzaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. 1886-yilda to'qimachilik sanoatida 95 ta fabrika bor edi. Konlar soni, temiryo'l tarmoqlari ko'paydi. Bu narsa xomashyo tayyorlash va tashishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Buyuk Britaniya Hindistonda sanoatni o'ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalari dengizbo'yi port shaharlari yaqinida edi. Bundan Hindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish maqsadi ko'zlandi. 1873-yildan 1883-yilgacha Hindiston bilan Buyuk Britaniya savdosi tobora o'sib bordi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish hududiga aylanib qoldi.

Dehqonchilikda agrotexnika madaniyati pastligicha qolaverdi. Mustamlakachilar tomonidan qurilgan sug'orish inshootlari boryo'g'i 20 foiz yerni sug'orishga yetar edi. Yer hosilning katta qismini to'lash sharti bilan dehqonlarga ijaraga berilardi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur bo'lgan odamlar soni tobora ko'paya bordi.

Qishloq xo'jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya kiritish inglizlarga katta foyda keltirar edi.

Hindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin, olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi. Qishloq xo'jaligida monokultura vujudga keldi. Bengaliya kanop, Assam choy, Bombay va Markaziy Hindiston paxta, Panjob bug'doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Yer egalari, bank egalari, sudxo'rlar dehqonlarni qarzga botirib, ularni ayanchli ahvolga solib qo'ydilar. 1870—1890-yillar davomida Hindistonda 20 martadan ko'p ocharchilik yuz berdi. Ularda 18 mln. odam qirilib ketdi.

1878-yilda ingliz ma'muriyati Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qildi. Qonun barcha gazetalarni inglizlar nazoratiga o'tkazdi. Tez orada o'qotar qurollarni saqlamaslik haqida akt qabul qilindi.

Buyuk Britaniya mahalliy burjuaziyaga qisman yon bosish siyosatini ham yurita boshladi. Ularning vakillari shaharlar ma'muriyatiga saylana boshladilar.

### **Iqtisodiy ahvol**

XX asr boshlarida Hindistonda kapitalizm sekinlik bilan bo'lsa-da, rivojlana boshladi. 1910-yilga kelib kanop-tola fabrikalari soni ikki baravar ko'paydi. Paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to'qish korxonalarining 215 tasi hind kapitalistlariga qarashli edi. Sanoat ishchilari soni salkam 1 mln. kishiga yetdi. Buyuk Britaniya barcha ko'mir havzalari, kanop sanoati, choyzorlarni, transport, savdo va sug'urta jamiyatlarini o'z qo'lga to'plab oldi va butun Hindiston ishlab chiqarish tizimi ustidan nazorat o'rnatdi.

Buyuk Britaniya kapitali juda tez o'sib bordi. Biroq, xalq ommasining turmushi esa tobora yomonlashib borgan. 1896—1906-yillarda 10 mln.dan ortiq odam ochlikdan o'ldi. 1904-yilda esa 1 mln. odam vabodan qirildi.

Universitetlarga kirish puli ikki baravarga oshirildi. Ulardagi huquq fakultetlari yopib qo'yildi. Demokratik ruhdagi, xalq manfaatini ko'zlovchi kishilarning universitetlarga kirishi butunlay taqiqlandi.

### **Milliy-ozodlik harakati**

Hindiston xalqlari mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik kurashi olib bordi. 1885-yilda Bombay shahrida muayyan dasturiga ega siyosiy partiya — „Hindiston milliy kongressi“ (HMK) tuzildi. Ayni paytda, „Musulmonlar ligasi“ ham tashkil

topdi. Endi inglizlar hind-musulmon raqobatini yanada kuchaytirib yubordilar.

Kongress o‘z safiga yirik savdo-sanoat kapitali vakillarini, liberal pomeshiklar hamda milliy ziyolilarni birlashtirdi. Dastlabki vaqtlarda Hindiston milliy kongressiga ingliz mustamlaka ma‘muriyati qarshilik qilmadi. Bunday munosabatni Hindiston vitse-qiroli lord Dafferin „milliy kongress inqilobdan arzonroq“ deb izohlagan edi.

Inglizlar o‘ylagandek, milliy kongressning talablari dastlabki paytlarda juda ham mo‘tadil bo‘ldi. Bu talablar Britaniya hukmronligini saqlab qolgan holda, ba‘zi islohotlar o‘tkazishnigina ko‘zda tutardi. Ya‘ni chetdan keltiriladigan ip-gazlamalarga boj belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining huquqini kengaytirish, hindlarni boshqarish ishlariga jalb etish, texnik ta‘limni uyushtirish va boshqalar edi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu partiya katta mavqega ega bo‘la bordi.

1890-yilda „so‘l“ — radikal oqim shakllandi. Unga Bal Gangadxara Tilak (1856—1920) rahbarlik qildi. U hind xalqining milliy ongini uyg‘otish, milliy g‘ururini ko‘tarish yo‘lidan bordi. Dinga, uning ommani uyushtiruvchi kuchiga katta baho berdi. Tez orada u Puna shahrida mustaqil o‘rta maktab tashkil qildi. Maktab o‘quvchilar ongiga vatanparvarlik g‘oyalarini singdira boshladi. Tilak „Kesari“ (Sher) gazetasini tashkil etdi. Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qildi. Hindiston sharoitida qurolli qo‘zg‘olon yo‘li bilan ozodlikka chiqishning iloji yo‘qligini anglagan Tilak „kuch ishlatmaslik“ yo‘lini tanladi. Bu usulda asosiy e‘tibor ingliz tovarlarini boykot qilishga qaratildi. „Xudo Hindistonni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas“, der edi Tilak.

Tilak tarafdorlari ommani mustamlakachilarga qarshi nafrat ruhida tarbiyalashardi. Bundan xavfsiragan inglizlar 1897-yili Tilakni bir yarim yilga qamadilar. Lekin tez orada ozod qilishga majbur bo‘ldilar.

### **Bengaliyaning bo‘linishi**

Milliy-ozodlik harakatini bo‘g‘ishga intilib, ingliz mustamlakachilari 1905-yilda Bengaliyani ikki qismga bo‘lib tashlashdi. Chunki, Bengaliya mustamlakachilikka qarshi kurashning eng kuchli harakat markazlaridan biriga aylangan edi. Bu tadbir aks ta‘sirga ega bo‘ldi. Hindistonda milliy-ozodlik harakati yangidan kuchayib

ketdi. Kalkuttada namoyish bo‘lib, unda 100 ming kishi qatnashdi. Norozilik chiqishlari birin-ketin mamlakatning katta qismini egalladi.

1906-yil dekabrda „so‘l“ radikal oqim talabi bilan Hindiston milliy kongressi qo‘shimcha qaror qabul qildi. „Svaraj“ („o‘z hokimiyatimiz“), „Svadeshi“ („o‘z ishlab chiqarishimiz“), „Ingliz mollariga boykot“ xalq orasida katta e‘tibor qozondi. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. Boshqaruvni hindlashtirishga, mahalliy burjuaziyani fabrika va zavod qurishga chaqirdi.

„Svaraj“, „Svadeshi“ dasturi ommaga katta ta‘sir ko‘rsatdi. 1908-yili Bombay viloyatining Surat shahrida Hindiston milliy kongressining qurultoyi chaqirildi. Mo‘tadil oqim ingliz imperiyasi tarkibida qolish, ayni paytda, o‘z-o‘zini boshqarish huquqi berilishi tarafdorlarining fikri ma‘qullandi. Radikal oqim (Tilak boshliq) HMK tarkibidan chiqarildi.

Ingliz ma‘murlari tez orada qonunga xilof majlislar va matbuot haqida taqiqlovchi qonunlar chiqardilar va shafqatsiz qatag‘onga zo‘r berdilar. Ish tashlash harakatining rahbarlarini sud qilindan otishga hukm qilina boshlandi. Shu yo‘l bilan Hindistondagi ozodlik harakatini vaqtincha bostirishga muvaffaq bo‘lindi.

**Urush arafasida** Hindistonning mahalliy hukmron doiralari ingliz mustamlakachi ma‘muriyati bilan kelishib, 1909-yilda „Hindiston kengashlari haqida qonun“ nomli hujjat qabul qildi. Bu qonunga ko‘ra, aholining faqat yarim foizigina saylov huquqini oldi. Saylovlar diniy jamoa asosida o‘tkaziladigan bo‘ldi (ya‘ni hindlar va musulmonlar alohida-alohida ovoz beradigan bo‘ldilar). Bundan maqsad hindlar va musulmonlar o‘rtasiga nifoq solish edi.

Bu davrda Hindiston Buyuk Britaniyaning bo‘lg‘usi jahon urushi rejalarida muhim rol o‘ynay boshladi. Shuning uchun ham u Hindistondagi vaziyatni yumshatishga intildi. Chunonchi, 1911-yili mustamlaka ma‘muriyati ish vaqtini 12 soat bilan cheklash haqida qonun qabul qildi.

1911-yil mehnatkashlarning harakatlaridan cho‘chigan mustamlaka ma‘murlari bo‘lib tashlangan Bengaliyani birlashtirishga majbur bo‘ldilar. Poytaxt xavfsizroq hududda joylashgan Dehliga ko‘chirildi.





### ***Savol va topshiriqlar***

1. Hindistonning qay tarzda Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanganligini eslang.
2. Ingliz mustamlaka zulmining ayanchli oqibatlariga misollar keltiring.
3. Hindiston xalqining milliy-ozodlik harakatida Hindiston milliy kongressining tutgan o'rnini haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. **Qiyosiy tahlil qiling:** Hindiston va Xitoy taraqqiyotining o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarini qayd eting.

**O'ylab ko'ring-chi:** Nega HMK kurashning tinch yo'lini tanlagan?



### **XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Eron**

#### **Buyuk Britaniya va Rossiyaga qaramlikning kuchayishi**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Eron dunyo sarmoyador davlatlarining yarim-mustamlakasiga aylandi. Shoh tuzumi va mustamlakachilik zulmi xalq ahvolini yanada og'irlashtirdi. Mamlakatda noroziliklar kuchaydi.

Erondagi mustabid hokimiyat yirik yer egalari, viloyat hokimlari hamda urug'larning xonlariga tayanar edi. Eronda sanoatning burjualashuvi sust kechdi. Yer dehqonlarni ekspluatatsiya qilib kelayotgan mulkdorlar qo'lida edi. Shaharlarda yashovchi hunarmandlar va mayda savdogarlar kabi dehqonlar ham sudxo'rlar tomonidan qarzga botirilgandi.

Eron yirik yer egalari, savdogarlari va sudxo'rlari shoh hokimiyatini cheklab qo'yishni, o'z mulklarining daxlsiz bo'lishini, gubernatorlar va xonlar o'zboshimchaligiga barham berishni, eronlik sarmoyadorlarning huquqlarini chet ellik kapital egalari bilan teng qilib qo'yilishini talab qildilar.

Eronga kapital chiqarish bo'yicha Buyuk Britaniya birinchi o'rinda edi. 1872-yili Eron neft konlaridan foydalanish, tosh va temiryo'l qurish konsessiyalari olindi. 1889-yili ingliz monopoliisti Reyter Eronda „Shahanshohbank“ ochishga erishdi. Shartnomaga ko'ra, bank qog'oz pullar chiqarish va mamlakat yerosti boyliklaridan erkin foydalanish huquqini oldi. Birinchi jahon

urushi arafasida Eron Buyuk Britaniyadan 9,6 million funt sterling qarz bo'lib qoldi.

Eronni qaram qilishda Rossiya ham ishtirok etdi. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi 164 million rublni tashkil etdi. Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni ham kuchaytirdi. Ayniqsa, ruslarning shoh saroyiga ta'siri kuchli edi. Inglizlar esa boshqa yo'ldan bordilar. Ular Fors viloyatidagi baxtiyorlar qabilalarini, Huziston xonlarini markazga, shoh hukmronligiga qarshi gijgijlab turdilar.

### **Eron inqilobi**

Ichki ijtimoiy ziddiyatlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy siquvlar Eronda 1905-yili inqilobiy harakat boshlanishiga sabab bo'ldi.

Aholi butun mamlakat sanoat tarmoqlariga xo'jayinlik qiluvchi rus-ingliz sarmoyadorlarini mamlakat hududidan chiqarib yuborishni talab qildi.

Mamlakatda umumiy ish tashlash yuz berdi. Shoh hukumati ish tashlovchilardan shafqatsiz o'ch olishga kirishdi. Bunga javoban xalq harakati boshlanib ketdi. Unda kurashning best usuli qo'llandi. Bestda o'tirgan odamga jazo chorasi qo'llash mumkin emas edi. Namoyishchilar „adolatxona“ tashkil etish, shafqatsiz amaldorlarni haydash talabi bilan chiqdilar.

Shoh xalq harakatiga qarshi qo'shından foydalanmoqchi bo'ldi. Biroq, qo'shin xalqqa o'q uzishdan bosh tortdi. Natijada, 1906-yilning 5-avgustida shoh konstitutsiya qabul qilish haqida farmon chiqarishga majbur bo'ldi. Lekin, farmon ijrosiz qolgach, xalq yana qo'zg'aldi. Buning oqibatida Tabrizda Eron tarixida birinchi parlament — Majlis tuzildi. Majlis Eron sotsial-demokratlari ta'siri ostida edi. 9-sentabrda shoh xalq tazyiqi bilan Majlisga saylovlar o'tkazish haqida farmon chiqardi. Kojarlar (ya'ni shoh urug'iga mansublar), ruhoniylar, savdogarlar, zamindorlar va dehqonlar, hunarmandlar—jami 6 ijtimoiy qatlam saylov huquqiga ega bo'ldilar.

1906-yilda Majlisga saylov o'tkazildi. Shoh Muzaffariddin konstitutsiyaning birinchi qismini tasdiqladi. Unga binoan, shohga barcha qonunlarni tasdiqlash, budjet qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish huquqi berildi. Chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Majlisning roziligi olinishi belgilab qo'yildi.



1907-yilda shoh Muzaffariddin vafot etgach, taxtga mustabid tuzum tarafdori, yangilikka qarshi Muhammad Alishoh o'tirdi. U inqilobiy o'zgarishlarga qarshi kurashni rejalashtirdi. Yangi shoh Majlisga qat'iy qarshi edi. Lekin, inqilobiy harakat ko'lami uni Eronda konstitutsiyaviy tartibni saqlab turishga majbur etdi. Shu bilan 1905—1907-yillardagi Eron inqilobining birinchi bosqichi tugadi.

### **Inqilobning ikkinchi davri**

1907—1911-yillar Eron inqilobining ikkinchi davri deyiladi. Harakat endi, asosan, mustamlakachilarga qarshi qaratildi.

Shahar kambag'al qatlamlari ham o'z talablari bilan chiqishdi.

Ayniqsa, mujohidlar tashkiloti katta ta'sirga ega bo'ldi. Ular yashirin saylov huquqi, jamiyatlar tuzish, shaxs erkinligi, shoh yerlarini musodara qilish, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy qilish kabi talablar bilan chiqdilar.

Demokratik harakat ta'siri ostida shoh zamindor zodagonlarning nafaqasini qisqartirdi. Feodal zamonga xos bo'lgan unvonlarni bekor qildi. Poraxo'rlik, tamagirlikka qarshi kurash to'g'risida qonun e'lon qildi. Shoh Eron konstitutsiyasining eng muhim demokratik mazmundagi moddalarini tasdiqlab imzo chekishga rozi bo'ldi. Qonun oldida hamma teng, shaxs va mulk daxlsizligi, jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazish, dunyoviy sud (shariat sudi bilan bir qatorda), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarini ajratish kabi moddalar muhim ahamiyatga ega edi.

Ayni paytda, shohga katta huquqlar ham berildi. Chunonchi, shoh javobgarlikdan ozod shaxs, Bosh qo'mondon sifatida urush e'lon qilish, sulh tuzish, vazirlarni tayinlash va bo'shatish kabi huquqlarga ega edi. Shohning konstitutsiya va qonunlarga sodiqlik haqida qasamyod qilishi qoida qilib qo'yildi. Qabul qilinayotgan qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun besh ulug' ulamo tayinlanadigan bo'ldi.

### **Buyuk Britaniya—Rossiya bitimi**

Ingliz-rus mustamlakachilari Erondagi inqilobiy o'zgarishlarga befarq qarab turmadi. Ular Eronga nisbatan zo'rvonlik siyosati yuritdilar. 1907-yilda Buyuk Britaniya-Rossiya bitimi imzolandi. Bitimga ko'ra, Eron uch qismga bo'lindi. Shimoliy Eronning Rossiya, Janubiy Eronning Buyuk Britaniya ta'sir doirasida bo'lishi tasdiqlandi. Eronning o'rta qismi esa betaraf deb e'lon qilindi. Ayni paytda, bu davrda shoh inglizlar va ruslar yordamida 1908-yilda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazdi.

Rossiya kazak qo'shinlari Majlis binosini to'pga tutdi. Majlis tarqatib yuborildi. Demokratik matbuot taqiqlandi.

Majlis halokatga uchragach, inqilobiy harakat markazi Tabrizga ko'chdi. Shoh qo'shinlari Tabrizga hujum qildi va shaharni qamal qildi. Oqibatda, ocharchilik boshlandi. Tashqi dunyodan uzib qo'yilgan Tabriz qo'zg'oloni yengildi.

### **Buyuk davlatlarning Erondagi siyosati**

Tabriz qo'zg'oloni bostirilgani bilan shohga qarshi harakatlar to'xtamadi. 1909-yilda Tehronda Muhammad Alishoh taxtdan tushirildi. O'rniga o'g'li Ahmad shoh deb e'lon qilindi. Konstitutsiya tiklandi. Hukumat mamlakat iqtisodini o'nglash maqsadida chet eldan, chunonchi, Buyuk Britaniyadan 1 million 250 ming funt sterling qarz oldi. Ichki aksilinqilobchi kuchlar Rossiya va Buyuk Britaniya yordamida inqilobchilarga qarshi hujumga tayyorgarlik ko'rdilar. Nihoyat, Rossiya qo'shini 1911-yilda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazilishida qatnashdi. Shu tariqa Eron inqilobi bostirildi.

Erondagi 1905—1911-yillar inqilobi katta ijtimoiy hodisa—feodal-monarxiya tuzumidan konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish bosqichi bo'ldi.

Birinchi jahon urushi arafasida Eronning xorijga tobeligi yanada kuchaydi. 1912-yilda 1907-yilgi Rossiya-Buyuk Britaniyaning ta'sir doiralari haqidagi bitimini tan olishga majbur etildi. Rossiyadan 14 million rubl qarz olindi va Eron iqtisodiy, siyosiy jihatdan buyuk davlatlarga qaram bo'lib qoldi.



**Best** — masjid va qabristonlarda tinch o'tirib, sust qarshilik ko'rsatish.

**Konsessiya** (lotincha — ruxsat etish) — davlat organlarining muayyan shartlar asosida yerosti boyliklari, yerusti obyektlarini ekspluatatsiyaga berish to'g'risidagi bitim.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Eron qay tariqa Buyuk Britaniya va Rossiyaning iqtisodiy hamda siyosiy ta'siriga tushib qoldi?
2. 1906-yilda qanday omillar shohni konstitutsiya joriy etishga majbur etdi? Bu konstitutsiya shohga qanday vakolatlar berdi?
3. Eron inqilobi birinchi va ikkinchi bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. Eron inqilobi qay tariqa bostirildi?



1906-yildagi Eron konstitutsiyasida mamlakatda qabul qilina-yotgan qonunlarning shariatga muvofiqligini 5 nafar ulamo nazorat qilishi belgilangan edi. Bu holatni hozirgi Konstitutsiyaviy sudning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkinmi?

## 31-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Afg'oniston

### Buyuk Britaniya va Rossiya to'qnashuvi

70-yillarda Afg'oniston Rossiya bilan Buyuk Britaniya o'rtasida bahsga sabab bo'lgan mamlakat bo'lib qoldi. 1873-yili Buyuk Britaniya Hindiston — Afg'oniston chegarasida harbiy kuch to'play boshladi. Afg'oniston amiri Sheralixon Rossiyadan yordam so'rab, elchi yubordi. Rossiya bunga javoban kichik harbiy qismini chegaraga yaqin joylashtirdi. Kobulga esa general Stoletov boshchiligida elchilik missiyasi yuborildi. Biroq, bundan ortiq harakatlarga jur'at eta olmadi. Bunga O'rta Osiyoni to'la bo'ysundirish hamda yaqinlashib qolgan Rossiya—Turkiya urushi muammolari imkon bermadi.

### Ikkinchi ingliz— afg'on urushi

1878-yili Sheralixon ingliz missiyasini Kobul shahrida qabul qilishdan bosh tortdi. Buyuk Britaniyaga bu Afg'onistonga qarshi bosqinchilik urushi ochishga bahona bo'ldi. 1878-yil noyabrda Afg'onistonga qarshi urush harakatlari boshlandi. Vafot etgan Sheralixon o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Yoqubxon 1879-yilda Gandamak bitimini imzoladi. Unga ko'ra, Afg'oniston amalda mustaqilligini yo'qotdi. Kobulda ingliz rezidensiyasi ochildi. Uning vazifasi afg'on amiri xatti-harakatlari hamda Buyuk Britaniyadan yuboriladigan qarzlar qanday sarflanayotgani ustidan nazorat qilish edi.

Amir Yoqubxonning taslimchilik siyosati mamlakatda keskin qarshilikka uchradi va Kobulda unga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Shaharliklar ingliz rezidensiyasiga bostirib kirib, uni egalladilar. Inglizlar Gandamak bitimidan keyin qaytarib olib ketgan qo'shinini yana Afg'onistonga tashlashdi va Kobulni qayta egalladi.

Bu orada Afg'onistonning sobiq amiri M. Afzalxonning o'g'li Abdurahmon qo'zg'olonchi qo'shini Kobulni o'rab oldi. Inglizlar tang ahvolda qoldilar. 1880-yilning boshida Abdurahmon Shimoliy Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Inglizlar Abdurahmon bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldilar. Kobul Abdurahmonga topshirildi. Qandahor Buyuk Britaniya ta'sir doirasida qoldi. Bularning evaziga Afg'oniston Bu-

yuk Britaniya hamda ingliz Hindistonidan boshqa biror chet el mamlakati bilan diplomatik aloqa qilmaslik majburiyatini oldi. Abdurahmon faqat ichki siyosatdagina nisbatan mustaqillikni saqlab qolishga erishdi.

Afg'oniston taxtining qonuniy vorisi amir Sheralixonning o'g'li Ayubxon Qandahorga yurish boshladi. 1880-yilda ingliz harbiy brigadasi yanchib tashlandi. Inglizlar yangi harbiy qismlar chiqirishga majbur bo'ldi. Bu yangi kuchlar Ayubxonni Hirotga chekinishga majbur etdi. Lekin, aholining qattiq qarshiligi tufayli inglizlar Qandahorni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, ikkinchi ingliz—afg'on urushi Buyuk Britaniyaning mag'lubiyati bilan tugadi.

### **Ichki nizolar**

Tez orada, endi taxt da'vogarlari o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. 1880-yili Abdurahmon Ayubxon qo'shinlarini qattiq talafotga uchratdi. Ayubxon chet elga qochishga majbur bo'ldi. Afg'onistonda Abdurahmonning to'liq hokimiyati o'rnatildi. Amir Abdurahmon davrida (1880—1901-yillar) Afg'oniston qiyin iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni boshidan kechirdi. Inglizlar bilan urushlar ishlab chiqarishni izdan chiqardi. Kobul va boshqa shaharlar vayron qilingan edi.

Amir mamlakatda yopiq siyosat olib bordi. Chet elliklar, ayniqsa, yevropaliklarning bu mamlakatga kirishi taqiqlandi. Amir mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish uchun kurash olib bordi. Ma'muriy politsiya apparati (boshqarmasi) tuzildi. Uning harakati bilan xazinaga soliqlar tushishi birmuncha yaxshilandi. Karvon yo'llari xavfsizligi bir qadar ta'minlandi. Qaroqchilar shafqatsiz jazolanadigan bo'ldi. Ular temir qafaslarga solinib, yo'l yoqasidagi ustunlarga osib qo'yilar, ochlik hamda tashnalikda o'limga mahkum qilinar edi. Diniy ulamolarni o'z tarafida tutish uchun Abdurahmon ularga maosh belgiladi. Vaqf mulkini esa qisman davlatga o'tkazdi. Yagona pul birligi, mamlakat uchun bir xil tosh-tarozi va uzunlik o'lchovlari joriy qilindi. Bu tadbirlar tufayli Afg'onistonda savdo-sotiq, ishlab chiqarish va hunarmandchilik bir qadar rivojlandi.

### **Dyurand bitimi**

Afg'onistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalqaro ahvoli to'la ma'noda Rossiya va Buyuk Britaniyaning o'zaro munosabatlariga bog'liq edi. Amir Abdurahmon bu murakkab sharoitda ikki ulkan mustamlakachi davlat kelishmovchiliklaridan foydalandi. Natijada, Abdurahmon o'zining siyosiy mavqeyini mustahkamladi. Mam-

lakat hududini shimolda Amudaryogacha kengaytirib oldi. 1887-yilda turkmanlar yashaydigan joylarda afg'on—rus chegaralari qat'iy belgilab olindi.

Shundan keyin, Abdurahmon janubda — Hind daryosi bo'ylarida yashaydigan, lekin 1849-yilda inglizlarga bo'ysundirilgan afg'on qabilalarini o'z davlati atrofida birlashtirish harakatini boshlab yubordi. Amir Abdurahmon o'zini ularga diniy homiy qilib ko'rsatdi va inglizlarga qarshi kurashishga chorladi. Bu esa Buyuk Britaniya bilan urush xavfini tug'dirdi. Bundan cho'chigan Abdurahmon inglizlar bilan 1893-yilda bitim tuzishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, Afg'oniston janubidagi afg'on qabilalari hududlari Buyuk Britaniya qaramog'ida qolaveradigan bo'ldi. Inglizlar kelishilgan Dyurand chizig'iga (muzokara olib borgan inglizlar vakili Dyurand nomi bilan atalgan) qo'shin yubordilar. Bunga javoban tog'lik afg'onlar qo'zg'olon ko'tardilar.

**Habibulloxon davri** 1901-yili Abdurahmon vafot etdi. Amirlik taxtini o'g'li Habibullo egalladi. U otasi yo'lidan borib, afg'on qabilalarini birlashtirish siyosatini olib bordi. Inglizlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatishga urindi. Bunga javoban Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi iqtisodiy qamal siyosatini qo'lladi.

Ayni paytda, Buyuk Britaniya Afg'onistonga bitim taklif qildi. Unda tashqi savdo Buyuk Britaniya nazoratida bo'lmog'i, mamlakatda inglizlarning temiryo'l qurishiga rozilik berish, ingliz fuqarolarining Afg'onistonga erkin kirib-chiqishiga ruxsat berish talab qilingan edi. 1907-yili shu masalalar ko'zda tutilgan bitim imzolandi. Afg'oniston Buyuk Britaniya manfaatlari mintaqasi deb e'lon qilindi. Rossiya uchun esa savdo huquqlari berildi, xolos.

Afg'oniston XX asr boshida ishlab chiqarish sanoati yo'q, qoloq davlat bo'lib qolaverdi. Soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi.

**Ma'rifatchilik** Og'ir sharoitga qaramay, Afg'oniston tashqi dunyodan uzilib qolgan yo'q. Afg'onistonda ham respublikachilik harakati paydo bo'ldi. Bu harakat tarafdorlari „Yosh afg'onlar“ deb ataldi. Ular maktab-maorif, madaniyat, fan, texnika tarmoqlarini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo'lishini talab qildilar. Mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki boj to'lovlarini yo'qotish, qabilalar tengligiga erishish va ko'p masalalarda ilg'or qarashlarni ifoda etdilar. „Yosh afg'onlar“ harakatiga „Siroj ul-axbori afg'oniyah“ („Afg'on xabarlari chirog'i“) gazetasi

muharriri Muhammad Tarziy rahbarlik qildi. U Habibulloxonning uchinchi o'g'li Omonulloxonning qaynatasi edi.

Islotchilarning butun umidi shu Omonulloxonga qaratildi. Chunki, u „yosh afg'onlar“ ruhida tarbiyalangan edi.



**Missiya** (lotincha) — yuksak burch, mas'uliyatli vazifa; bir davlatning ikkinchi davlatga maxsus topshiriq bilan yuborgan vakillari.

**Rezidensiya** (lotincha) — bir davlat diplomatik vakillari qarorgohi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. 2- ingliz—afg'on urushining sabab va oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nega XIX asrning ikkinchi yarmida Afg'oniston Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida „talash“ mamlakat bo'lib qoldi?
3. Nega Afg'onistonni bo'ysundirish uchun Buyuk Britaniyaning olib borgan kurashi uzoq davom etgan?



## **XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiya**

### **Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli**

Turkiya monarxiya bo'lib, uni sulton boshqarardi. Mamlakatda o'rta asr feodal tartiblari hukmron edi.

Turkiya iqtisodining asosini tashkil qilgan qishloq xo'jaligi nihoyatda orqada qolgan edi. Haydaladigan yerlarning 65%i katta yer egalari va ruhoniylarga qarashli bo'lib, u yersiz va kam yerli dehqonlarga ijaraga berilardi. Mehnat unumdorligi kam bo'lganligi uchun, 1873—1875-yillardagi kuchli ocharchilik oqibatida ko'plab odamlar qirilib ketdi.

Shahar aholisining ham ahvoli og'irlashdi. Hunarmandchilik tushkunlikka uchradi. Eski tartiblar va xorijiy tovarlarning ko'pligi mamlakatda iqtisodiyotning taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Sanoatda o'sish yo'q edi. Chunki, sanoat uchun qishloq xo'jaligi zarur xomashyo yetkazib berishga qodir emas edi.

Sulton hukumati o'zining moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun chet eldan qarz ola boshladi. Chunonchi, 1870—1874-yillarda 3 mlrd. frankdan ortiq asoratli qarz olindi.

Davlatning moliyaviy ahvoli halokat yoqasiga kelib qoldi. Tashqi qarz yanada ko'payib, 5,5 mlrd. frankka yetdi. 1876-yilda hukumat Turkiyani moliyaviy bankrot deb e'lon qilishga majbur bo'ldi.

Og‘ir iqtisodiy ahvol bora-bora Turkiyani chet el davlatlarining yarimmustamlakasiga aylantirdi. Yevropa davlatlari imperiyaning mustamlakalarini tortib ola boshladilar. Faqat Germaniya imperiyadan ulush ololmagan davlat edi. Shuning uchun ham Turkiya hukumati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Germaniya bilan yaqinlashdi.

Germaniya kapitali katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi. 1888-yili bo‘lajak Bag‘dod temiryo‘li loyihasining Izmir — Anqara qismini qurish ularga tegdi. 1903-yili nemislar bu loyihani (Bag‘dod orqali Fors qo‘ltig‘igacha temiryo‘l qurish) to‘la qo‘lga kiritdi.

### **Konstitutsiyaviy monarxiya uchun kurash**

Turkiya 1875-yilda qarzlar uchun yiliga 570 mln. frankdan ortiq foiz to‘lashi lozim edi. Davlatning daromadi esa 380 mln. frankni tashkil etdi.

Turkiya qarzni to‘lash u yoqda tursin, ishlovchilarning ish haqini to‘lashga ham qodir bo‘lmay qoldi. Oqibatda, xalq ommasining turmush darajasi nihoyatda yomonlashdi. Shunday sharoitda „Yangi usmonlilar harakati“ vujudga keldi. Bu harakat a‘zolari sulton hokimiyatini tugatish g‘oyasini ilgari surdilar. Harakatning „Ibrat“ gazetasi ilg‘or demokratik g‘oyalar targ‘ibotchisiga aylandi. Millatparvar ziyolilar, ilg‘or fikrli amaldorlar va zobitlar ham bu harakatga qo‘shildilar.

Mamlakatda sulton hokimiyatini tugatish g‘oyasi shakllandi.

1876-yilda xalq qo‘zg‘oloni boshlandi. Xalq qo‘zg‘oloni hukmron tabaqalarni qo‘rqitib yubordi. Oqibatda, 1876-yilning 22-mayida Abdulaziz, Shayx ul-Islom fatvosi bilan taxtdan tushirildi. Bir qancha vaqtdan so‘ng taxtni Abdulhamid II egalladi.

1876-yil 23-dekabrda Turkiyada konstitutsiya e‘lon qilindi. Unga ko‘ra, mamlakatda ikki palatali parlament joriy etildi. Quyi palata Deputatlar palatasi deb, yuqori palata esa Senat deb ataldi. Konstitutsiya sultonga katta vakolatlar berdi. Fuqarolarning juda oz qismigina saylov huquqiga ega bo‘ldi.

### **„Birlik va taraqqiyot“ partiyasining hokimiyatga kelishi**

Abdulhamid II davri Turkiya tarixida „zulm davri“ nomini oldi. Sulton tez orada parlamentni tarqatib yubordi. Konstitutsiya tarafdorlarini quvg‘in qildi. Ularning ko‘pi o‘limga hukm qilindi. Mamlakat jaholat zulmatida qoldi. 1889-yili Istanbulda harbiy-tibbiy bilim yurti kursantlari yashirin „Birlik va taraqqiyot“ tashkilotini tuzdilar. Tashkilotning sho‘balari butun Turkiyaga tarqaldi va mamlakatda konstitutsiyaviy tartib o‘rnatish





haqida tashviqot boshlandi. Keyinchalik, bu jamiyat kuchli siyosiy partiyaga aylandi. Sulton Abdulhamid II 1897-yili tashkilot ustidan sud uyushtirdi. 13 kishi o'limga hukm qilindi. „Birlik va taraqqiyot“ partiyasi a'zolari va shunga o'xshash siyosiy to'garakka ishtirok etganlar umumiy nom bilan „Yosh turklar“ deb ataldi.

„Yosh turklar“ 1902-yilda Parij shahrida o'zlarining birinchi qurultoyini o'tkazdilar. Unda bekor qilingan konstitutsiyani tiklash haqida qaror qabul qilindi.

1907—1908-yillarda Turkiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. 1908-yil 3-iyul kuni „Yosh turklar“dan bo'lgan qo'shin zobitlari rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Unga Niyozbiy rahbarlik qildi. U „Birlik va taraqqiyot“ partiyasi a'zosi, harbiy garnizon qo'mondoni edi. 1908-yil 20-iyulda Monastir shahrida „Birlik va taraqqiyot“ partiyasi tantanali bir vaziyatda konstitutsiya tiklanganligini e'lon qildi va sultondan bu masalada farmon berishni talab qildi. Qo'shin „Yosh turklar“ tomonida ekanligi Abdulhamidni cho'chitib qo'ydi. U 1908-yilning 24-iyul kuni konstitutsiyani tiklashga majbur bo'ldi. Parlamentga saylov o'tkazishni va'da qildi. 1908-yilgi Turkiya inqilobi g'alaba qozondi.

### 1909-yil 13-aprel isyon

Biroq, eski tartib tarafdorlari har qanday islohotga qarshi edilar. Ularning ichida ruhoniylarning o'rni kuchli edi. Ruhoniylarning „Ittihodi Muhammadi“ partiyasi „Yosh turklar“ni xudoszlikda aybladi.

„Ittihodi Muhammadi“ partiyasining tarafdori bo'lgan harbiylar 13-aprelda aksilinqilobiy isyon ko'tardilar. Isyonchilar parlamentni bekor qilishni, shariat va sulton hokimiyatining tiklanishini talab qildilar. Abdulhamid II ga aynan shu kerak edi. Shuning uchun ham u isyonchilar talabini tezda bajardi.

„Yosh turklar“ arboblardan bir qismi Saloniki va Adrianopolga qochib ketdilar. Saloniki va Adrianopoldagi harbiy qismlar „Yosh turklar“ tarafida edi. „Yosh turklar“ o'zlariga sodiq harbiy qismlari bilan 26-aprelda isyonchilar hukumatini ag'darishdi. Sulton Abdulhamid taxtdan ag'darildi. Taxtga uning ukasi Mahmud V Rishod (1909—1918) o'tqazildi. Parlament qayta tiklandi.

### Ichki va tashqi ahvol

„Yosh turklar“ inqilobi buyuk davlatlarni tashvishga solib qo'ydi. Ular Turkiyadagi ichki siyosiy beqarorlikdan foydalanib, yanada ko'proq o'ljaga ega bo'lib olishga harakat qilganlar.

1911-yilda Italiya Liviyani bosib olgach, Buyuk Britaniyaga xayrxoh „Hurriyat va birdamlik partiyasi“ „Yosh turklar“ hukumatini noqobillikda aybladi. Ular 1912-yil 5-avgustda mamlakatda davlat to‘ntarishi o‘tkazishdi.

Tez orada, Turkiyaning tashqi ahvoli yanada yomonlashdi. 1- va 2- Bolqon urushlarida Turkiya Bolqondagi ta’siridan deyarli to‘la ajraldi. Bu hodisa „Hurriyat va birdamlik“ hukumatini og‘ir ahvolga solib qo‘ydi.

Shunday sharoitda, „Yosh turklar“ rahbarlaridan biri Anvar-bey boshchiligida 1913-yilning yanvarida isyon ko‘tarildi. „Hurriyat va birdamlik“ hukumati ag‘darildi. Hokimiyat yana „Yosh turklar“ qo‘liga o‘tdi.

Hokimiyat 3 kishidan iborat „Uchlik“ deb atalgan guruh (Anvar, Tal‘at va Jamol) qo‘liga o‘tdi. Uchlikka Anvar poshsho rahbarlik qildi. „Uchlik“ Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini davom ettirdi.

„Uchlik“ning Germaniya bilan yaqinlashishi Germaniyaning Turkiya imperiyasi hududlariga da’vo qilmayotganligi bilan izohlandi.

Germaniya *pan Turk* va *panisлом* mafkuralarini o‘ziga shior qilib olgan „Uchlik“ni qo‘llab-quvvatlay boshladi. Bu mafkura g‘oyalari Antanta manfaatlariga zid edi.

Bundan tashqari, Germaniya Turkiya imperiyasining bo‘linishiga qarshi chiqq boshladi. Bunday sharoitda Germaniya „Yosh turklar“ ko‘z o‘ngida Turkiyaning yagona „himoyachisi“ga aylandi. Endi Germaniya Turkiyani ittifoq shartnomasi tuzishga unday boshladi. Va nihoyat, 1914-yilning 2-avgustida maxfiy suratda ittifoq shartnomasi tuzildi. Bu shartnomani imzolash bilan Turkiya hukmron doiralari imperiyani halokatga mahkum etdilar.



**Panislomizm** — XIX asr oxirida butun musulmon olamini mustamlakachilarga qarshi kurashda birlashtirish to‘g‘risidagi harakatga Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari, shuningdek, sobiq Ittifoq tomonidan berilgan sun‘iy nom.

**Panturkizm** — turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasiga Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari, shuningdek, sobiq Ittifoq tomonidan berilgan rasmiy nom.

**Senat** (lot.) — qadimgi Rimda respublika davrigacha urug‘ oq-soqollarining yig‘ini.

**Yosh turklar** — 1889-yilda tashkil etilgan turk burjua-pomeshik partiyasi. „Birlik va taraqqiyot“ partiyasi a’zolarining yevropacha nomi.



## ***Savol va topshiriqlar***

1. Bir vaqtlar dunyoning kuchli davlati bo'lgan, mustamlakalari uch qit'aga yoyilgan Usmonli turklar imperiyasi nega XIX asr oxiri — XX asr boshlarida amalda yarimmustamlaka holatiga tushib qoldi?
2. „Iqtisodiy bilim asoslari“ fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, „moliyaviy bankrot“ tushunchasini izohlab bering.
3. Turkiyada qay tariqa konstitutsiyaviy monarxiya qaror topdi?
4. Nima uchun sulton Abdulhamid II hukmronligi davri Turkiya tarixida „zulm davri“ deb nom olgan?
5. „Yosh turklar“ inqilobi qay tariqa g'alaba qozondi?
6. „Yosh turklar“ hukumatining Germaniya bilan yaqinlashishidan ko'zlagan maqsadlari nimalardan iborat edi?
7. Turkiya Germaniya bilan ittifoq shartnomasi imzolamasligi mumkin edimi? Agar mumkin bo'lmagan bo'lsa, nima uchun shunday edi?

## **VI bob**

### **XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA AFIKA MAMLAKATLARI**

#### **33-§.**

#### **Shimoliy Afrika mamlakatlari**

##### **Ijtimoiy va siyosiy hayot**

Afrikaning shimoliy qismida, Sahroyi Kabirning (Sahara) janubiy chegarasiga qadar aholining ko'pchiligini arablar tashkil etardi. Bu hududlarda barbarlar, habashlar va boshqa xalqlar ham yashardi.

XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoli-sharqida, ya'ni arablar yashovchi hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi. Ulardan rasman Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirgan Misr, Tripolitaniya, Kirenaika (hozirgi Liviya) va Tunis esa amalda Turkiya sultonligiga itoat etmasdilar.

XIX asr oxirida Misr va Sudan Buyuk Britaniyaning, Tunis, Jazoir va Marokash Fransiyaning, Marokashning bir qismi Ispaniyaning, Liviya esa Italiyaning mustamlakalariga aylandi.

##### **Misrning asoratga solinishi**

Misrning XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi tarixi Turkiya hukmronligidan ozod bo'lish va inglizlarning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash bayrog'i ostida o'tgan o'zgarishlar davri bo'ldi.

Musulmon ruhoniylaridan al-Azhar madrasasida mudarris bo'lgan Jamoliddin al-Afg'oniy va uning shogirdlari milliy-ozodlik harakatida katta obro' qozonishdi. Ular barcha musulmonlarni mustamlakachilarga, Turkiya zulmiga qarshi birlashuvga, konstitutsiyaviy tuzum o'rnatilishiga chaqirdilar. 1871-yilda Jamoliddin al-Afg'oniy „Xizb ul-Vatan“ („Vatan partiyasi“) partiyasini tuzdi. Bu partiya chet elliklarga qarshi „Misr misrliklarniki“ shiori ostida kurashdi.



**Suvaysh kanali.**

„Vatan“chilar hukmdor (Hadiv)ning huquqini cheklovchi konstitutsiya uchun kurashdilar. 1882-yil 7-fevral kuni Hadiv yangi qonunga imzo chekishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, hukumat Deputatlar palatasiga bo'ysunadigan, parlament budjet ustidan nazorat qilish huquqini oladigan, birorta qonun deputatlar palatasi ruxsatisiz qabul qilinmaydigan bo'ldi. Bularning hammasi feodal mustabid tuzumidan burjua parlament tuzumiga o'tish yo'lidagi katta g'alaba edi.

Chet elliklar Misr hukumatiga ultimatum yuborib, amaldagi hukumatni tarqatishini talab qildilar. Mustamlakachilarning bu talabi bajarilmadi. Bunga javoban Buyuk Britaniya 1882-yilda Iskandariyani to'plardan o'qqa tutdi. Uning desanti shaharni egaladi. Bunga qarshi, Misr qo'shini rahbarlaridan biri Ahmad Orabibey Qohirada oliy davlat organi — Muvaqqat kengash tuzdi. U 60 ming kishilik qo'shin to'pladi. Ko'p o'tmay inglizlar Suvayshni bosib oldilar va Qohiraga yurish boshladilar. 1882-yil sentabrda Misr qo'shinlari yengildi. Polkovnik Ahmad Orabibey Seylon oroliga umrbod surgun qilindi. Shunday qilib, Misr Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi.

Buyuk Britaniya Misrda Usmonli turk imperiyasi hokimiyatini rasman tugatmadi. Misr hadivlari sulolasi, Vazirlar kengashi nomiga bo'lsa ham saqlandi. Moliya ustidan nazorat to'laligicha ingliz maslahatchilariga o'tdi.

1888-yilda Istanbulda Suvaysh kanalidan foydalanish bo'yicha Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Fransiya davlatlari konvensiya imzolashdi. Unga ko'ra, ka-

naldan barcha davlatlar xoh urush, xoh tinchlik paytida bo'lsin erkin foydalanish huquqini olishdi.

Milliy-ozodlik uchun kurashning faol tarafdori bo'lgan „Vatan“ partiyasi inglizlar nazarida eng xavfli bo'lib chiqdi. Uni kuchsizlantirish uchun keskin choralar ko'rildi. Natijada, „Vatan“ partiyasi keng siyosiy kurash yo'lidan yakka terror yo'liga o'tib ketdi. Partiyaning „Al-Liva“ („Bayroq“) gazetasi taqiqlandi.

Ammo ozodlik harakati esa boshqa ko'rinishlarda davom etdi. Majlis vitse-prezidenti Saad Zaglul demokratik, milliy-ozodlik ruhidagi deputatlarni o'z atrofiga to'plab, majlis nomidan ingliz hukmronligiga qarshi hujjatni o'tkazishga erishdi.

**Mahdiylar qo'zg'oloni** XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Sharqiy Sudan Misr qaramog'ida edi. 1881-yilda sudanliklarning yetakchisi Muhammad Ahmad xalqni Misr—Turk zulmiga hamda yevropaliklarga qarshi muqaddas urushga chaqirdi. Muhammad Ahmad o'zini Mahdiy deb e'lon qildi. Gubernator Mahdiyini qamash uchun yuborgan 200 kishilik harbiy guruh yo'q qilib tashlandi.

1882-yilda Xartumga misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi. U mahdiylar harakatini bostirishga urindi. Lekin, mag'lubiyatga uchradi. Bu orada inglizlar Misrni bosib oldilar. 1883-yili general Xiks boshliq ingliz qo'shini Sudan ansorlari tomonidan qirib tashlandi. 1884-yili inglizlar Sudanga general Gordon boshchiligida harbiy qism yuborishdi. Biroq, bu qo'shin ham ansorlar tomonidan yo'q qilindi va Sudan ozod qilindi.

1885-yilda Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi. Qo'zg'olon rahbari Mahdiy Muhammad Ahmad vafot etib, uning birinchi xalifi (xaliflari to'rtta edi) Abdulloh hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Omdurman shahri poytaxt etib belgilandi. Mamlakat viloyatlarga bo'lindi. 200 ming kishilik qo'shin davlatning asosiy tayanchi bo'lib qoldi.

Biroq, mamlakatda ichki nizo kuchaydi. Aynan shu omil mahdiylarni kuchsizlantirdi. Bundan foydalangan Buyuk Britaniya Efiopiyani Sudanga qarshi gijgjladi. Natijada, 1885-yilda ikki o'r-tada urush harakatlari boshlandi. Efiopiya hukmdori Yo'xonni Abdullohga murojaat qilib, umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashga chaqirdi. Lekin, Abdulloh buning evaziga Yo'xonnidan islom diniga o'tishini talab qildi. Oqibatda, zarur bitim tuzilmay qoldi. Efiopiya—Sudan urushida ko'p qon to'kildi. 1889-yilda Efiopiya imperatori Menelik sudanliklar foydasini ko'zlovchi bitimni imzolashga majbur bo'ldi.

1889-yil avgustda esa Buyuk Britaniya — Misr birlashgan qo‘shinlari Sudan mahdiylari qo‘shini ustidan g‘alaba qozondi va Sudanning asosiy qismini bosib olishga erishdi.

### **Buyuk davlatlarning Shimoliy Afrikadagi siyosati**

1883-yil Tunisda Fransiya hukmronligi o‘rnatildi. Bungacha Fransiya Jazoirni ham egallagan edi. Jazoirda XIX asr oxirida 300 mingdan ortiq fransuz yashardi. Hosildor

yerlar fransuzlar qo‘lida edi.

1905—1906-yillarda Jazoirda mustamlaka zulmiga qarshi kurash boshlandi. 1912-yilda „Yosh Jazoir“ partiyasi tuzildi. Bu partiya sud ishlarida jazoirliklar uchun „mahalliy kodeks“ nomli kam-situvchi tartibni bekor qilish, soliq olishda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish, xalq maorifini kengaytirish, arablar uchun saylanadigan lavozimlarni ko‘paytirish kabi talablarni qo‘ydi.

Yevropa davlatlarining mustamlaka taqsimotida Fransiya Marokashga ham ega bo‘ldi. 1900-yili Italiya Fransiyaning Marokashga nisbatan huquqlarini tan oldi. Buning evaziga Italiya Liviyaga daxldor huquqqa ega bo‘ldi.

Fransiya Marokashga qarshi urush ochish uchun bahona qidirar edi. 1907-yilda Marokash shahrida fransuz shifokori o‘ldirildi. Shu bahonada Fransiya zudlik bilan urush harakatlarini boshlab yubordi. Qisqa vaqt ichida Fransiya Marokashning barcha asosiy shaharlarini bosib oldi. Marokashning ba‘zi hududlari esa Ispaniyaga berildi.

Liviya uzoq vaqt Turkiya mustamlakasi bo‘lib keldi. 1911-yil 29-sentabrda Italiya Liviyaga bosqinchilik urushi boshladi. Turkiya tayinli javob chorasi ko‘rolmadi. Oqibatda, 1911-yil 5-noyabr kuni Liviya Italiya mulki deb e‘lon qilindi.



**Ansorlar** (arabcha — yordamchilar, safdoshlar) — Muhammad (s.a.v.) sahobalari bir tabaqasining nomi. (Ular 622-yilda Makkadan Madinaga ko‘chib borgan musulmon muhojirlarga va Rasulullohga yordam bergan hamda Islom dinini qabul qilgan Madinaning avs va hazraj qabilalarining a‘zolari bo‘lganlar.)

**Mahdiy** (arabcha — Alloh tomonidan to‘g‘ri yo‘lga yetaklovchi) — Islomda oxirzamon bo‘lganida kelib, yerda adolat o‘rnata-di, deb ishoniluvchi payg‘ambar.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Shimoliy Afrikada arab davlatlari qay tariqa Turkiya mustamlakasiga aylanganligini eslang.
2. Shimoliy Afrikada qaysi buyuk davlatlarning manfaatlari to‘q-nashgan?

3. Misr xalqining milliy-ozodlik kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Mahdiylar qo'zg'oloni haqida so'zlab bering.

## 34-§.

### Tropik\* va Janubiy Afrika mamlakatlari

#### Tropik va Janubiy Afrika haqida

XIX asrning oxirgi choragida Afrikada mustamlaka bosqini yanada kuchaydi. Janubdagi qazilma boyliklarga boy yerlarda 70-yillarda olmos va 80-yillarda oltin konlarining topilishi yevropaliklarning „oqib kelishlarini“ yanada tezlashtirdi. Janubiy Afrikani mustamlaka qilishda Buyuk Britaniya asosiy rol o'ynadi. Ko'p o'tmay, bu yerga Germaniya ham kirib kela boshladi. Mozambik va Angola kabi yerlarni birlashtirishni portugallar o'z rejalariga kiritdilar. Asosiy mustamlaka o'choqlaridan biri — Bular Respublikasi (Transvaal va Oranj mustaqil respublikalari) bo'lib qoldi. 70-yillardan boshlab, Buyuk Britaniya o'z mustamlakalarini birlashtirib, federatsiya tuzishga urindi. Bular bu fikrga qo'shilmagach, Buyuk Britaniya 1877-yilda Transvaalni bosib oldi, Zulu-lendni ham o'ziga qarashli mustamlaka deb e'lon qildi.

#### G'arbiy va Sharqiy Afrika uchun kurash

G'arbiy Sudan, Senegal va Nil daryosi havzasi XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Fransiya, Gollandiya va Buyuk Britaniya o'rtasida raqobat maydoniga aylandi.

1892-yilda Fransiya G'arbiy Sudanni bosib oldi. G'arbiy sudanliklarning ozodlik kurashida Samori Ture nomi yorqin iz qoldirdi. U atoqli lashkarboshi va siyosatchi edi.

Fransuzlar 1898-yildagina uni taslim eta oldilar. Asir olingan Samori Gabonga surgun qilindi va o'sha yerda vafot etdi. 1900-yilda Chad ko'li atrofi bo'ysundirildi. 1904-yili esa Gvineya ko'rfazi bo'ylari ham Fransiyaga tobe etildi. Unga Fransiya Gvineyasi deb nom berildi.


Buyuk Britaniya, Fransiyadan keyin Belgiya ham Afrika yerlari uchun kurashga qo'shildi. 1883-yilda Kongo havzasidagi yerlar Belgiya mustamlakasi deb e'lon qilindi.

Ko'p o'tmay yevropaliklar Sharqiy Afrikaga ham kirib kela boshladilar. Nil daryosi boshlanish havzalarini ilmiy o'rganish bahonasi bilan yevropaliklar Buganda mamlakatini ochishdi. 1894-yili

\*Tropik Afrika deganda Markaziy Afrika tushuniladi.







XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Afrika davlatlari.

Buganda Buyuk Britaniya tomonidan tuzilgan Uganda protektorati tarkibiga kiritildi.

Zanzibar arab sultonligi ham qul savdosiga qarshi kurash bahonasi bilan nemislar, fransuzlar va inglizlar tomonidan bo'lib olindi. XIX asr oxirida Buyuk Britaniya Bunoro davlatini bosib oldi.

XX asr boshlarida G'arbiy Afrikaning Gambiya, Syerra-Leone, Oltin Qirg'og', Nigeriya, Senegal, Fransiya Gvineyasi, Fil Suyagi Qirg'og'i, Dagomeya — Fransiyaning; Togo, Kamerun— Germaniyaning; Gvineyaning bir qismi esa Portugaliyaning mustamlakasi edi. Yevropa mustamlakachilari turli boshqaruv tizimlari joriy qilishdi. Buyuk Britaniya mahalliy boshqaruv tizimlarini saqlab, ularni o'z manfaatlariga bo'ysundirdi. Fransiya esa o'z mustamlakalarida eski mahalliy boshqaruvni buzib tashlab, Fransiya-ga mos bo'lgan tartiblarni joriy etdi.

G'arbiy Afrikada mustamlakalar uchun kurashda Gollandiya, Belgiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va nihoyat AQSH manfaatlari to'qnashdi. Belgiya qiroli Kongoni ilmiy o'rganish assotsiatsiyasini tuzib, uning soyasida ustalik bilan ish olib bordi. Bora-bora u Belgiya mustamlakasiga aylandi. Kongoning bir qismi Fransiyaga, yana bir qismi esa Portugaliyaga tegdi.

### **Janubiy Afrika**

Janubiy Afrikada dunyoning eng yirik olmos konlari mavjud edi. Ingliz olg'ir (ud-daburon) siyosatchisi Sesil Rods „De Rods“ kompaniyasini tuzib, olmos konlarini o'z qo'liga kiritdi.

1887-yilda Transvaal oltin va mis konlari ochildi. Sesil bu konlarni ham egalladi. Uning tashabbusi bilan „Britaniya-Janubiy Afrika imtiyozli kompaniyasi“ tuzildi. Kompaniya „Keyptaundan Qohiragacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lishi kerak“, degan ma'noda bosqinchilik harakatlariga ruxsat oldi. Tez orada, Shimoliy Rodeziyada ingliz protektorati o'rnatildi. Buyuk Britaniya bur-larga qarshi yangi urushga tayyorlandi. 1899-yilda ingliz — bur urushi boshlandi. 1902-yili Bur Respublikalari (Transvaal va Oranj) Britaniya mulklari tarkibiga qo'shib olindi.

1910-yili Buyuk Britaniya mustamlaka hududlari bo'lgan Transvaal, Oranj, Natal, Kapni „Janubiy Afrika Ittifoqi“ nomi ostida birlashtirdi.

### **Madagaskarning egallanishi**

Hind okeanining g'arbida, Afrikaning janubi-sharqiy qirg'og'i yaqinida joylashgan bu orol buyuk davlatlar mustamlaka siyosatida alohida o'rin tutdi.

1883-yili Fransiya Madagaskarga urush e'lon qildi. 1885-yili bu urush tomonlar uchun noteng bitim bilan yakunlandi. Fransiya Madagaskar ustidan protektorat o'rnatdi va uning tashqi siyosatini nazorat qiladigan bo'ldi. 1896-yilda esa Fransiya Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi.

### **Zuluslar**

Buyuk Britaniya zuluslarni bo'ysundirish uchun shafqatsiz urush olib bordi. Zuluslar hukmdori Ketchvayo 1879-yilda uch to'qnashuv davomida inglizlarning 20 ming kishilik qo'shinini yakson qilib tashladi. Lekin, oxir-oqibatda Buyuk Britaniya to'plar yordamida ustun keldi va Zululend yerlarini egallab, uni 13 ta mayda hokimlikka bo'lib tashladi. Zululend hokimliklarini o'zaro urushtirib, o'z foydasiga ish ko'rish inglizlar hukmdorlariga xos xususiyatga aylandi.

### **Somali va Efiopiya**

Efiopiya va Somali 1869-yili Suvaysh kanali ochilishi tufayli alohida savdo-iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Bu hol mustamlakachilarni befarq qoldirmadi. Bundan sal oldin, 1867-yili inglizlar Efiopiyaga qarshi urush qilib, podsho („negus“ deb atalgan) Feodor II ning birlashtiruvchi siyosatiga putur yetkazdi. Turli dinlar o'rtasida nizo tufayli Feodor II ga qarshi bo'lgan ruho-niylardan foydalanib, inglizlar habash qo'shinlarini tor-mor qilishdi. Feodor II o'zini o'zi o'ldirdi. Hokimiyat tepasiga inglizparast kuchlar o'tqazildi. Biroq, inglizlar Efiopiya xalqining qattiq qarshiligiga uchrab, mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'lgan. 1889—1913-yillarda Qizil dengiz bo'yi va Somali yarimoroli Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya o'rtasida taqsimlab olindi.

Efiopiyada Italiya o'z mustamlaka rejalarini yuzaga chiqarishga urindi. Biroq, bunga erisha olmadi. Efiopiya o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

### **Gerero va namalar**

Janubiy Afrikaning shimoli-g'arbiy qismi 1883-yildan boshlab Germaniya tomonidan bosib olina boshlandi. Mahalliy gottentot va gerero qabilalari rezervatsiyalarga quvildi. Qolganlari nemis mustamlakachilariga qul bo'lib qoldi. 1904-yil barcha gerero qabilalari ozodlik uchun Samuil Magarero boshchiligida bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon boshladilar. Biroq, bu noteng kurashda qo'zg'olonchilar tor-mor etildi. Gererolardan tirik qolganlari mamlakat shimoliga qochib, jon saqlashga majbur bo'ldi.

Nama qabilalari ham qo'zg'olon ko'tardilar. Namalarning qo'zg'oloniga Xendrik Vitboy boshchilik qildi. Vitboy nama qabila-

larini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, u 1905-yilgi jangda halok bo'ldi. Uning o'limidan keyin ham namalar kurashni yana ikki yil davom ettirdilar. Lekin, zamonaviy nemis texnikasi ustunligi o'z kuchini ko'rsatdi. Germaniya bosqinchilari 200000 dan ortiq namalardan 140 mingini qirib tashladilar. Germaniyaga qarshi Sharqiy Afrikaning janubi va markazida (Tanganika) 1905-yilda ozodlik uchun boshlangan qo'zg'olon ikki yildan ortiq davom etdi. Nemis qo'shinlari 120 ming afrikalikni qirib tashlab, qo'zg'olonni bostirdilar. Bu hududda necha asrlardan buyon yashab kelgan katta-katta qabilalar tamomila yo'q bo'lib ketdi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Janubiy Afrika nega buyuk davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga sabab bo'lgan?
2. G'arbiy Afrikada qaysi buyuk davlatlar manfaatlari to'qnashgan?
3. Sharqiy Afrika qaysi buyuk davlatlar o'rtasida taqsimlab olindi?
4. Buyuk Britaniya va Bur Respublikalari o'rtasidagi urush qanday natija bilan tugagan? So'zlab bering.
5. Gerero va namalar kimlar edi?



Chavandozlar! Qani, otlaning darhol,  
Barchaga yetarli o'q-dori, qurol.  
Aslo ikki qilmang sardorning so'zin,  
Tunda yo'l bosing-u, tongda o'q uzing.  
G'aflatda qoldiring dushmanni har kez,  
Lekin chekinmoqni o'ylamang hargiz.  
Dunyoda bo'lmagan, bo'lmaydi hech ham,  
G'alaba ta'midin shirinroq bir ta'm.

*Xendrik Vitboy*

## **VII bob**

### **1914 — 1918- YILLARDAGI BIRINCHI JAHON URUSHI**



#### **Birinchi jahon urushining boshlanishi va borishi**

##### **Urushning boshlanishi**

Birinchi jahon urushining bosh sababi ikki harbiy-siyosiy guruh o'rtasida bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish uchun boshlangan kurash edi. Dunyoning yetakchi davlatlari o'z yovuz maqsadlari yo'lida ma'naviy tubanlikka ketib, boylik orttirish uchun

millionlab insonlarni qurbon qilishga bel bog'ladilar. 1914-yilning 28-iyulida serbiyalik millatchi G. Prinsip tomonidan Sarayevoda Avstriya-Vengriya taxti vorisi Frans Ferdinand o'ldirildi.

Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga juda haqoratli talablar qo'yilgan ultimatum yubordi. Serbiya hukumati ultimatumning faqat birgina talabiga, ya'ni suiqasd yuzasidan o'tkaziladigan tergov ishlarini Avstriya-Vengriya davlat huquqiy idoralari olib borishiga rozilik bermagan. Bu esa Avstriya-Vengriyaning 28-iyulda Serbiyaga urush e'lon qilishiga bahona bo'ldi. Serbiya ittifoqchisi Rossiya bunga javoban 29-iyul kuni qisman harbiy safarbarlik e'lon qildi.

Bundan Germaniya hukmron doiralari 1-avgustda Rossiyaga, 3-avgustda esa uning ittifoqchisi Fransiyaga urush e'lon qilish uchun bahona sifatida foydalandi. Ayni paytda, Germaniya Belgiyaning betaraflik maqomini buzib, bu davlatga hujum qildi. Belgiyaning betarafliigi to'g'risidagi xalqaro hujjatni bir vaqtlar Prussiya ham imzolagan edi. Biroq, 1914-yilda Germaniya hukumati bu hujjatni surbetlik bilan „bir parcha qog'oz“ deb atadi. Germaniyaning Belgiyaga hujumiga javoban Buyuk Britaniya Belgiyani himoya qilish bahonasi bilan 4-avgust kuni Germaniyaga urush e'lon qildi. Birinchi jahon urushi shu tarzda boshlanib ketdi. 15-avgust kuni Yaponiya Germaniyadan Xitoydagi mustamlaka hududlarini Yaponiyaga berish talabi bilan chiqdi. Rad javobini olgach, 23-avgustda Yaponiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Germaniya 1914-yilning oktabr oyida Usmonli turklar imperiyasini, keyinchalik Bolgariyani o'z tarafida turib urushda qatnashtirishga muvaffaq bo'ldi. Tez orada Kavkazorti, Suriya va Falastinda, Bolqon yarimorolida, shuningdek, Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalarida yangi frontlar vujudga keldi.

### **Yashin tezligida g'alabaga erishishning barbod bo'lishi**

Germaniya qo'shini generali fon Shliffen yashin tezligida g'alabaga erishish rejasini tuzib chiqqan edi. Rejaga ko'ra, Germaniya qo'shini betaraf Belgiya hududi orqali Fransiyaga hujum qilishi, Germaniya-Fransiya chegarasida to'plangan Fransiya armiyasini qurshab olib, uni kuzgacha tor-mor etishi va shu orqali Fransiyaning taslim bo'lishiga erishishi kerak edi. So'ngra, qisqa vaqt ichida Rossiyani ham tor-mor keltirish mo'ljallangan edi.

3-avgustda shiddat bilan hujumga o'tgan Germaniya qo'shini yaqin bir oy ichida Parijga yaqinlashib qoldi. Fransiyaning taslim bo'lishi muqarrardek edi. Hatto, hukumat vaqtincha bo'lsa-da, Parijdan chiqib ketishga majbur bo'ldi.



Biroq, Shliffen rejasi amalga oshmay qoldi. Bunga Fransiya hukumatining iltimosiga ko'ra 17-avgust kuni Rossiyaning Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi boshlangan hujumi sabab bo'ldi.

G'arbiy frontda Germaniya harbiy qudratining ma'lum darajada kuchsizlanishi Fransiyani saqlab qoldi. Nafaqat saqlab qoldi, bu hol Fransiya kuch to'plab qarshi hujumga o'tishiga imkon yaratdi. Germaniya rus qo'shinini Sharqiy Prussiyadan siqib chiqarsa-da, rus qo'shini Avstriya-Vengriyaga qarshi hujumini davom ettirdi.

Marna daryosi bo'yida Fransiya va Buyuk Britaniyaning birlashgan qo'shini 1914-yilning sentabrda Germaniya qo'shiniga qarshi hujumga o'tdi. Marna jangida har ikki tomondan 2 mln. ga yaqin jangchi qatnashdi. Bu jangda Buyuk Britaniya va Fransiya qo'shinining qo'li baland keldi.

Og'ir ahvolga tushib qolgan nemis qo'mondonligi 9- sentabrda butun G'arbiy front bo'ylab chekinishga majbur bo'ldi.

Marna jangida erishilgan g'alaba tufayli, Germaniyaning yashin tezligida g'alaba qozonish rejasi barbod bo'ldi.

### **Turkiyaning urushga kirishi**

Turkiya hukmron doiralarining aksariyati Germaniya tarafida turib urushda qatnashishni maqsadga muvofiq deb hisoblardi. Chunki, ularning fikricha, Turkiyaning o'zi bosib olishi mo'l-jallagan yerlari yo Rossiya qo'l ostida, yoki Buyuk Britaniya qo'l ostida edi.

Ana shu bosqinchilik niyatini amalga oshirish ilinji Turkiyani 1914-yilning 2-avgustida yashirin sharoitda Germaniya bilan ittifoq shartnomasini imzolashga olib keldi.

11-oktabr kuni Germaniya Turkiyaga katta miqdorda qarz taklif etdi. Turkiyadan shu qarzni olgan zahotiy oq urushga kirishga va'da oldi. Germanparast, harbiy vazir va bosh qo'mondon Anvar poshsho 29-oktabr kuni Turkiya flotiga nemis admirali Sushan qo'mondonligida Qora dengizga chiqishga va Rossiyaning hududlarini o'qqa tutishga buyruq berdi.

2-noyabr kuni Rossiya Turkiya hujumiga javoban unga urush e'lon qildi. Urush harakatlari uzunligi 350 km bo'lgan Kavkaz frontini vujudga keltirdi. 5—6-noyabr kunlari Buyuk Britaniya va Fransiya ham Turkiyaga urush e'lon qildilar.

1915-yilning 19-yanvarida Antanta harbiy dengiz kuchlari Turkiyaga qarshi Dardanell bo'g'ozida harbiy operatsiyalarni boshlab yubordi. Germaniya mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanib, Turkiyaga yordam ko'rsatdi.

Natijada, Buyuk Britaniya harbiy dengiz flotiga katta talafot yetkazildi. Bu operatsiya natijasida 200 ming ingliz soldati halok bo'ldi va yaralandi.

### **„Buyuk chekinish“**

Sharqiy front 1915-yilda asosiy urush harakatlari maydoniga aylandi. Germaniya va Avstriya-Vengriya o'z qurolli kuchlarining yarmiga yaqinini Rossiyaga tashlashga qaror qildi. Ittifoqchilarning qo'shinlari 1915-yilning bahorida hujum harakatlarini Galitsiyadan (G'arbiy Ukraina) boshladilar. Natijada, 1915-yilning bahori va yozida rus qo'shini qonli mudofaa janglari olib borishga majbur bo'ldi. Rus qo'shini mislsiz darajada talafot ko'rdi. Chunonchi, 850 ming soldat va zobit halok bo'ldi. 900 ming nafari esa asirga tushib qoldi.

Rus qo'shini qattiq qarshilik ko'rsatsa-da, kuchlar noteng bo'lgan janglar natijasida Polshani, Boltiqbo'yi, G'arbiy Belorus va G'arbiy Ukrainaning bir qismini tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Bu chekinish birinchi jahon urushi tarixiga „buyuk chekinish“ nomi bilan kirdi.

### **G'arbiy frontdagi ahvol**

Sharqiy frontdagi dastlabki muvaffaqiyatlardan ruhlangan Germaniya G'arbiy frontdagi ahvolini ham o'zgartirib olmoqchi bo'ldi. Bu o'rinda u mutlaqo yangi qurol—suvosti kemalariga katta umid bog'ladi.

Ayni paytda, Germaniya harbiy harakatlar hududlaridagi har qanday suvosti kemalarini ham cho'ktirib yuborish niyatida edi. Shunday qildi ham. Chunonchi, 1915-yilning 7-may kuni Germaniya suvosti kemalari Buyuk Britaniyaning „Luzitaniya“ deb ataluvchi ulkan yo'lovchilar tashish kemasini cho'ktirib yubordi. Uning bortida jami 2000 ga yaqin yo'lovchi (shu jumladan, 126 nafar AQSH fuqarosi) bor edi.

Yo'lovchilarning yarmidan ko'pi halok bo'ldi. Bundan tashqari, Germaniya floti tomonidan yuzlab yuk kemalari yo'q qilib tashlandi.

Germaniya faqat suvosti kemalaridangina foydalanib qolmadi. U 1915-yilning 25-aprelida Ipr jangida urushlar tarixida birinchi marotaba kimyoviy qurol—zaharli gaz (xlor) ishlatdi. Buning natijasida 15000 kishi zaharlandi. Ulardan 5 mingi vafot etdi. Biroq, bu qurol ham Germaniya kutgan natijani bermadi. Antanta qo'shini tez orada gazga qarshi himoya vositasi (protivogaz) bilan ta'minlandi.

### **Italiyaning urushga kirishi**

Italiya rasman „Uchlar ittifoqi“ning a'zosi bo'lsa-da, uning maqsadi urushda kimning qo'li baland kelishiga amalda ishonch



hosil qilish hamda qaysi tomon Italiyaga urushdan so'ng ko'p o'lja va'da qilishini kutib turish edi.

Antanta Italiyaga u so'ragan hududlarning barchasini berishga rozi bo'ldi. 1915-yilning 26- aprelida Antanta bilan Italiya o'rtasida Londonda shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Italiya bir oy o'tgach o'zining sobiq ittifoqdoshlariga qarshi urushga kirishi zarur edi. Bu majburiyat Buyuk Britaniyaning Italiyaga 50 mln. funt sterling hajmda qarz berishi bilan mustahkamlandi.

3-may kuni Italiya hukumati „Uchlar ittifoqi“ to'g'risidagi shartnomadan chiqqanligini bildirdi. 23- may kuni esa Avstriya-Vengriyaga qarshi urush e'lon qildi. Italiyaning Antanta tomoniga og'dirilishi Germaniya diplomatiyasining katta mag'lubiyati edi.

### **Yaponiyaning Uzoq Sharq va Tinch okeandagi harakatlari**

Yevropada borayotgan urush harakatlari Uzoq Sharq va Tinch okeandagi Yaponiyaning harbiy harakatlari uchun qulay sharoit tug'dirdi. U 1915-yilning 18-yanvarida Xitoy hukumati oldiga Shandun viloyatini Germaniya ta'sir doirasidan Yaponiya ta'sir doirasiga o'tkazish; Sharqiy Ichki Mo'g'iliston va Janubiy Manjuriyada Yaponiyaning mavqeyini yanada mustahkamlashga imkon berish; Port-Artur, Janubiy Manjuriya va Andun-Mukden temiryo'llarining ijara muddatini yana 99 yilga uzaytirish; Yaponiya fuqarolarining Janubiy Manjuriya va Sharqiy Ichki Mo'g'ilistonda yer maydonlariga ega bo'lish kabi talablarni qo'ydi. Ayni paytda, Yaponiya voqeaga AQSHning aralashuvi mumkinligidan tashvishga ham tushib qoldi. Shu tufayli, Xitoy oldiga qo'ygan qator talablaridan voz kechdi.

8-may kuni Xitoy Yaponiyaning biroz yumshatilgan talablarini qabul qildi.

Rossiya qo'shinining 1915-yilgi buyuk chekinishi Bolgariyani kimning tarafida urushga kirishi masalasini hal etdi.

1915-yilning 6-sentabr kuni Avstriya-Vengriya va Bolgariya, 15-sentabr kuni esa Bolgariya va Turkiya o'rtasida ittifoqchilik shartnomalari imzolandi. Shu tariqa „To'rtlar ittifoqi“ vujudga keldi.

14-oktabr kuni Bolgariya, Germaniya, Avstriya-Vengriya qo'shinlari Serbiyaga hujum qildilar. Shu tariqa, Serbiya bosib olindi.



**Buyuk chekinish** — rus armiyasining 1915-yil bahor va yozida og'ir talafotlar bilan chekinishi.

**„To'rtlar ittifoqi“** — 1915-yil 15-sentabrda Bolgariyaning Germaniya, Avstriya-Vengriya va Turkiya ittifoqiga qo'shilishi natijasida vujudga kelgan ittifoq.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Urush qay tariqa boshlanib ketdi?
3. Germaniyaning yashin tezligida g'alabaga erishish rejasi qay tariqa barbod bo'ldi?
4. Nega Italiya „Uchlar Ittifoqi“ shartnomasidan chiqib ketdi?
5. Yevropadagi urush harakatlaridan Yaponiya qay tariqa foydalanib qoldi?



Buyuk Britaniya davlat arbobi Lloyd Jorjning quyidagi so'zlariga sharh bering:

„Tarix o'zining xudbinlarcha qaysarligi bilan quroldosh rus o'rtoqlarini halokatga duchor etgan Fransiya va Buyuk Britaniyaning harbiy qo'mondonligidan javob talab qiladi. Holbuki, ular ruslarni osongina qutqarishi mumkin edi“.



36-§.

### **1916—1917-yillardagi urush harakatlari**

#### **Verden jangi**

Germaniya hukmron doiralari Rossiyani tormor eta olmagach, yana asosiy e'tiborni G'arbiy frontga qaratdi. Bundan ko'zlangan maqsad—Fransiya taqdirini uzil-kesil hal etish edi. Shuning uchun Germaniya Fransiyaning Verden qal'asiga hujum uyushtirdi. Chunki, bu qal'a Parijning yo'lini to'sib turar edi. Germaniya qo'shinining hujumi 1916-yilning 21-fevralida boshlandi va 21-martgacha davom etdi. Nemis piyoda askarlari hujumga ko'tarilganda fransuzlar kutilmaganda ularni to'plardan qattiq o'qqa tutdilar.

Nemis qo'shini atigi 7 km oldinga siljiy oldi. Germaniya qo'shinining Verden yo'nalishidagi harbiy harakatlari shiddatini yanada kamaytirish maqsadida Fransiya bosh qo'mondonligi nemislarning Somma daryosi bo'ylab o'tgan mudofaa chizig'ini yorib o'tishga qaror qildi. Fransuz va ingliz qo'shini 1-iyulda Somma daryosi bo'yida hujumga o'tdilar. Bu qonli jang 18-noyabrgacha davom etdi.

Bu jangda inglizlar urushlar tarixida birinchi bor yana bir yangi qurol — tankni ishga soldilar. Po'latdan yasalgan bu dahshatli qurol dushman qo'shinini dastlab qattiq sarosimaga solib qo'ydi. 1916-yilning 21-dekabridan boshlab nemis qo'shini mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi.

Verden va Somma janglari misli ko‘rilmagan darajada qirg‘in-barot janglar ham bo‘ldi. Ularda har ikki tomondan 2 million 260 mingdan ortiq jangchi halok bo‘lgan. Verden jangining tarixga „Verden qirg‘ini“ nomi bilan kirganligi bejiz emas.

### **Sharqiy frontdagi ahvol**

Germaniya qo‘shini 1916-yil fevral oyida G‘arbiy frontda hujumga o‘tgach, Fransiya yordam so‘rab yana Rossiyaga murojaat qilishga majbur bo‘ldi. Bunga javoban general A.A. Brusilov qo‘mondonligidagi rus qo‘shini may oyida hujumga o‘tdi. 4-iyul kuni Avstriya-Vengriya qo‘shinining Galitsiyadagi fronti yorib o‘tildi va Avstriya-Vengriya qo‘shiniga qattiq zarba berildi. Rus qo‘shinining hujumi oqibatida Avstriya-Vengriya qo‘shinining 1 milliondan ortiq jangchisi halok bo‘ldi. 400 mingdan ortig‘i esa asir olindi. Rus qo‘shini 60—100 km oldinga siljishga muvaffaq bo‘ldi.

### **Ruminiyaning urushga kirishi**

1914-yilning 1-oktabrida Rossiya-Ruminiya shartnomasi imzolangan edi. Shartnomaga ko‘ra, Rossiya Ruminiyaning hududiy yaxlitligini kafolatlaydigan bo‘ldi. Shuningdek, Ruminiyaning Avstriya-Vengriya imperiyasidagi ruminlar yashaydigan hududlarga bo‘lgan huquqini tan oldi.

1916-yilning 17-avgust kuni Ruminiya bilan Antanta davlatlari o‘rtasida shartnoma imzolandi va Ruminiya Avstriya-Vengriyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi. Buning evaziga unga Transilvaniya, Bukovina va Banatning katta qismi va‘da qilindi. 28-avgust kuni Ruminiya Avstriya-Vengriyaga qarshi urush e‘lon qildi.

Biroq, harbiy jihatdan mustahkam tayyorgarlik ko‘rmagan Ruminiya armiyasi tezda tor-mor etildi.

### **Tomonlarning rejaları**

1917-yilda Antanta qurolli kuchlarining son jihatdan ustunligi 40% ni tashkil etardi. Hatto, harbiy-iqtisodiy jihatdan qoloq Rossiya ham 1917-yilning boshlarida oylik o‘q-dori va harbiy texnika ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga erishdi. Antanta yilning boshlaridayoq hujumni boshlashni rejalashtirdi. Hal qiluvchi zarbani esa yozda berishga qaror qildi.

Ayni paytda, „To‘rtlar ittifoqi“ ham qo‘l qovushtirib o‘tirgani yo‘q edi. 1916-yilning 29-avgustida general-feldmarshal fon Gindenburg Germaniya qo‘shinining qo‘mondoni etib tayinlandi va ko‘p o‘tmay Germaniya qo‘shinining 1917-yilgi harakat rejasini tuzib chiqdi. Reja front chizig‘i hajmini kamaytirish maqsadida armiyani oldindan mustahkam darajada tayyorlab qo‘yilgan marra-larga qaytarishni nazarda tutardi.

## AQSHning urushga kirishi

Urush boshlangan vaqtda AQSH betaraflik eʼlon qilgan edi. Biroq, AQSH birinchi jahon urushining borishini diqqat bilan kuzatib bordi. Ayni paytda, urushuvchi guruhlarining birortasi toʻla gʻalaba qozonishini istamadi. U Yevropaning bir-biriga dushman boʻlgan davlatlar guruhiga boʻlinganicha qolishini istar edi.

Urushning misli koʻrilmagan darajada katta harbiy harajatlar talab qilishi va uzoqqa choʻzilishi sharoitida AQSH juda katta moliyaviy manfaat koʻrishi aniq edi. Bu imkoniyatni qoʻldan chiqarishni istamagan AQSH Antantaga yordam koʻrsata boshladi.

Xususan, birgina 1915-yilda AQSH Buyuk Britaniya va Fransiya bilan 500 mln. dollar miqdorida qarz berish haqidagi shartnomani imzoladi. Asta-sekin Yevropadagi 20 davlatning AQSHdan qarzi 10 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1917-yilning 3-fevralidan boshlab Germaniya Buyuk Britaniyaga qarshi cheklanmagan suvosti urushi eʼlon qilganligi va bu urushning, ayni paytda, AQSH manfaatlariga ham katta zarar yetkazganligi AQSH hukmron doiralarini befarq qoldirmadi.

Qulay fursatdan foydalangan AQSH hukumati 6-aprel kuni Germaniyaga urush eʼlon qildi. AQSH harbiy kuchlarining dastlabki qismlari 26-iyunda Fransiya hududiga tashlandi. Bir yildan soʻng Gʻarbiy frontda jang qilayotgan AQSH qoʻshinlarining soni 2 mln. kishini tashkil etdi. AQSHning urushga kirishi urush taqdirini Antanta foydasiga hal etish yoʻlida katta omil boʻldi.



### Savol va topshiriqlar

1. Germaniya Verden jangidan qanday maqsadni koʻzlagan edi?
2. A.A. Brusilovning Galitsiya fronti chizigʻini yorib oʻtishi qanday ahamiyatga ega boʻldi?
3. Somma daryosi boʻyidagi jangning ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Ruminiya nega Antanta tarafida urushga kirdi?
5. Nega AQSH faqat 1917-yilga kelib urushga kirdi? AQSHning urushga kirishi I jahon urushida qanday rol oʻynadi?



## 37-§. Birinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari

### Urushayotgan davlatlar ahvoli

Urush uning ishtirokchilari boʻlgan davlatlar ichki hayotiga juda katta salbiy taʼsir koʻrsatdi. Iqtisodiyot harbiy maqsadlarga

bo'ysundirildi. Chunonchi, og'ir sanoatning 70% i, yengil sanoatning esa 50% i urush ehtiyojlarini qondirish uchun ishladi. Urush, ayni paytda, qishloq xo'jaligini ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamaydi.

Deyarli barcha davlatlarda oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Natijada, hukumatlar oziq-ovqat mahsulotlariga kartochka tartibi (qat'iy belgilangan me'yor) joriy etdilar.

Aholi o'rtasida shovinizm zo'r berib targ'ib etila boshlandi. Shu tariqa, urush parlament demokratiyasiga qattiq zarba berdi.

Butun urush davomida bironta ham parlament qonli qirg'inga qarshi norozilik bildirmadi.

Endi davlat ishlab chiqarishni tartibga sola boshladi. Banklar, xomashyo taqsimoti va harbiy buyurtmalar ustidan davlat hokimiyatining nazorati kuchaydi.

Urushdan charchagan aholi urushning tezroq tugatilishini talab etib hukumatga qarshi bosh ko'tara boshladi. Shu tariqa, urushning dastlabki yillarida jamiyatda qaror toptirilgan fuqarolik birligi buzildi. Ba'zi frontlarda askarlarning birodarlashuvi, dushman tomonlarning bir-biriga o'q otmasligi yuz berdi. Chunki, qo'shin ham urushdan charchagan edi.

### **Rossiya ahvoli**

Urush Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy ahvolini haddan tashqari keskinlashtirib yubordi. Buning oqibatida, 1917-yilning fevral oyida Rossiyada inqilob yuz berdi. Rossiya imperatori taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Hokimiyat burjuaziya qo'liga o'tdi. U muvaqqat hukumat tuzdi.

Muvaqqat hukumat urushni davom ettirishga qaror qildi va hatto shu yilning yozida u rus qo'shinining hujumini ham uyush-tirdi. Biroq, bu hujum muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Bu muvaffaqiyatsizlik Rossiyadagi busiz ham o'ta murakkab bo'lgan siyosiy vaziyatni yanada murakkablashtirib yubordi. Natijada, 1917-yilning 7-noyabrida davlat to'ntarishi yuz berdi. Muvaqqat hukumat ag'darildi. Hokimiyatni V.I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) partiyasi bosib oldi va u Sovet hukumati deb atalgan hukumat tuzdi.

1917-yilning 8-noyabr kuni Sovet davlati „Sulh to'g'risida“gi dekretni qabul qildi.

Sulh to'g'risidagi dekretda bosqinchilik urushi keskin qoralangan va u insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyat deb e'lon qilingan edi.

Sovet hukumati har qanday sharoitda ham separat sulh tuzishga intildi. Chunki, qo'shin jangovar ruhini to'la yo'qotgan va Sharqiy

front chok-chokidan soʻkilib ketgan sharoitda urushni davom ettirish toʻla halokat bilan barobar edi.

1917-yilning 15- dekabrda Sovet Rossiyasi va Avstriya-Germaniya qoʻmondonligi oʻrtasida yarashish bitimi imzolandi. Bunday bitim 9-dekabr kuni Ruminiya bilan ham imzolangan edi. Shunday qilib, Sharqiy front harakatsiz qotib qoldi.

### **Boshqa frontlardagi ahvol**

1917-yilning aprel oyida Antantaning Gʻarbiy frontdagi qurolli kuchlari hujumga oʻtdi. Germaniya mudofaa chizigʻini yorib oʻtishga muvaffaq boʻlinmadi. Aksincha, bu janglar oqibatida katta qurbonlar berildi. Bu qurbonlar Fransiya qurolli kuchlarining bosh qoʻmondoni Nivel nomi bilan „Nivel qirgʻini“ deb nom oldi.

1917-yilda Italiya qoʻshini muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buyuk Britaniya va Fransiyaning shoshilinch ravishda yordam kuchlarini Italiya frontiga tashlashigina Italiyani saqlab qoldi. 1917-yilning noyabr oyida ingliz qoʻshinining hujumini qaytarishda Germaniya yana bir yangi qurol—ognemyotni qoʻlladi.

Mesopotamiya va Falastin frontlarida ingliz qoʻshinining harakatlari kuchaydi. 1917-yilning mart oyida inglizlar Bagʻdod shahrini egalladilar. Kuzga kelib, Turkiya Arabiston yarimorolini toʻla, Falastinning esa bir qismini boy berdi.

### **Sovet Rossiyasining urushdan chiqishi**

Sovet Rossiyasi 1918-yilning 3-mart kuni „Toʻrtlar ittifoqi“ bilan ularning shartlari asosida Brest tinchlik shartnomasini imzoladi. Shartnomaning shartlari Rossiya uchun juda ogʻir edi. Shartnomaga koʻra, Rossiya oʻz qoʻshinini toʻla demobilizatsiya qilishi, harbiy flotini portlarga qaytarishi lozim edi. Shuningdek, Rossiya Boltiqboʻyi, Polsha, Finlandiya va Ukrainadan voz kechar edi. Ukraina va Finlandiya mustaqil davlatlar deb tan olindi. Kavkazdagi Kars, Ardagan va Batumi Turkiyaga berildi. Bundan tashqari, Rossiya Germaniyaga 6 mlrd. marka miqdorida reparatsiya toʻlaydigan boʻldi.

### **Vudro Vilsonning tinchlik dasturi**

AQSH prezidenti V. Vilson 1918-yilning 8-yanvarida I jahon urushidan soʻng imzolangan tinchlik shartnomasi va qayta tuzilajak dunyo siyosiy xaritasi boʻyicha AQSH hukumatining nuqtayi nazarini dunyoga maʼlum qildi. Bu nuqtayi nazar tarixga „Vilson tinchlik dasturi“ nomi bilan kirgan.

Bu dastur keyinchalik gʻolib Antantaning magʻlub „Toʻrtlar ittifoqi“ bilan imzolangan tinchlik shartnomalariga asos boʻlib xizmat qilgan.

## Urushning so'nggi bosqichi

G'arbiy frontda butun diviziyalarning 80 foizini, artilleriyaning 90 foizini to'plagan Germaniya 1918-yilning mart oyida hujumga o'tdi. Bu uning oxirgi hujumi bo'ldi. Biroq, bu hujum muvaffaqiyatga olib kelmadi. Shunday bo'lsa-da, har ikki tomon 300 ming kishini qurbon berdi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya va Fransiya yagona qo'mondonlik tuzishga qaror qildilar. Fransiya generali Fosh birlashgan kuchlarning qo'mondoni etib tayinlandi. 18-iyul kuni Fransiya qo'shinlari qarshi hujumga o'tdi. Shu hujumdan so'ng Antanta hujumini to'xtatishning iloji bo'lmadi.

15-sentabr kuni Bolgariyaga qaqshatqich zarba berildi. 28-sentabr kuni esa Bolgariya urush harakatlarini to'xtatdi va urushdan chiqdi. 29-oktabr kuni Avstriya-Vengriya yarash bitimini imzolash haqida Antantaga murojaat qildi. 3-noyabr kuni shunday shartnoma imzolandi va Avstriya-Vengriya ham urushdan chiqdi. 30-oktabr kuni Turkiya Antanta bilan yarash bitimini imzolashga majbur bo'lgan edi.

Urush Germaniyada inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. 9-noyabrda Germaniya imperiyasi quladi. Imperator Vilgelm II taxtdan voz kechdi va mamlakatdan qochib ketdi. 10-noyabr kuni sotsial-demokrat Ebert boshchiligida yangi hukumat tuzildi. 11-noyabr kuni Kompen o'rmonida marshal Foshning shtab vagonida Germaniyaning taslim bo'lganligi haqida Antanta bilan bitim imzolandi. Shu tariqa, birinchi jahon urushi Antantaning g'alabasi bilan tugadi.

1919-yil 28-iyunda Versalda sulh shartnomasi imzolandi. German bloki davlatlari talandi, ko'pgina hududlaridan ajraldi, 132 mlrd. marka reparatsiya to'laydigan bo'ldi.

Birinchi jahon urushida dunyoning 38 davlati ishtirok etdi. Ularda 1,5 mlrd. dan ortiq aholi yashar edi. Urushga 74 mln. ga yaqin kishi safarbar etildi. Jami 10 mln. kishi esa yarador bo'ldi. Bundan tashqari, juda ko'p kishilar kasallik va ochlikdan o'lib ketdi. Urushda halok bo'lganlar soni 20 mln. dan oshib ketdi.

Birinchi jahon urushida uning asosiy ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'z milliy boyliklarining uchdan bir qismini yo'qotdilar.

Insoniyat birinchi jahon urushigacha bo'lgan 1000 yil davomida yuz bergan barcha urushlarda ham bunchalik qurbon bermagan edi.





**Dekret** (lotincha—qaror) — oliy hokimiyat boshqaruv organi chiqargan va qonun kuchiga ega bo‘lgan qaror.

**Reparatsiya** (lotincha—tiklash) — xalqaro huquqda urushda ko‘rilgan zararni to‘la yoki qisman qoplash uchun yengilgan davlat tomonidan g‘olib davlatga to‘lanadigan tovon.

**Separatizm** (lotincha—ajrataman) — ajralib chiqishga intilish. Shuningdek, Xalqaro huquqda ittifoqchi davlatlarning biri tomonidan ittifoqchilar ruxsatisiz va ular bilan kelishmay turib, urushayotgan dushman davlat bilan tuzilgan bitim.

**Sulh** — urush harakatlarini to‘xtatish uchun tuzilgan bitim. Xalqaro shartnomalarning bir turi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Urushning urushayotgan davlatlar ichki ahvoriga ko‘rsatgan ta’siri haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Sovet hukumatining „Sulh to‘g‘risida“gi dekreti mazmuni haqida so‘zlab bering.
3. Sovet Rossiyasi qay tariqa urushdan chiqdi?
4. Nima uchun Brest tinchlik shartnomasining shartlari juda og‘ir bo‘lsa-da, Sovet hukumati uni imzolagan?
5. „To‘rtlar ittifoqi“ tarkibidagi davlatlarning birin-ketin taslim bo‘lish jarayoni haqida so‘zlab bering.
6. Urushda nega German bloki yengilganligi to‘g‘risida referat tayyorlang.

### **Bu hujjatli material mazmuni haqida mulohaza yuriting:**

AQSH prezidenti V. Vilsonning 1916- yil iyul oyida so‘zlagan nutqidan:

„Biz dunyoda katta rol o‘ynashimiz mumkin. Siz bir faktning ahamiyatini e‘tiborga olayotibsizmi, oxirgi bir yoki ikki yil ichida biz qarzdor davlatdan qarz beruvchi davlatga aylandik. Jahondagi ortiqcha oltinning shu qadar ko‘p qismi bizning qo‘limizdagi, ilgari hech qachon bunchalik oltinga ega bo‘lmaganmiz. Shu vaqtdan boshlab bizning ishimiz qarz berish, katta xalqaro korxonalariga yordamlashish va ular ishini ilgari siljitishdan iborat bo‘lib qoldi. Bizning butun jahonni talaygina miqdorda mablag‘ bilan ta‘minlashimizga va uni o‘z bilganimizcha va xohlaganimizcha boshqara olishimizga to‘g‘ri kelmoqda“.

# IV

## FAN VA MADANIYAT

### BO‘LIM

#### VIII bob

#### XIX ASRNING OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYATNING RIVOJLANISHI



#### Moddiy ishlab chiqarishda texnika va fan taraqqiyoti

##### Buyuk kashfiyotlar

Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sganligi va jamiyatning ehtiyojlari ortganligi tufayli transport, elektr, binokorlik, metallurgiya, mashinasozlik va boshqa sohalarda yirik kashfiyotlar qilindi. Dunyo mamlakatlarida temiryo‘llarning ko‘payishi natijasida parovozsozlikda yirik o‘zgarishlar bo‘ldi. Sodda va kuchsiz bo‘lgan bug‘ mashinalari o‘rniga ichki yonuv dvigateli va elektr dvigatellari yaratildi. Elektr dvigatelidan dastavval transportda foydalanildi. 1895-yildan Buyuk Britaniya va AQSHning yirik shaharlarida tramvay ishlatila boshlandi. Temiryo‘llarni elektrlashtirish sohasida tajribalar o‘tkazildi. Kemalar qurilishida po‘lat keng ko‘lamda ishlatila boshlandi.

##### Elektr

Elektr sanoati yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlar tez rivojlandi. Sanoatning rivojlanishi fabrika, zavod, savdo joylari va idoralarning sun‘iy yoritgichlarga bo‘lgan talabini yil sayin oshirib bordi.

1876-yilda rus olimi *P.N. Yablochkov* „elektr shami“ deb atalgan lampani ixtiro qildi. Amerikalik ixtirochi *T. Edison* havosi so‘rib olingan ko‘mir tolali cho‘g‘lanish lampasini yaratdi.

Nyu-Yorkda Edison qurgan birinchi issiqlik elektr stansiyasi yuzlarcha iste‘molchilarni energiya bilan ta‘minlay boshlagan.

##### Binokorlikda metall va oynadan foydalanish

Binokorlik sohasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Endi metall va oynalardan keng foydalaniladigan bo‘lishdi. Shu sababli

banklar, fabrikalar, bozorlar, savdo do‘konlari, vokzallar, uyjoylar, katta mehmonxonalar qurila boshlandi.



Qurilish ishida sement katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda yangi qurilish materiali — temir-beton paydo bo'ldi. Temir-betonna fransuz bog'boni Monye ixtiro etgan deb hisoblanadi. U temir-betondan katta gultuvaklar tayyorlagan.

Yangi materiallar — temir-beton, metall va shishalarning ko'plab ishlatilishi binolar arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatdi. 1889-yilda Parijdagi Jahon ko'rgazmasi uchun fransuz muhandisi Eyfel o'sha davrda g'oyat katta — faqat metallardan yasalgan, balandligi 300 metr bo'lgan minora qurdi. Bundan keyinchalik Amerikada balandligi 400 metrgacha bo'lgan osmono'par binolar qurilishida foydalandilar.

Temiryo'l tunnellari ochish va temiryo'l ko'priklari qurish texnikasi juda o'zgarib ketdi. 1880-yilda Alp tog'laridagi mashhur Sen-Gotard dovoni ostida 15 kilometrlik tunnel qurildi.

Bu davrga kelib gidroqurilish texnikasi ham o'zgarib ketdi. Atlantika okeani bilan Tinch okeanni bir-biriga tutashtiruvchi Panama kanali 1914-yilda qurib bitkazildi.

### Metallurgiya

Albatta, metallurgiya sanoatini rivojlantirmasdan turib yuqorida aytilgan qurilish ashyolarini tayyorlab bo'lmas edi. Metall eritish texnikasi takomillashdi. Metallurgiyada avtomatlashtirishni nemis olimi *R. Kirxgof* yaratdi. Pechlarning sig'imi oshdi. Cho'yanni po'latga aylantirish masalasi hal qilindi. Sanoat uchun zarur bo'lgan sulfat kislotasi ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar paydo bo'ldi. Sun'iy soda olishning ammiak usuli joriy etildi.

1886-yilda elektrolit yo'li bilan aluminiy ajratib olindi. XX asr boshida *L. Bakeland* (Belgiya) plastmassa olish yo'lini topdi.

Bu davrda mashinasozlik keng rivojlandi. Metall kesish jarayonini ilmiy jihatdan tekshirishga rus olimi *I.A. Time* asos soldi. Elektr bilan payvandlash usulini dastlab 1867-yilda amerikalik elektrotexnik *Tomson* qo'llagan edi.

### Neftni qayta ishlash

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoatning muhim tarmoqlaridan biri — neftni qayta ishlash sanoati vujudga keldi. Ichki yonuv dvigatellarining taraqqiy ettirilishi bilan benzin olish muammosi paydo



**Tomas Edison.**



**A.S. Popov.**

*Raytlar* samolyotda uchdilar. Raqamli hisoblash mashinalarini *Charlz Bebbij* (Angliya), tikuv mashinalarini dasturlashtirishni *Jozef Mari Jakkard* (Fransiya), samolyotlarni avtomatik bosh-qarishni *L. Sperry* (AQSH), raketaplanni *N.I. Kibalchich* (Rossiya) yaratdilar.

### **Radiotelefon**

Texnika sohasida qilingan eng buyuk kashfiyotlardan biri radioning ixtiro qilinishi bo'ldi. Nemis olimi *G. Gers* elektromagnit to'lqinlari tarqalish faktini jahonda birinchi bo'lib tajriba yo'li bilan isbotladi. Rus olimi *A. Popov* simsiz aloqa uchun elektromagnit to'lqinlarini chiqarish va qabul qilish usulini topdi hamda kerakli asboblarni (uzatgich va qabul qilgich) yaratdi. Shu tariqa radioga asos so-lindi. Buyuk Britaniyada *G. Markoni* tomonidan simsiz telegraf ixtiro qilindi.

XIX asr oxirida texnikaning yangi tarmog'i — telefon tez rivojlandi. Shotlandiyada tug'ilib, Amerikada yashagan texnik *A. Bell* telefon apparatiga birinchi bo'lib imtiyoznoma oldi. Telefon boshqa ko'pgina yangi ixtirolardan farqli o'laroq, deyarli barcha mamlakatlarda tez rusum bo'ldi. Dastlabki shahar telefon stan-siyasi AQSHda ishga tushirildi. Shundan so'ng Parij va Berlinda telefon stansiyalari ochildi.

T. Edison ovoz yozib olish va uni takror eshittirish apparati — fonograf yaratdi. Fonograf asosida grammofon va boshqa mexanik usulda ovoz yozib olish uchun ishlatiladigan asboblar paydo bo'ldi.

bo'ldi. Benzin bilan ishlaydigan yengil dvigatellar yaratish sohasida nemis oli-mi *G. Daymler* katta yutuqlarga erishdi. U avtomobil, motorli qayiq, mototsikl-ga o'rnatiladigan dvigatellarni yaratdi. Daymler yaratgan ikki silindrli dastlabki dvigatellarning quvvati 34 ot kuchiga teng bo'lgan.

1897-yilda *R. Dizel* yonilg'i siqilganda o'z-o'zidan alanganib ketadigan yangi dvigatel yaratdi. Birinchi aeroplanlarni yaratishda rus ixtirochisi *A.F. Mojayskiy*, ingliz konstruktori *G. Filippis*, fransuz ixtirochisi *K. Aderlar* katta hissa qo'sh-dilar. 1903-yilda aka-uka *Uilber va Orvill*

## Harbiy soha

XIX asrning oxirlaridan e'tiboran, dunyoni qayta taqsimlash uchun kurash boshlanishi munosabati bilan harbiy soha va iqtisod o'rtasida bog'lanish chuqurlashdi. Mashinalashtirilgan industriya bir qancha juda muhim harbiy-texnika yangiliklarini amalga oshirish imkonini berdi.

Bu davrga kelib barcha mamlakatlarda dala armiyasi va dala artilleriyasi soni to'xtovsiz o'sa boshladi, bu hol piyoda va artilleriya qo'shinlari uchun qurol-yarog' ishlab chiqarishning son va sifat jihatidan tez o'sishiga sabab bo'ldi.

O'sha davrda magazinli (o'qdonli) tezotar miltiq ixtiro qilindi. Ammo tutunli porox ishlatilishi bu miltiqning jangovar sifatlarini kamaytirar edi. Magazinli miltiqdan tez-tez otish vaqtida tutun tarqalishiga ulgura olmay, otuvchilarga nishon yaxshi ko'rinmas edi. Shunday qilib, harbiy ish amaliyoti tutunsiz porox kashf etish vazifasini qo'ydi.

1884-yilda fransuz olimi *Vyelye* piroksilinli tutunsiz porox tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. Rossiyada D.I. Mendeleyev fransuzlardan mustaqil ravishda tutunsiz poroxning sirini topdi. Ko'pgina mamlakatlarda tutunsiz porox ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Miltiqning takomillashtirilishi va poroxning yaxshilanishi bilan birga, yaxshi qurollangan, ko'p sonli qo'shinlarning siquviga qarshilik ko'rsatuvchi jangovar armiyalar vujudga keldi.

Fransiyada tezotar ko'chma to'plarning, shuningdek, parchalaydigan portlovchi moddalarning paydo bo'lishi armiyaning jangovar sifatini ko'tardi.

Yangi portlovchi modda tayyorlash sohasida shvetsiyalik muhandis *A. Nobel* olamshumul kashfiyot qildi. 1888-yilda Nobel dinamit yaratdi va ko'p o'tmay juda boyib ketdi.

Birinchi jahon urushi arafasiga kelib o'qotar qurollar va artilleriya yanada takomillashdi. Stanokli pulemyot bilan bir qatorda urush davomida ancha yengil qo'l pulemyotlari ham yaratildi. O'ta uzoqqa otadigan to'plar paydo bo'ldi. Ichki-yonuv dvigateli o'rnatilgan, zanjirli, zirhli artilleriya bilan qurollangan tank *Somma* daryosi yonida 1916-yil 15-sentabrda jang sharoitida birinchi marta inglizlar tomonidan ishlatildi. Tank dahshatli jang quroliga aylandi.

XX asr boshlarida soatiga 220 km gacha tezlik bilan uchadigan, uchish balandligi 7000 metrgacha, uchish uzoqligi esa 900 km gacha bo'lgan samolyotlar qurildi.

Shunday qilib, bu davr ilmiy-texnikaning jadal taraqqiyoti bilan xarakterlanadi.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. XIX asrning 70- yillarida jahonning yirik rivojlangan davlatlarida texnikaning rivojlanish darajasi nimalarga asoslandi?
2. Qaysi davlatlarda transport va temiryoʻllar eng muhim, strategik ahamiyatga molik tarmoqlar sifatida qaraldi?
3. Rus ixtirochilaridan kimlarni bilasiz? Ular fan rivojiga qanday hissa qoʻshganlar?
4. Samolyotni kim va nima maqsadda ixtiro qilgan? Ilk samolyot nechanchi yilda samoga parvoz qildi?
5. Uzoq masofalarni yaqin qilish maqsadida telefon apparatlari qachondan boshlab ishga tushirilgan?
6. Radioni kashf qilgan ixtirochi kim? Hozirgi kunda radioning oʻrni qanday?



Alfred Nobel haqida referat tayyorlang.



### **39-§. Aniq va tabiiy fanlar rivoji**

#### **Tabiat ilmining taraqqiy etishi**

XIX asr oxiri va XX asr boshlari — hozirgi zamon tabiat ilmining taraqqiy etishidagi eng muhim davrlardan biri. Tabiat toʻgʻrisidagi fanlarning har xil sohalarida inqilobiy kashfiyotlar qilingan, olam toʻgʻrisidagi eski tasavvurlarning ildiziga bolta urilgan davrdir.

Bu davrda tabiat ilmining taraqqiy etishi ayrim mamlakatlar oʻrtasida iqtisodiy raqobatning kuchayishi va dunyoning yangi hududlariga iqtisodiy jihatdan kirib borishga intilishi bilan bogʻlangandir.

Tabiat toʻgʻrisidagi aniq fanlar bu davrda ham keng koʻlamdagi tajriba asosida rivojlandi va, oʻz navbatida, bu amaliy tajribani yangi ilmiy kashfiyotlar nuri bilan boyitdi.

Koʻrib oʻtilayotgan davrdan fan yanada ixtisoslashtirildi va faning yangidan yangi maxsus sohaları maydonga keldi. Ilgarigi ayrim olingan fanlar oʻzaro birlashdi. Jumladan, fizika bilan kimyo chegarasida mustaqil fizika-kimyo paydo boʻldi. Bu davrda qilingan kashfiyotlar XX asrning ikkinchi yarmidagi fan-texnika inqilobiga (FTI) yoʻl ochib berdi. Bilimlarning yangi tarmogʻi — texnika fanlari vujudga keldi. Ular, asosan, oʻtgan davr ilmiy yutuqlari

negizida ishlab chiqarishni takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanar edi.

Fanning taraqqiy etishi olamning birligi haqidagi g'oyani ilgari surdi va, ikkinchidan, olam to'g'risidagi bilimlarimiz nisbiydir, degan konsepsiyaga olib keldi.

### **Matematika, kimyo, fizika**

Matematika sohasida buyuk kashfiyotlar rus olimi *N.I. Lobachevskiy*, italyan olimi *Y. Beltrami*, Avstriya matematigi *D. Gilbert* va boshqa olimlarning nomlari bilan bog'liqdir. Rus olimi *N.Y. Jukovskiy* 1904-yilda shunday kashfiyot qildiki, bu kashfiyot hozirgi zamon aerodinamikasining taraqqiyoti uchun asos bo'ldi. Bu qanotning ko'tarish kuchini aniqlash formulasi edi.

1895-yilda nemis olimi *V. Rentgen* turli predmetlarni turli darajada teshib o'ta oladigan ko'zga ko'rinmas nurlar mavjudligini aniqladi. Elektromagnit to'lqinlarining bu nuri „Rentgen nurlari“ degan nom oldi. Bu nurlardan tibbiyot va texnikada keng foydalanila boshlandi. *V. Rentgen*ga Nobel mukofoti berildi.

Har ikkala holda ham nur chiqarish uchun impulslar sun'iy ravishda berilar va odam istagan daqiqada radiouzatgich yoki Rentgen apparatining ishini to'xtatib ish jarayoni uchun energiya olar edi. Lekin bu nurlanishning fizik tabiati qanday? U moddaning tuzilishi bilan qanday bog'langan? Bu savollarga faqat moddaning eng mayda zarralarini tekshirish yo'li bilangina javob berish mumkin edi. Atomlar ana shunday zarralar edi. Ularni yanada chuqurroq o'rganishga rus olimi *D.I. Mendeleev* asos soldi. U 1869-yildayoq barcha kimyoviy elementlarning atom og'irliklari o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini kashf etdi va muntazam davriy sistemani yaratdi, bu sistema uning nomi bilan ataldi.

Atomning ichki strukturasi kirib borish nurlanishni o'rganish bilan bog'liq edi. Fransuz fizigi *A. Bekkerel* bu hodisani o'rganar ekan, uran atomlari yaqin joyda turgan jismlardan o'tib ketadigan nurlarni o'z-o'zidan chiqarishini aniqladi. Navbatdagi qadamni Parijda *M. Sklodovskaya-Kyuri* tashladi. Tajribalar jarayonida u o'z-o'zidan nur chiqarish faqat uran atomlarigagina xos emas, degan xulosaga keldi. Muayyan atomlarning bu xususiyatini u radioaktivlik deb atadi. U eri — atoqli fransuz fizigi *P. Kyuri* bilan birgalikda ba'zi radioaktiv elementlar uranga qaraganda intensivroq nur chiqarishini isbot qilishga muvaffaq bo'ldi. Er-xotin Kyurilar ikkita ana shunday elementni ajratishga muvaffaq bo'ldilar. Bu elementlar poloniy (*M. Sklodovskaya-Kyuri*ning vatani sharafiga, chunki u Polshadan edi) va radiy (ya'ni nurlanuvchi) deb ataldi.





**Albert Eynshteyn.**

Olimlar atom moddaning eng mayda zarrasi emasligiga ishonch hosil qila bordilar. XX asr boshlarida birinchi mikrozarra — elektron kashf etildi. Ko'p o'tmay radioaktiv elementlar parchalangan vaqtda xuddi ana shu elektronlar ajralib chiqqanligi ma'lum bo'ldi. Ingliz fizigi *E. Rezerford* hamma atomlar og'ir yadroga ega ekanligini isbotladi. U atomning planetar modelini yasadi, bu modelda yadro („quyosh“) atrofida elektronlar („planetalar“) aylanar edi.

Daniyalik fizik *N. Bor* tuzatish kiritdi, ya'ni uning modelidagi elektronlar bir orbitadan ikkinchisiga sakrab o'tib, bunda energiya porsiyasini (kvant) chiqaradi. Bu klassik Nyuton fizikasi bilan tamomila ajralish edi va klassik fizikaning qonunlari mikrodunyo uchun to'g'ri kelmay qolganligini ko'rsatardi.

Ayni vaqtda fazo bilan vaqtning o'zaro nisbati to'g'risidagi ilmiy tasavvur ham o'zgarib bordi. 1905-yilda nemis olimi *A. Eynshteyn* nisbiylik nazariyasining asosiy g'oyalari e'lon qildi. Jismlarning kattaligi va vaqtning uzunligi nisbiydir, deb isbot qildi u, fazo bilan vaqtning xususiyatlari moddiy obyektlarning harakatiga bog'liqdir. Tezlik yorug'lik tezligiga yaqinlashib borganida vaqtning kechishi sekinlashadi, jismlarning kattaligi qisqaradi.

Biologiyada ham tub siljishlar yuz bermoqda edi. *G. Mendelning* ba'zi irsiyat qonunlarini kashf etishi yangi fan—genetikaning rivojlanishiga asos soldi. Shu davrda fikrlashning moddiy negizlarini bilish sari dastlabki qadamlar qo'yildi. Rus fiziologi *I.P. Pavlov* inson xatti-harakatining negizida bosh miya qobig'ida yuz beradigan moddiy fiziologik jarayonlar yotishini isbotladi. Binobarin, fikrlash jarayoni yuksak darajada tashkil topgan materiyaning alohida xususiyatidir.

Organik sintez sohasida g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishildi. *V. Grinyar* 1900-yili xilma-xil organik moddalarni sintez qilish usulini kashf etdi. *P. Grissning* diazotlash reaksiyasini kashf etishi azotli bo'yoqlar deb atalgan bo'yoqlarning katta bir sinfini hosil qilishga imkon berdi.

Bo'yoqlarni sintez qilish sohasidagi ishlar dorilar ishlab chiqarishning rivojlanishiga yordam berdi. Kimyoviy jarayonlarni tekshirishga termodinamikaning tatbiq etilishi natijasida, kimyoviy

termodinamika paydo bo'ldi. 1887-yili shved olimi *S.Arrenius* elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasini yaratdi. 1881-yili *M.G. Kucherov* esa gidratlanish reaksiyasini kashf etdi.

### **Tabiatshunoslik**

Nemis olimi *T. Shvan* tomonidan qilingan, barcha organizmlarning hujayrali tuzilishi haqidagi kashfiyotlar tabiatshunoslikning ilmiy asosini mustahkamlashga xizmat qildi. Buyuk ingliz tabiatshunos olimi *Charlz Darvinning* (1809—1882) „Turlarning kelib chiqishi“ asarining nashr qilinishi fanda to'ntarish yasadi. XIX asrning so'nggi choragini darvinizmning tarqalish va qaror topish davri deyish mumkin. Darvin ta'limoti biologiya sohasidagi tadqiqotlarning yo'nalishini tubdan o'zgartirib yubordi. Dunyo bo'ylab qilingan besh yillik sayohat davrida to'plangan ulkan botanik va zoologik materiallarni umumlashtirish asosida Ch. Darvin butun tirik tabiat, shu jumladan, odam ham evolutsiya (uzoq rivojlanish) jarayonining mahsulidir, degan xulosaga keldi.

### **Mikrobiologiya**

Mikrobiologiya fanidagi inqilobiy o'zgarish fransuz mikrobiologi va kimyogari, hozirgi zamon mikrobiologiya va immunologiya fanining asoschisi *Lui Paster* (1822—1895) nomi bilan bog'liq. U bijg'ish jarayonini o'rganib, vino, pivo va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatiga ilmiy asos soldi. Mahsulotlarning achish jarayoni mikroblar keltirib chiqaradigan biologik jarayon ekanligini isbotladi. Uning kashfiyotlari vino pishiruvchilarni xonavayron bo'lishdan qutqardi. Pasterning tajribalari turli oziq-ovqat mahsulotlarini sterillash va pasterlash usullarini yaratish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk olim odam, hayvon va parrandalarning yuqumli kasalliklari — kuydirgi, quturish, vabo va boshqalarni o'rganib, ularning (ayniqsa, quturishning) oldini oluvchi emlash usullarini yaratdi. Uning izlanishlari immunitet haqidagi fanning yaratilishi uchun asos bo'ldi.

### **Tibbiyot**

Shu davrda tibbiyot fani ham katta yutuqlarga erishdi. 1880-yilda nemis olimi *K. Eber* ichterlama, 1884-yilda *F. Lyofler* bo'g'ma tug'diruvchi mikrobn topdilar. Nemis olimi *R. Virxov* (1821—1902) hozirgi zamon patologik anatomiya asoslarini yaratdi. 1875-yilda rus olimi *F.A. Lesh* amyoba dizenteriyasini tug'diruvchi mikrobn aniqladi.

Fizika sohasidagi kashfiyotlar ham tibbiyotga yordam berdi. Maksvellning elektromagnit to'lqinlari haqidagi nazariyasidan kelib



**Vilgelm Rentgen.**

chiqib, nemis fizigi *Vilgelm Konrad Rentgen* (1845—1932) har xil buyum; narsalardan turlicha o‘tuvchi ko‘rinmas nurlarni kashf etdi. Nurlarning kelib chiqishi olimga ma‘lum emasdi va ularni „X nurlar“ deb atadi. Ana shu kashfiyotga asoslangan va olimning nomi bilan „Rentgen“ deb atalgan apparat yaratildi. Endi shifokorlar ichki jarohatlarni, suyak sinishlarini ko‘rishlari mumkin edi. Bu kashfiyot uchun fiziklar orasida birinchi bo‘lib Rentgeniga Nobel mukofoti berildi.

Kimyo sohasidagi kashfiyotlardan ham tibbiyotda unumli foydalanildi. Sovun olishning sanoat usulini egallash, undan kasalxonalarda, ayniqsa, jarrohlar tomonidan

foydalanish operatsiyalar paytida infeksiya xavfini kamaytirdi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash ishiga sil kasalligini keltirib chiqaruvchi batsillani kashf qilgan nemis olimi *Robert Kox* (1843—1910) ulkan hissa qo‘shdi. U epidemiyalarga qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqdi va dori-darmonlar yaratdi. Rus olimi, Nobel mukofoti laureati *I. Mechnikov* esa organizmlarni mikroblardan himoya qilish haqida yangi ta‘limot yaratdi.



**Ilm** (arabcha) — kishining o‘qish, o‘rganish va hayotiy tajribasi orqali orttirgan bilimi.

**Fan** (arabcha) — to‘g‘riligi amalda tasdiqlangan, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi.

**Sterilizatsiya** (lotincha—toza) — tibbiyot va biologiyada turli moddalar, bog‘lov materiallari, oziq-ovqat mahsulotlarini zararli mikroorganizmlardan butunlay tozalash.

**Pasterlash** (muallif shaxs Paster nomidan olingan) — zararli mikroorganizmlarni o‘ldirish uchun suyuqlikni 60°—80°C gacha qizdirish va ularni tezda sovitish.

**Batsilla** — kasallik qo‘zg‘atuvchi va tarqatuvchi mikroorganizm (mikrob—tayoqcha).



### ***Savol va topshiriqlar***

1. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida ilm-fan rivojiga sabab bo‘lgan olimlarni qayd eting.
2. Fizika fanida qanday kashfiyotlar amalga oshirildi?

3. Kimyo fani sohasida ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirgan mashhur olimlarning ishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida qaysi yangi fan sohasiga asos solindi?



„Jahon tarixi“ darsligining ushbu mavzusida olgan ma'lumotlaringizni fizika, kimyo va biologiya darsliklaringizdan olgan ma'lumotlar bilan to'ldiring. Sizda paydo bo'lgan ba'zi mulohazalar va savollar bo'yicha o'qituvchilaringizga murojaat qiling.



XIX asr oxiri — XX asr boshlarida nega yurtimizdan dunyoga mashhur biror tabiatshunos alloma yetishib chiqmagan?

## 40-§. Xalq ta'limi. Gumanitar fanlar. San'at

### Xalq ta'limi

Texnika taraqqiyoti yuqori saviyali mutaxassis va ishchilarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib yubordi. Rivojlangan mamlakatlarda 12—13 yoshgacha bo'lgan bolalarni umumiy majburiy va bepul o'qitish joriy qilindi. Bu omil aholi savodxonligining oshishiga olib keldi.

Imtiyozli o'quv yurtlari tarmog'i kengaydi. Biroq xalqning asosiy qismi qashshoq yashaganligi, yomon uy-joy sharoitlari, bolaligidan tirikchilik uchun pul topish zarurligi bir qator mamlakatlarda ko'plab bolalarni o'qishni oxiriga yetkazmasdan maktabni tashlab ketishga majbur qilardi.

Ayni paytda, ta'lim sohasidagi salbiy jihatlarni ham ko'rmaslik mumkin emas edi. Chunonchi, ba'zi mamlakatlarda yoshlarni millatchilik, irqchilik ruhida tarbiyalashga e'tibor berilgandi.

Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida xalq maorifi tizimi irqchilik ruhida edi. Qora tanlilarning bolalari uchun alohida maktablar ochilgan bo'lib, bu maktablarda oq tanlilarning bolalari uchun tashkil etilgan maktablardagiga qaraganda kam hajmda bilim berilar edi. Mamlakatda hukm surayotgan irqchilikka qarshi kurash masalasi *Garriyet Bicher-Stouning* „Tom tog'aning kul-basi“ asarida o'z ifodasini yaqqol topdi.

Bu davrda Sharqda xalq ta'limi sohasida G'arbning yutuqlari tashviq qilina boshlandi. Yevropa ta'siri kuchaydi.

XX asr boshlariga kelib, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada ildam taraqqiyoti diniy xurofatlardan xoli bo'lgan ilmiy dunyoqarashning mavqeyi mustahkamlanishi uchun sharoit yaratdi. Gumanitar fanlarda, birinchi navbatda, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, adabiyot va sotsiologiyada realistik voqelikni aks ettiruvchi asarlar yuzaga keldi. Bir qator olim va yozuvchilar insonlarning yaxshi yashashi uchun, demokratiya, tenglikni ta'minlovchi jamiyatni barpo qilish maqsadida shunga intiluvchi g'oyalarni ifodalovchi va ulug'lovchi asarlarni yuzaga keltirdilar. Lekin, qanday qilib bo'lsa ham boylik to'plashga harakat qilishni tasvirlovchi asarlar ham paydo bo'ldi.

Bu davrda madaniyat, adabiyot va san'atning demokratik asosda rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Ayniqsa, bu narsa adabiyotda yaqqol o'z ifodasini topdi. Shu sababli tanqidiy realizm va naturalizm yuzaga keldi.

Tarixchilar insoniyat taraqqiyotining turli davrlari haqida juda katta ashyoviy dalillar to'pladilar. Bu davrda ham azaliy kurash — yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash — mafkuraviy, g'oyaviy hayotning asosini tashkil qildi.

Gumanitar soha olimlari XX asr boshida ro'y berayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni kuchaytirdilar.

### **Falsafa va mustamlakachilik g'oyalari**

Bu davrda falsafa fani ham rivojlanib, davrga moslashdi. Ilgari ma'rifatparvarlik kuchli bo'lsa, endi inson huquqlariga e'tibor kuchaydi. Fanning rivojlanishi bilan uning jamiyatdagi o'rnini belgilash, barcha ijtimoiy muammolarni hal qilishda fanning ijobiy hodisa ekanligini asoslash kuchaydi.

Bu davrning mashhur faylasuflaridan biri *Fridrix Nitsshe* inson irodasi masalasiga katta e'tibor berdi. Inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini asoslashga harakat qildi. U zardushtiylik ta'siri ostida „Zardusht tavallosi“ asarini yozdi. Bu asarda kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi.

*O. Shpengler* „Yevropasentrizm“ga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Bu fikrlar uning „Yevropa quyoshining botishi“ asarida o'z ifodasini topdi.

*Z. Freyd* — psixoanaliz nazariyasining asoschisi, dunyoga tanilgan olim. Uning asarlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida

Yevropada adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Freyd qilgan buyuk inqilobning mohiyati shundaki, u Dekartning inson to'g'risidagi tasavvurlarini inkor etib, fenomenologik (favqulodda, nodir) yondashuv yordamida ongsizlikni tahlil qilish mumkinligini asoslab berdi. Psixoanaliz an'analariga muvofiq, ongsizlik bilib bo'lmaz jarayon deb tushuntirilardi. Freydning psixoanalitik falsafasi inson borlig'ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlashga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelish sabablari, individ turmush tarzi tamoyillarining hosil bo'lishini tushuntirishga intiladi.

Tarixiy taraqqiyotning davriy modeli, dunyo dinlari (buddaviylik, xristianlik, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi g'oyalari ilgari surildi.

Shu tariqa, cherkov vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, barcha dinlarning tengligi tamoyillariga toqat bilan ko'nika boshladi.



Bu davr fashistik g'oya qaror topgan davr hamdir, chunki har bir harakat sodir bo'lishidan oldin uning g'oyasi paydo bo'lishi tabiiydir. Bundan tashqari, boylik, dunyo bozorini talashish, hukmronlikka intilish, yangi mustamlakachilik g'oyalari ham rivojlandi.

Bir qator yozuvchilar o'z asarlarida dengiz va okenlar „egasi“, „quyoshi hech qachon so'nmaydigan“ imperiya bo'lmish Britaniya imperiyasini ko'klarga ko'tarib maqtadi. Ular, „oq tanli kishi“ boshqalardan ustun bo'lib, „rangdor“ xalqlar orasiga madaniyat olib kirishga tayyor turadi, degan aqidani ilgari surdilar. Shunday g'oyalar ingliz yozuvchisi *R. Kiplingning* „Oq tanli kishining burch anduhi“ kitobida ham uchraydi.

### Musiq

Musiq san'atida realizm va xalqchilik dekadentlarcha noziklikka va shaklan murakkablikka qarshi kurashda rivojlandi. Bu davrda Myunxenda avstriyalik oilasida tug'ilgan bastakor *Rixard Shtraus* „Salomeya“, „Elektra“, „Gullar oshig'i“, avstriyalik simfonist *Gustav Maler* „Qazo qilgan bolalar haqida qo'shiq“, „Bolaning sehrli shoxi“ va boshqa asarlar bilan shuhrat qozondi.

R. Shtraus motsartcha operani qaytadan tikladi. Uning asarlari hayotbaxshligi, insonparvarligi, go'zallikni tarannum etishi bilan ajralib turadi. Betxoven an'analarini G. Maler rivojlantirdi. Maler

musiqa asarlarining ijtimoiy ahamiyatini yuksaklikka ko'tardi, murakkab musiqaviy mavzular bilan sodda xalq kuylarining uyg'unlashib ketishiga erisha oldi.

Rossiyalik bastakor *A.M. Skryabin* musiqada davrning g'oya va obrazlarini gavdalantirdi. Bastakor, pianinochi va dirijor *S.V. Raxmaninov* boy kuylar vositasida vatan mavzusini romantik pafos va lirika bilan ochib berdi.

### Tasviriy san'at

Rassomchilikda qator yangi oqimlar vujudga keldi. Bu yangi oqimlarning biri impresionizm (taassurot) edi. Bu oqimga kirgan rassomlar voqelikni, kuzatishdan olingan taassurotlarni sof holda aks ettirardi. *Eduard Mane, Klod Mone, Ogyust Renuar* va *Kamil Pissaro* impresionizmning eng iste'dodli namoyandalari edilar. Ularning nozik bo'yoqlar uyg'unligi ifodalangan asarlarida hayotga cheksiz muhabbat aks ettirilgan. Ular quyosh yog'dusini, fazo va teranlikni aks ettirishning yangi texnik vositalarini topdilar. Lekin, ular insonning ichki dunyosini, uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'rsatib berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymagan edilar.

Rassomchilikda real hayotni butun borligicha aks ettirish oqimi ham mavjud edi. Bu borada *Pol Sezann, Pol Gogen* va *Vinsent van Gog* mehnat ahlini alohida o'rinlarda tasvirlay oldilar. Chunki ular ishchilarning azob-uqubatlaridan qattiq ta'sirlangan edilar.

Mashhur xitoylik rassom *Jen Bonyan* ipak matoga rasm solishning qulay usulini yaratdi. Buyuk fransuz haykaltaroshi *O. Rodenning* „Mutafakkir“ degar asariga qarab hech kim insonning, dekadentlar ishontirmoqchi bo'lganidek, „oliy“ kuchlar qo'lida o'yinchoq ekanligiga ishonmaydi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, gumanitar fanlar, adabiyot va san'at davrning ehtiyojiga aylandi hamda turli xil mafkuraning shakllanishiga xizmat qildi.



**Gumanitar** (fransuzcha — insoniy tabiat, bilimlilik) — inson shaxsiga, inson huquqi va manfaatlariga oidlikni anglatuvchi tushuncha.

**Gumanitar fan** — inson va uning hayotini, madaniyatini o'rganuvchi fanlar (masalan, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyot va hokazo).

**Yevropasentriзм** — barcha madaniyatlarni yevropalashtirish g'oyasi.

**Individ** — alohida odam, shaxs.

**Psixanaliz** — avstriyalik shifokor va ruhshunos olim Z. Freyd tomonidan ilgari surilgan asab kasalliklarini davolash usuli. Freyd



ta'limotiga ko'ra, insonning psixik hayoti tug'ma, ongsiz mayillarga bog'liq. Insondagi turli ruhiy kechinmalar, amalga oshmagan istaklar yo'qolib ketmaydi. Ular ong doirasidan chiqib, ongsizlik holatiga o'tadi va insonning ruhiy hayotiga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu hol asabiylikda namoyon bo'ladi. Uni davolashning asosiy usuli — mayillarni g'ayritabiiy yo'l bilan qondirish yoki ularni boshqa faoliyat sohasiga (masalan, ijod, siyosat, mehnat va hokazo) ko'chirishdir.

**Falsafa** — tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

**Fashistik g'oya** — eng shafqatsiz terrorchilik diktaturasi, aqidaparastlik va irqchilikni oqlovchi, millatchilik va shovinizmga asoslangan g'oya.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Xalq ta'limi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omilni qayd eting.
2. Z. Freyd ta'limotida qanday g'oya ustun turgan?
3. Mustamlakachilikni oqlagan yozuvchilar o'z fikrlarini qanday g'oyalari bilan asoslaganlar?
4. Tasviriy san'atning buyuk namoyandalari haqida so'zlab bering.

## **41-§. Adabiyot**

### **Tanqidiy realizm**

XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida Yevropa mamlakatlarining madaniy hayotida realistik oqim bilan dekadentlik oqimi o'rtasida kurash avj oldi. Xalq dekadentlik ruhida yozilgan asarlarni qabul qilmadi. Natijada, turmushni aniq ifodalaydigan asarlarga ehtiyoj ortdi. Realistik yozuvchilar atrofda voqelikni dadil va haqqoniy aks ettirishga intildilar. Shuning uchun bu davr realizm yoki „tanqidiy realizm“ nomini oldi. Bu davrda rus adabiyoti namoyandalari *F. M. Dostoyevskiy*, *L.N. Tolstoy*, *A.P. Chexov* chet ellardagi zamondoshlari uchun realistik ijodning yangi imkoniyatlarini ochib berdilar.

*Gi de Mopassan* o'zining „Hayot“, „Azim“, „Mont-Oriol“ va boshqa asarlari bilan fransuz badiiy dunyosida qator



**F.M. Dostoyevskiy.**

ijtimoiy masalalarni mahorat bilan rango-rang bo'yoqlarda tasvirlagan ijodkordir.

Amerika yozuvchisi *J. Londonning* ijodi radikal intilishlar bilan ajralib turar edi. Uning „Temir tovon“ romanida insoniyat oldida turgan halokat yoki dahshatli azoblar oldindan aytib berildi. Avtobiografik tarzda „Marten Iden“ romanida yozuvchi halol ijod ahlining soxta madaniyat bilan fojiali to'qnashuvini ochib berdi.

Amerikalik yozuvchi *T. Drayzerning* „Moliyachi“, „Titan“ romanlarida amerikalik monopolist, tojsiz qirol, puldor Kaupervudning umumlashgan obrazi berilgan. Kaupervud boyish uchun kurashda qalloblik usullaridan, odamlarni aldash, sotib olishdan foydalanib, o'z maqsadi sari intiladi.

*R. Rollan* o'zining ko'p tomli „Jan Kristof“ romanida fransuz va german burjua jamiyatining buzilishini ko'rsatadi. Uning qahramoni — kompozitor Kristof razillik, munofiqlik, amalparastlikni ko'rib azoblanadi. „Maydondagi yarmarka“ kitobi g'oyat keskin fosh qilishi bilan ajralib turadi. Bunda muallif sotqin vazirlarni, „saroy to'tilarini“, „sotsialist“ amalparastlarni, san'at korchalonlarini fosh qilishda satirik usullardan foydalanadi.

Bu davrda satira katta ahamiyatga ega bo'ldi. Nemis yozuvchisi, yumorist *G. Manning* „Sodiq fuqaro“ romani hamda „Imperiya“ trilogiyasiga kirgan boshqa asarlari juda katta fosh etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Uning sahifalarida ko'plab qirollar va kanslerlarni, zodagonlarni va amaldorlarni, xalqqa xiyonat qilganlarni hamda viloyatlardan chiqqan zodagonlarni, hatto imperator Vilgelm II ni ko'rish mumkin.

Mavjud tuzumni hajv qilishning yirik ustasi, atoqli fransuz yozuvchisi *A. Frans* edi. Uning „Silvester Bonnarning jinoyati“ asarida „Uchinchi Respublika“ning illatlari, hukmron doiralarning ma'naviy buzilishi, siyosat arboblarning sotqinligi, monarxlarning fitnalari keskin, oshkora kulgi ostiga olindi. Atoqli amerikalik satirik yozuvchi *M. Tvenning* romanlari, hikoyalari, maqolalari achchiq va darg'azab satiraga boydir. „Olomon qiluvchi Qo'shma Shtatlar“ maqolasining nomi yoki „Senator turmada o'tirmagan vaqtlarida qonun chiqaruvchi kishi“, „Xalq xizmatkorlari — porani taqsimlash uchun o'z lavozimlariga saylangan shaxslar“ nomli o'tkir ta'riflarning o'zi juda qimmatlidir.

Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan ham boyidi. Atoqli yapon yozuvchisi *A. Ryunoske* novellalarida tekinxo'r mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini anglash o'z aksini topdi. Hind gumanist yozuvchisi *R. Tagor* falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, pyesalar, hikoya va she'rlari bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi. Uning butun ijodi milliy mustaqillikka otashin chaqiriqdan iborat edi. Ayniqsa, „Halokat“ romani mashhur bo'ldi. Xitoylik *Lu Sinning* ijodi kambag'allarning og'ir ahvoriga chuqur hamdardlik ruhi bilan sug'orilgan edi.



**Rabindranath Tagor.**

### **Demokratik adabiyot**

Demokratik adabiyot ijodkorlari tenglik va adolat tamoyillarining g'alaba qilishiga, insonning ijodiy kuchlariga, uning dunyoni o'zgartira olishiga ishonar edilar. Uning namoyandalaridan biri amerikalik adiba *G. Bicher-Stou* bo'lgan. Uning „Tom tog'aning kulbasi“ romani jahon adabiyotining nodir asarlaridan hisoblanadi. Romanda XIX asr Amerika qullari va quldorlari hayoti, ular o'rtasidagi ziddiyat, qulchilikka qarshi qora tanlilar isyoni haqqoniy yoritilgan. Uning „Men va mening xotinim“, „Biz va qo'shnilarimiz“ asarlarida ham Amerika hayoti haqqoniy tasvirlanadi.

Jek Londonning tabiatni bo'ysundirgan qahramon haqidagi „Hayotga muhabbat“, ishchi va dehqonlar hayotiga bag'ishlangan „Bir parcha go'sht“, „Dengiz bo'risi“ va boshqa asarlari mashhurdir.

Ingliz dramaturgi *Bernard Shou* o'z asarlarida ekspluatatsiyani, meshchanlik axloqini, munofiqlik, soxtalikni qoralagan. „Qariyalar uyida“, „Qurol va inson“, „Shayton shogirdi“, „Mayor Barbara“ kabi asarlarida jamiyatdagi qusurlarni tanqid qilish bilan birga, ijtimoiy taraqqiyotga, adolatga xizmat qiluvchi kuchlarni zo'rvonlikka qarshi qo'yish g'oyalari ilgari suriladi.

Fransuz abidi *Viktor Gyugo* o'zining „Dahshatli yil“, „Xo'rlanganlar“, „To'qson uchinchi yil“ kabi asarlarida zulmga, jaholat

va adolatsizlikka qarshi norozilik, bosqinchilikka nafrat, kurashchan xalqqa xayrxohlik bildiradi va haqoratlangan mehnatkash insonning fojiali hayoti va kurashini tasvirlaydi.

Fransuz yozuvchisi *Jyul Vern* ilmiy-fantastik romanchilikning yirik vakili. Yozuvchi „Havo sharida besh hafta“, „Yer markaziga sayohat“, „Kapitan Grant bolalari“, „O‘n besh yoshli kapitan“ asarlarining qahramonlari — jasoratli, dovyurak, kurashchan kishilardir.

Rus yozuvchisi *L.N. Tolstoy* umrining so‘nggi yillarida podsho Rossiyasining davlat, cherkov, iqtisodiy va ijtimoiy tartibotlarini, axloqsiz negizlarini tanqid qilishni davom ettirdi. *A.P. Chexov* „Uch opa-singil“, „Olchazor bog‘“ pyesalarida juda katta kuch bilan ijtimoiy masalalarni umumlashtirishga harakat qildi.

Bu davrda yaponiyalik mashhur yozuvchi *Roka Tokutominig* „Kurosivo“, „Yashamagan yaxshi“, *Naoe Kinositoning* „Olovli ustun“ romanlari feodal qoldiqlarga qarshi, milliy qadriyatlarni asrashga, xorijning ma‘naviy ta‘siriga qarshi qaratilgan edi.

Xitoy shoiri *Xua Szunsyun* o‘z she‘rlarida xalqni bosqinchilarga qarshi kurashga chaqirdi. Tanqidiy romanlar kuchaydi. *Li Baotszya* „Bizning chinovniklar“, *U Voyao* „Yigirma yil ichida“, *Lyu E.* „Lao San sayohati“, *Szen Pu* „Qahrli dengizdagi gullar“ romanlari bilan mashhur bo‘ldi. Bu asarlarda mamlakat hayotidagi turli yovuzliklar, qarama-qarshiliklar, bosqinchilarning qilmishlari badiiy ifoda qilingan edi.

### Naturalizm

Naturalizm adabiyotni badiiy yangilashda inqilob yasadi. O‘sha davr hayotini o‘tkir badiiy bo‘yoqlarda tasvirlagan bir guruh san‘atkorlar o‘zlarini naturalistlar deb atadilar. Ularning yirik namoyandalaridan biri fransuz yozuvchisi *Emil Zolya* Fransiyadagi barcha sinflar va ijtimoiy guruhlarning mavqeyini, turmush tarzini va psixologiyasini ko‘rsatishni oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Emil Zolyaning 20 jildlik „Rugon-Makkarlar“ asari Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning hayoti va ijtimoiy tarixiga bag‘ishlanadi. „Jerminal“ va „Tor-mor“ romanlari uning ijodining cho‘qqisi hisoblanadi.

Italiyada naturalizm namoyandalaridan *Luiji Kapuana* va *Jovanni Vegalarni* ko‘rsatish mumkin. Ular o‘z asarlarida Janubiy Italiyadagi qashshoqlikni, unga qarshi kurashuvchilarni badiiy mahorat bilan aks ettirdilar. Amerika naturalistlaridan *Stiven Kreyn*



„Jasoratning qonli belgisi“, *Frenk Norris* „Girdob“ asarlarida juda katta ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqdilar.

Dekadentlik dastlab fransuz adabiyotida yaqqol namoyon bo‘lgan. „La‘nati shoirlar“ deb nom olgan *P. Verlen*, *A. Relebo*, *S. Mallorme* kabi shoirlar yetakchilik qilgan simbolizm oqimiga dekadentlik nihoyatda kuchli ta’sir etgan.



**Demokratik adabiyot** — hukmron tabaqalar manfaatiga emas, xalq manfaatlariga, uning kelajagiga xizmat qiluvchi, kishilarni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalovchi, voqelikni haqqoniy aks ettiruvchi adabiyot.

**Dekadentlik** (lotincha—tanazzul) — Yevropa madaniyatidagi inqiroz holatini umumiy tarzda ifoda etuvchi tushuncha. Tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezishlikni o‘zida aks ettiruvchi oqim.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Tanqidiy realizm adabiyoti qay tariqa vujudga keldi?
2. Demokratik adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini qayd eting.
3. Adabiyotdagi naturalizm va dekadentlik, tanqidiy realizm oqimlarini taqqoslang.
4. XIX asr oxiri — XX asr boshlari jahon adabiyotining yirik namoyandalari ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?






XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Lotin Amerikasi davlatlari.



Rus—Yapon urushi.





**XIX ASRNING OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA  
XITOIY VA YAPONIYA**

Yaponiyada XIX asr oxiri—XX asr boshlaridagi eng muhim sanoat markazlari

Yaponi — Xitoy (1894—1895-y.) va Rus — Yapon (1904—1905-y.) urushlarining hat qitʻonvchi janglari boʻlib oʻlgan joylar va vaqti

Yaponiyaga qarshi qoʻzgʻolon va Tayvan orolida respublika eʼlon qilinishi, 1895-yil may

Koreyada yapon bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashi 1905—1906 va 1910—1911-y.

XIX asr oxirida Yaponiyada 1905—1907-y. rus inqilobi taʼsirida chiqishlar boʻlgan rayonlar

Imperialistik davlatlarning Xitoydagi agressiyasi yoʻnalishlari

- Angliya
- Fransiya
- Yaponiya
- Rossiya
- AQSH

1914-yildagi taʼsir doiralari chegaralari

- Angliya
- Fransiya
- Yaponiya
- Germaniya
- Rossiya

Chet el savdosi uchun ochiq shaharlar

1914-yilga kelib chet el kapitaliga tegishli boʻlgan muhim korxonalar va temiryoʻllar

Milliy kapitalga tegishli boʻlgan muhim korxonalar

„Lixetuan“ xalq qoʻzgʻoloni (1899—1901-y.) boʻlgan rayon

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### *I boʻlim*

#### **JAHON XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA**

##### ***I bob. DUNYONING IJTIMOIIY - IQTISODIIY VA SIYOSIIY MANZARASI***

1-§. XIX asr oxiri—XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub oʻzgarishlar .....	4
2-§. Industrial sivilizatsiya .....	11

### *II boʻlim*

#### **YEVROPA VA AMERIKA DAVLATLARI**

##### ***II bob. GʻARBIY YEVROPA DAVLATLARI XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA***

3-§. Fransiya—Prussiya urushi va uning yakunlari .....	16
4-§. Fransiyada Uchinchi Respublika va 1871-yil 18-mart davlat toʻntarishi .....	18
5-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Fransiyada iqtisodiy va siyosiy hayot .....	21
6-§. Fransiyaning ichki siyosati .....	23
7-§. Fransiyaning tashqi siyosati .....	26
8-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Germaniya. Imperiyaning tashkil topishi .....	29
9-§. Imperiyaning ichki siyosati .....	32
10-§. Imperiyaning tashqi siyosati .....	35
11-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli .....	39
12-§. Buyuk Britaniyaning ichki siyosati .....	42
13-§. Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati .....	45

##### ***III bob. XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA AMERIKA DAVLATLARI***

14-§. Amerika Qoʻshma Shtatlari .....	48
15-§. AQSHning ichki siyosati .....	52
16-§. AQSHning tashqi siyosati .....	55
17-§. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Lotin Amerikasi davlatlari .....	59
18-§. Lotin Amerikasining boshqa davlatlari .....	63

**IV bob. XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA PODSHO ROSSIIYASI, MARKAZIY VA JANUBI-SHARQIY YEVROPA DAVLATLARI**

19-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida podsho Rossiyasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli .....	66
20-§. Podsho Rossiyasining tashqi siyosati .....	69
21-§. Rossiyada Davlat dumasining tashkil etilishi .....	73
22-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasi .....	76
23-§. Avstriya-Vengriya imperiyasining tashqi siyosati .....	80
24-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Italiya .....	82
25-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Bolqon davlatlari .....	86

**III bo‘lim**

**OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI**

**V bob. XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA OSIYO DAVLATLARI**

26-§. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya .....	90
27-§. XIX asrning oxirida Xitoy .....	94
28-§. XX asr boshlarida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli .....	97
29-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Hindiston .....	101
30-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Eron .....	105
31-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Afg‘oniston .....	109
32-§. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiya .....	112

**VI bob. XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA AFRIKA MAMLAKATLARI**

33-§. Shimoliy Afrika mamlakatlari .....	116
34-§. Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari .....	120

**VII bob. 1914 — 1918-YILLARDAGI BIRINCHI JAHON URUSHI**

35-§. Birinchi jahon urushining boshlanishi va borishi .....	124
36-§. 1916—1917-yillardagi urush harakatlari .....	129
37-§. Birinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari .....	131

**IV bo‘lim**

**FAN VA MADANIYAT**

**VIII bob. XIX ASRNING OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYATNING RIVOJLANISHI**

38-§. Moddiy ishlab chiqarishda texnika va fan taraqqiyoti .....	136
39-§. Aniq va tabiiy fanlar rivoji .....	140
40-§. Xalq ta‘limi. Gumanitar fanlar. San‘at .....	145
41-§. Adabiyot .....	149
Ilovalar .....	154

**J 23**

**Jahon tarixi: 9:** umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/M. Lafasov va boshq. 3-qayta ishlangan va tuzatilgan nashr. — Toshkent: „Oʻqituvchi“ NMIU, 2014. — 160 b.

I. Lafasov M. va boshq.

ISBN 978-9943-02-754-1

UOʻK 94(4/9)(075)

KBK 63.3(0)53ya721

**MOYLI FOZILOVICH LAFASOV  
USMON TOSHPOʻLATOVICH JOʻRAYEV  
ESHQOBIL XOLIQOVICH XOLIQOV  
DILOROM QODIROVA**

## **JAHON TARIXI**

### **9-sinf uchun darslik**

Qayta ishlangan va tuzatilgan 3-nashri

*„Oʻqituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2014*

Muharrir *T. Mirzayev*

Rasmlar muharriri *D. Mulla-Axunov*

Texnik muharrir *T. Greshnikova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*

Musahhah *Z. Gʻulomova*

Nashriyot litsenzyasi AIN№ 161 14.08.2009. Original maketdan bosishga ruxsat etildi 8.04.2014. Bichimi 60×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli 11 shponli. Tayms garn.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 10,0. Hisob-nashriyot t. 9,72.

Adadi 370 135 nusxa. Buyurtma №

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining „Oʻqituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy koʻchasi, 30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar koʻchasi, 1-uy. Shartnoma № 07-12-14.

**Ijaraga beriladigan darslik holatini  
ko'rsatuvchi jadval**

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.